

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo'lyozma huquqida

UDK

XOLMIRZAYEVA FOTIMA

**ERGASH GAPLI QO'SHMA GAPLARNING
SEMANTIK TADQIQI**

**5A111201 – O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi bo'yicha magistr
akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Andijon- 2014

Mundarija

Ishning umumiy tavsifi.....	
Kirish	
 I boʻ6. Gapning mazmuniy tuzilishi	
1.1. Gap sintaksisni asosiy birligi sifatida.....	
1.2. Gap va uning mazmuniy tuzilishi.....	
II bob. Ergash gapli qo'shma gaplarning grammatik xususiyatlari	
2.1. Sintaktik birliklarda shakl va mazmuni.....	
2.2. Ergash gaplar tasnifi masalalari.....,	
2.3. Ergash gapli qo'shma gaplarning grammatik xususiyatlari.....,	
III bob. Ergash gapli qo'shma gaplarning semantik tadqiqi	
3.1. Izohlash munosabatini ifodalovchi ergash gaplar.....	
3.2. Payt munosabatini ifodalovchi ergash gaplar.....	
3-3. Sabab-natija munosabatini ifodalovchi ergash gaplar.....	
3.4. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi ergash gaplar.....	
3.5. Shart munosabatini ifodalovchi ergash gaplar	
3.6. Izohlash munosabatini ifodalovchi ergash gaplar	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimizda bugungi kunda milliy ma'naviyatimizning yuksaltirish, urf-adat va qadriyatlarimizni yoshlar ongi shuuriga singdirish eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan.

«Ma'lumki, o'zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o'rtasidagi ruhiy ma'naviy bog'liqlik til orqali namoyon bo'ladi. Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan sangadi. Ona tili – bu millatning ruhidir»¹

O'zbek tilshunosligidagi bugungi kunda yaratilayotgan qator tadqiqotlar, izlanishlar aynan shu talablardan kelib chiqadi.

Ma'lumki, tilning sintaktik sathi tilning fonetik, leksik va morfologik sathiga nisbatan yuqori sath hisoblanadi.

Bugungi kunda o'zbek tilini an'anaviy metodlar orqali o'rganish bilan birga, jahon tilshunosligida keng qo'llanilayotgan sistemaviy-struktur metodlar asosida o'rganish tobora kengayib bormoqda.

Tilga va uning birliklariga sistema sifatida yondashuv shu kunga qadar tilshunoslik uchun qorong'i bo'lib kelayotgan jihatlarni aniqlashga yordam beradi.

Sintaksisning azaliy muammolaridan biri ergashgan qo'shma gaplar, ularda turli sub'yektiv, modal munosabatlarning ifodalanishi, bunda deytik belgilar, havola bo'laklarning o'rmini belgilash masalasidir.

Ushbu ishda sintaksisning eng chigal masalalaridan biri bo'lgan shakl va mazmun, struktur va pozitsion asimmetriya yorqin namoyon bo'ladigan masalalaridan biri – ergash gapli qo'shma gaplarning semantik xususiyatlarini o'rganish maqsad qilib olinganligi dolzarbligini belgilaydi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Til belgilar sistemasi sifatida e'tirof etilganidan buyon lingvistik belgining ifodalovchi va ifodalanmish munosabatidan tashkil topgan butunlik ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan tan olindi. Lingvistik belgilar qatorida gap ham alohida o'rin egallab, u boshqa lingvistik belgilar qatori shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Shunday bo'lishiga qaramasdan, sobiq sho'rolar davri tilshunosligida lingvistik belgilarning ko'proq shakl tomoniga e'tibor qaratildi, mazmun jihatida esa ahyon-ahyondagina esga olindi. O'tgan asrning 80-yillaridan boshlab ana shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilindi, natijada sintaktik birliklarning shakl va mazmun munosabatini tadqiq etishga bag'ishlangan qator asarlar maydonga keldi².

¹ Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. –Т.:Маънавият, 2008, -Б. 83

O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganishda G'.Abdurahmonov, M.A.Asqarova, A.Berdialiyevlarning ilmiy tadqiqotlari alohida diqqatga sazovordir¹. G'.Abdurahmonov va M.A.Asqarovalarning tadqiqotlarida o'zbek tilidagi ergash gaplar, asosan, formal (shakl) jihatdan o'rganilgan. Xususan, M.A.Asqarova «Hozirgi o'zbek tilida ergashish usullari va ergash gap tiplari» mavzuidagi doktorlik dissertatsiyasida ergashish usullari va shakllari ergashgan qo'shma gap uzvlarining bog'lanishida ishtirok etuvchi lisoniy vositalarni yoritib bergan². Hatto ergash gaplarning mazmuniy-sintaktik tiplari haqida gap ketganda ham mazmuniyat bilan bog'liq qisqa izohlardan keyin, yana bari bir bog'lovchi vositalar qo'shma gap uzvlarining o'rinishuvi kabi masalalarga ko'proq e'tibor qilingan. G'.Abdurahmonov tadqiqotlarida ham qo'shma gaplarga ana shunday yondashuvni ko'rish mumkin. Bu gaplarni aytishdan murod mazkur tadqiqotlarning o'zbek tilshunosligidagi juda jiddiy qimmatini kamsitish emas. Ularning o'zbek tilshunosligining, umuman, turkiyshunoslikning bugungi taraqqiyoti uchun ilmiy-nazariy zamin hozirlaganligi shubhasiz, o'zbek tilshunosligining bugungi taraqqiyotini mazkur tadqiqotlarsiz tasavvur etish mushkul.

Tadqiqotning o'rganish ob'yekti. O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplar tadqiqotning o'rganish ob'yekti sanaladi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.

- tilshunoslikda gap va uning muhim belgilarini o'rganish;
- sintaktik birliklarning shakli va mazmuni o'rtasidagi nomuvofiqliklarni aniqlash;
- shu kunga qadar jahon va rus tilshunosligi hamda turkologiyada mavjud bo'lgan ergashgan qo'shma gaplar haqidagi qarashlarning tayanch nuqtalarini belgilash;
- ergash gapli qo'shma gaplarda shakli va mazmun munosabatlarini o'rganish;
- ergash gapli qo'shma gaplarning grammatik xususiyatlarini aniqlash;
- ergash gapli qo'shma gaplar orqali yuzaga chiqadigan mazmuniy munosabatlarni tatqiq etish.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Magistrlik dissertatsiyasining metodologik asosi olamni o'zaro aloqadorlikda va taraqqiyotda o'rganishga asoslangan dialektik falsafadir. Ishda qiyoslash, chog'ishtirish, tavsifiy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

¹ Абдурахмонов Г. А. Қўшма гап синтаксиси асослари. Тошкент: УзФА нашриёти, 1958; Асқарова М. А. Ҳозирги замон ўзбек тилида қўшма гаплар. Тошкент: УзФА нашриёти, 1960; Асқарова М. А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке. АДД. Ташкент, 1963; Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 171—240-бетлар; Бердиалиев А. Эргаши гапли қўшма гап конструкцияларида семантик-сигнификатив парадигматика.

² Асқарова М. А. Способы подчинения и типы придаточных предложений в современном узбекском языке. АДД. Ташкент, 1963, С. 16—71.

- o'zbek tilshunosligida ergashgan qo'shma gaplarning gap qurilishi va mazmunidagi o'rni o'rganildi;

- ergash gapli qo'shma gaplarda shakl va mazmun munosabati tadqiq etildi;

- ergash gapli qo'shma gaplar mazmuniy munosabatlar asosida tasnif qilindi.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Ish kirish, uch bob, umumiy xulosalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ish komp yuter Tames new Roman yozuvida ... sahifani tashkil etadi.

Kirish

Prezidentimiz I.A.Karimovning "Vatanimiz va xalqimizga sadoqat bilan xizmat qilish – oliy saodatdir" deb nomlangan ma'ruzasida shunday deyiladi: "Bu dunyoda faqatgina o'zini hurmat qiladigan, o'z qadriga yetadigan, kuchli va muvaffaqiyatga erishgan xalq va davlatgina tan olinadi. Ya'ni o'z mehnati, aql-zakovati va salohiyati bilan o'zini-o'zi boqadigan, o'zini himoya qilishga, kelajagini o'z qo'li bilan qurishga qodir bo'lgan xalqni jahon ahli e'tirof etadi. Barchamiz, avvalo, yoshlarimiz bu oddiy haqiqatni hech qachon unutmasligimiz zarur".

Insonning ma'naviy kamolotga erishuvida, jamiyatning madaniy-ma'rifiy rivojida ona tilining orni favqulodda muhimdir. Til milliy ma'naviyat, ma'rifat va madaniyatning eng xolis va xira tortmas ko'zguvidir. Chunki til millat degan birlikning tamal toshi, u boy berilsa, millat ham boy beriladi. Zero, O'zbekiston Prezidenti I.Karimovning quyidagi so'zlarida ulkan ma'no bor: "Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona allasi, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi... Ona tili — bu millatning ruhidir. O'z tilini yo'qotgan har qanday millat o'zligidan judo bo'lishi muqarrar." Demakki, millatning borligi va birligining bosh belgisi tildir.

Darhaqiqat, bir mamlakatni atrofdagilar hurmat qilishi uchun o'sha xalq, avvalo, o'zini hurmat qilishi zarur. O'z aqlu-zakovati bilan muvaffaqiyatlarga erishish esa o'sha xalqning o'tmishini, ilmiy me'rosini puxta o'rganishni taqozo qiladi. Chunki har qanday xalq ilm orqali o'tmishdagi muvaffaqiyatga erishilgan tajribalardan xabardor bo'lishi, yo'l qo'yilgan xatolardan kerakli xulosalar chiqarishi mumkin. Shu ma'noda bizning mazkur kichik tadqiqotimiz ham mamlakatimizdagi ilm-fan rivoji yo'lida, ilmiy me'rosimizni tadqiq qilish yo'lidagi bir qadam deyishimiz mumkin.

Hozirgi kunda tilning sistema ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e'tirof etilmoqda. Shuning uchun ham keyingi yillarda barcha fanlarda amal qilingani kabi tilshunoslikda ham sistemaviy tadqiqotlarga e'tibor berilmoqda.

Tilshunoslik tarixida gap asosan shakliy nuqtai nazaridan o'rganib kelindi va ayrim hollardagina uning mazmuniy tomoniga e'tibor qaratildi.

Gap shakliy jihatdan muayyan elementlarga bo'linadigan va ayni paytda, ma'lum elementlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatidan tashkil topgan butunlik sifatida talqin etildi. Ko'rinadiki, an'anaviy tilshunoslikda ham intuitiv holatda bo'lsa-da, gapning sistemaviy tabiati e'tirof etiladi. Lekin butunlikdan tashkil topgan elementlar o'rtasidagi munosabatlarga yetarli e'tibor berilmagan. Sintaksisni o'rganish tarixi o'zining ko'p asrlik an'anasiga ega bo'lishiga qaramasdan, uning o'rganish predmeti masalasida hanuzgacha xilma-xil fikrlar mavjud.

XIX asrning yarmidan boshlab, sintaktik nazariyalarda e'tibor butunga (gapga) emas balki uning bo'laklariga qaratildi. Natijada tilshunoslar so'z turkumlari va shakllarining gapdagi

vazifalarini o'rganishga e'tibor berdilar. Bunday qarash (morfologizm) grammatik tahlilning shakliy tomoniga va tillarning milliy o'ziga xosligiga e'tiborning kuchayishi natijasida vujudga keldi. Butunning – gapning mantiqiy tahlili (loginizm) o'z o'rnini so'zlarning sintaktik (birinchi navbatda birikishi) xususiyatlarining grammatik tavsifiga bo'shatib berdi. Morfologizm konsepsiyasi rus tilshunoslari Baksakov, Vostokov asarlarida o'z ifodasini topdi.

Y.Ris so'z turkumlari sintakisi haqidagi ta'limotni tanqid qilib, so'z turkumlari sintakisisida sintaktik materiallar tizimining izchil emasligini, sintaktik predmeti maqomini belgilashda aniq chegaraning yo'qligini qoralaydi va o'zi grammatikaning o'zaro bog'langan ikki tamoyil asosida bo'linishini tavsiya etadi. Ulardan biri so'z va so'z birikmasining miqdoriy oppozitsiyasi, shakl va mazmun o'rtasidagi sifat oppozitsiyasi.

Sintaksis predmeti Y.Risning fikricha, ham shakl, ham mazmun tomonini hisobga olgan holda so'z birikmasi bo'lishi kerak.¹

Mashhur rus tilshunosi akademik V.V.Vinogradov sintaksisning so'z birikmasi haqidagidagi ta'limotdir degan qarashlarga qarshi chiqib, u sintaksis predmeti so'zning so'z birikmasi va gap tarkibida birikishi qoidalari va usullarini, tuzilishi, vazifasi va qo'llanilish shart-sharoiti, rivojlanishi qonuniyatlarini o'rganishdan iborat ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Ko'rinadiki, V.V.Vinogradov sintaksisning o'rganish ob'yekti so'z birikmasi va gap bo'lishi kerakligini e'tirof etadi. So'z birikmasi sintaksisining ham, gap sintaksisining ham tarkibiy qismlari gap bo'laklari rubrikasi ostida o'rganiladi.²

Sintaksisga gap bo'laklari sifatida qarash o'zining uzoq tarixiga ega. Shunga qaramay, gapni gap bo'laklariga ajratish tamoyiliga ham, gap bo'laklari soni va ularning mavqei masalalari xususida tilshunoslar fikrlarida xilma-xilliklar kuzatiladi.

Mazkur masaladagi har xilliklar, ayrim kamchiliklarni, gap bo'laklari maqomini belgilash jarayonida yuzaga kelgan muammolarni e'tiborga olgan holda, bir qator olimlar o'tgan asrning 70-yillariga kelib sintaksisni umuman gap bo'laklari haqidagi ta'limot sifatida o'rganish kerak emasligini ta'kidladilar.

So'nggi yillarda so'z birikmasi, gap, shuningdek, gapdan yuqoriroq bo'lgan birlik matn ham sintaksisning o'rganish ob'yekti sifatida ajratilmoqda. Uni o'rganuvchi sintaktik ta'limot matn sintaksisi nomi bilan yuritilmoqda.

Ilmiy grammatikaning asosiy vazifasi dunyodagi barcha tillar yoki har qanday alohida olingan tilni o'rganish jarayonida chin bilimga ega bo'lishni ta'minlaydigan qonun va tamoyillarni aniqlashdan iborat bo'lishi kerak.

¹ А.Нурмонов. Гап ҳақида синтактик назариялар. Т.: 1988. 18-б.

² А.Нурмонов, Н.Маҳмудов ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т.: Fan, 1992. 24-бет.

Olimlarimizning ko'rsatishlaricha, inson o'z ongidagi barcha taassurotlarni ifodalash uchun belgiga ehtiyoj sezadi. Ana shunday belgi vazifasini so'z va gap bajaradi.¹ Ratsional grammatika mualliflari so'z va gap mohiyatini ham mantiq asosida belgilaydilar. Tilshunoslikka mantiqning ta'siri, ayniqsa, gap va uning asosiy grammatik belgisi sanaluvchi predikativlik so'zlarni belgilashda ham aniq o'z ifodasini topadi.

“Butundan bo'lakka” tamoyili sintaksisning morfologiyaga nisbatan ustunligi, morfologik strukturani belgilashda ham sintaksisning ustivorligi, morfologik sinf va kategoriyalarning sintaktik tamoyillar, ruknlar asosida belgilanishi sistem-struktur tilshunoslikning glossematika yo'nalishida ham davom etdi.

O'zbek tilshunosligining asosi bo'lgan an'anaviy tilshunoslik gapning faqat bir tuzilishiga – sintaktik tuzilishigagina e'tiborini qaratdi. Qolgan strukturalar hamda bu strukturalar o'rtasidagi o'zaro munosabat tadqiqotchilar nazaridan chetda qoldi. Buning natijasida gapning sistemaviylik tabiati, uning murakkab strukturaga ega ekanligi ochilmay qoldi. Barcha til birliklari kabi sintaktik birliklarga ham sistemaviylik nuqtai nazaridan qarash gapning barcha struktur birliklarini bir-biri bilan munosabatda o'rganishni taqozo etadi.

Keyingi yillarda o'zbek tilshunosligida ham sintaktik birliklarning mazmun tomonini o'rganishga e'tibor kuchaydi, sintaktik birliklarning shakliy va mazmuniy jihatlari uzviy bog'liklikda tekshirila boshlandi. Sintaksisning vazifasi sintaktik birliklarning nimalardan tashkil topishini o'rganish bilan birga, ularning boshqa birliklar bilan munosabatini ham ochib berishdan iborat bo'lishi kerak.

Tilning fonologik sath birliklaridan boshqa barcha sath birliklari shakl va mazmun munosabatidan tashkil topgan murakkab qurilma sanaladi. Shuning uchun ham bu sathlarga mansub bo'lgan lisoniy birliklarning har ikki tomonini o'rganish, ularning o'zaro munosabatini belgilash hozirgi tizim (sistem) tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

Sintaktik sathning markaziy birligi bo'lgan gapning tuzilishi morfemik, leksik, morfologik sath birliklari tuzilishiga nisbatan ham murakkabroqdir. Chunki gap mazmuni leksik va morfologik birliklarda mavjud bo'lmagan yangi mazmuniy uzvlar bilan boyiydi. Bu esa gapning murakkab qurilma sifatida tabiatini ochish, uning har qaysi tomonining o'ziga xos xususiyatlarini va ayni paytda, bir butun tarkibida o'zaro munosabatini belgilash muhim ahamiyatga ega.

Tilshunos olim G'. Abdurahmonov uzoq yillar o'zbek tilshunosligida gapning asosan shakliy tuzilishiga e'tibor jalb qilinganligini, ahyon-ahyondagina mazmuniy tuzilishga xos bo'lgan

¹ Каранг: А.Нурмонов, Б.Йўлдашев Тилшунослик ва табиий фанлар. Т., 2000.

xususiyatlar ham esga olinganligini ta'kidlaydidi¹. Lekin mazmuniy tuzilish va uning qanday qismlardan tashkil topganligi, ularning mohiyati tadqiqotchilar nazaridan chetda qoldi.

O'zbek tilshunosligidagi ana shu bo'shliqni to'ldirish maqsadida 80-yillardan boshlab bir qator asarlar maydonga keldi.¹ Buning natijasida gapning mazmuniy aspekti hali yoritilishi lozim bo'lgan bir qancha muammolarga boy bo'lsa ham, ma'lum darajada oydinlashdi.

Bugungi kunda dunyo tilshunosligida bo'lgani kabi o'zbek tilshunosligida ham sintaktik birliklarning, xususan, gapning shakliy va mazmuniy jihatlari e'tiborga olingan holda o'rganilayotgan bo'lsa-da, lekin bu sohada o'z yechimini kutayotgan muammolar talaygina.

Shu maqsadda biz mazkur ilmiy tadqiqot ishimizda ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuniy tuzilishini, semantik xususiyatlarini o'rganishni maqsad qilib belgiladik.

¹ Абдурахмонов Ғ. Қўшма гап синтаксиси асослари. Т.: ЎзҒа нашриёти.1958; Абдурахмонов Ғ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II том. Т.: Ған, 1966; Ўзбек тили грамматикаси. II том. Т.: Ған, 1976.

² Нурмонов А ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. Т.: Ған, 1992; Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1995; Махмудов Н. Ўзбек тили содда гапларида синтактик-семантик асимметрия. Т.: Ўқитувчи, 1984.

I bob

Gap va uning mazmuniy tuzilishi

1.1. Gap sintaksisning asosiy birligi sifatida

Sintaksis gapda so'zlarning birikish yo'llarini, so'zlarning gapdagi o'zaro aloqasini, gap tuzilishini, turlarini, gap bo'laklarini o'rganadi¹. Lekin gapda ifodalanayotgan fikr u yoki bu sintaktik qurilmalarda qanday qo'llashga, munosabatlarni ifodalashning u yoki bu usullarini ishlatishga qarab turlicha o'ttenka olishi mumkin. Uslubiyatda bir xil ma'no, bir xil fikrni ifodalovchi parallel vositalar o'rganiladi. Uslubiyat gap bo'laklarining, gaplarning ma'nodoshligini tekshirayotganda sintaktik sinonimiya hodisalarini bir-biriga qiyoslash asosida ish ko'radi, ulardan har birining fikr ifodalashdagi ekspressiv ma'no tafovutlarini aniqlaydi.

Bog'li nutqning axborot tashuvchi eng kichik birligi va shunday birliklarning umumlashgan namunasi gapdir. Demak, sintaktik sathning asosiy birligi va sintaksisning asosiy o'rganish ob'yekti gap hisoblanadi.

So'nggi paytlarda tilga tizim sifatida yondashish, tilni tizim qonuniyatlari asosida o'rganish, til va nutq hodisalarini farqlash kabilar hozirgi zamon tilshunosligida katta burilish yasadi va tilshunoslik fanining rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Har qanday nutqiy faoliyat markazida shaxs turar ekan, u sezgi o'rganlari orqali borliqdagi olam unsurlarini umumlashtirgan holda ongda aks ettiradi va til belgilari orqali tinglovchiga uzatadi. Nutqiy faoliyatda gapirish va tushunish, nutq hosil qilish va uni idrok etish jarayonlari almashinib turadi. Shu sababli lingvistik birliklar semantikasida ikki yo'nalish o'rganiladi. Birinchi yo'nalish onomasiologik yo'nalish bo'lib, unda mazmundan shaklga, ya'ni gap hosil qilish jarayoniga e'tibor beriladi. Ikkinchi yo'nalish semasiologik yo'nalish bo'lib, unda shakldan mazmunga, ya'ni gapning ob'yektiv mazmun tomoniga e'tibor qaratiladi.

Har qanday lisoniy birlik shakl va ma'no birligidan iborat. Yuqori sath birligi bo'lgan sintaktik birliklar ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, barcha lisoniy biliklarni bu ikki tomonning o'zaro qanday munosabatda ekanini o'rganish, ular o'rtasidagi muvofiq va nomuvofiq jihatlarni yoritish katta ahamiyatga ega.

Har bir sath birligi kabi sintaktik sath birligi bo'lgan gap ham ikki tomonlama mohiyat sifatida ikki xil tuzilishga ega ekanligi ma'lum: uchki (mazmuniy) va tashqi (shakliy) tuzilishga.

Gapning shakily tomoniga asosiy e'tiborni qaratish an'anaviy tilshunoslikning asosiy xususiyatidir. Mazkur tilshunoslik vakillari asosan gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklarini o'rganishni maqsad qilib oldilar. Mantiqan yondashilsa, gapning shakliy tomoni qanday

¹ Фуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. 15-бет.

tuzilishga ega bo'lsa, mazmuniy tomoni ham ana shunday tuzilishga egadir. Gapning mazmun tomoni ham muayyan mazmuniy uzvlardan tashkil topgan kichik sistema sanaladi. Uning uzvlari ob'yektiv olam bilan bog'lanadi va ob'yektiv olam unsurlarini lisoniy birliklar orqali tilda ifodalaydi. Demak, gapning mazmuniy birliklari shakliy tomonni ob'yektiv olam bilan bog'lab turuvchi vosita sanaladi.

Gap grammatik jihatdan tashkil topgan, tarkibidagi elementlari bir yaxlit holga kelgan, semantik, intonatsion butunlikka ega bo'lgan sintaktik birlik, u fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, emotsiyalarni, his-tuyg'ularni bildirish uchun ham qo'llanadi.¹

Nutq gaplardan iborat bo'ladi. Gap nutqning nisbiy tugallangan fikr ifodalaydigan bo'lagidir. Har bir tugallangan fikr so'zlar yig'indisi yoki ayrim bir so'z bilan ifodalanadi. Gap, odatda, so'zlarning grammatik qonun – qoidalar asosida birikuvi bilan hosil bo'ladi. So'zlarning birikuvidan tuzilgan bu konstruksiya nutqning fikr anglatishdagi eng sodda qismidir.

Gapning tugallangan fikr ifodalashi uning semantik tomonidir. Lekin bu fikriy tugallik nisbiydir. Chunki ayrim gapdagi fikrning to'liq ochilishi nutq ichida bo'ladi.²

Gapdagi so'zlarning o'zaro semantik munosabatga kirishi o'sha so'zlar bilan ifodalangan tushunchalarning munosabatini, ob'yektiv borliqdagi predmet, holatlarning aloqasini bildiradi.³ Bu aloqalar natijasida gapning mundarijasi tashkil topadi va ifodalanadi.

Gap bir butunlik sifatida gap bo'laklaridan va so'z birikmalaridan iborat. Demak, gapning ichki tuzilish birligi gap bo'laklari va so'z birikmalaridir.

Ko'pchilik tilshunolar sintaksisning o'rganish ob'ekti uchta va shunga ko'ra, sintaksis uch turga bo'linadi:

1) so'z birikmasi sintaksisi:

2) gap sintaksisi:

3) matn sintaksisi.

Sintaktik birliklar ham til birligi sifatida tizim tarkibida sintagmatik va paradigmatic munosabatlarda bo'ladi.

Ma'lum bir sintaktik birlikning boshqa sintaktik birlik bilan ketma-ket munosabati sintagmatik munosabatni hosil qiladi.⁴

Sintaktik birlik til tizmasi tarkibida yuqori sath birligi sifatida shakl va mazmun birligidan tashkil topgan bir butunlik ekan, sintaktik birliklar o'rtasida sintagmatik munosabat ham ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi: a) shakliy sintagmatik munosabat, b) mazmuniy sintagmatik munosabat.

¹ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Т.: Ўқитувчи, 1995. 12-бет.

² Ўзбек тили грамматикаси. 2-жилд. Синтаксис. Т.: Фан, 1976. 67-бет.

³ Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Ўқитувчи, 1987. 30-бет.

⁴ Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining azariy grammatikasi. T.: O'qituvchi, 12-бет.

Ma'lum sintaktik shaklning (gap bo'lagi shaklining) boshqa sintaktik shakl bilan ketma-ket munosabati shakliy sintagmatik munosabat sanaladi.

Shakliy sintagmatik munosabat ikki xil bo'ladi: a) teng munosabat (tenglanish); b) tobe munosabat (tobelanish).

O'zaro teng (bir xil) holatdagi sintaktik shakllar munosabati teng munosabat hisoblanadi. Teng munosabatdagi sintaktik birliklar ko'pincha bir xil grammatik shaklda, bir xil sintaktik vaziyatda turadi va bir xil so'roqqa javob bo'ladi. O'zaro teng bog'lovchilar, sanash ohangi va teng bog'lovchi vazifasida boshqa vositalar yordamida bog'lanadi. Masalan, Olimlar, fozillar, shoirlar shahri. (U.)

O'zaro teng munosabatda bo'lgan sintaktik shakllar boshqa bir umumiy sintaktik shakl bilan tobe munosabatda bo'ladi. Masalan, Olimlar shahri, fozillar shahri, shoirlar shahri kabi.

Biri tobe, ikkinchisi hokim holatdagi sintaktik shakllar munosabati tobe munosabat hisoblanadi. Bunday munosabatda tobe vaziyatdagi sintaktik shakl hokim vaziyatdagi sintaktik shaklning "bo'sh o'rinlari"ni to'ldiradi, uning shakliy va mazmuniy valentliklarini ro'yobga chiqaradi. Shuning uchun ham bunday munosabat doimo ikki qismdan – tobe va hokim qismdan iborat bo'ladi. Masalan, moviy osmon.

Mazmuniy birliklarning ketma-ket munosabati mazmuniy sintagmatik munosabatni hosil qiladi. Sintaktik birliklarning mazmuniy munosabati kishi ongida aks etgan moddiy dunyodagi elementlarning o'zaro munosabatidir. Sintaktik birliklar o'rtasidagi mazmuniy sintagmatik munosabatni ham quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- 1) sub'yekt va predikat munosabati yoki predikativ va sub'yektili munosabat;
- 2) belgi va predmet o'rtasidagi munosabat yoki atributiv munosabat;
- 3) belgi bilan harakat o'rtasidagi munosabat yoki relyativ munosabat;
- 4) predmet (ob'yekt) va harakat o'rtasidagi munosabat yoki ob'ektili munosabat.

Sintaktik aloqa yo'nalishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: a) ikki tomonlama aloqa (koordinatsiya), b) bir tomonlama aloqa (subordinatsiya).

Ikki tomonlama aloqada ikki sintaktik shakl o'zaro ikki tomonlama-ham chapdan o'ngga qarab, ham o'ngdan chapga qarab bog'lanadi. Har ikki sintaktik shakl bog'lovchi oladi. Bunday aloqada sintaktik shaklning birini hokim, ikkinchisini tobe deb bo'lmaydi.

Bir tomonlama aloqada tobelanish yo'nalishi bir tomonlama bo'ladi: tobelanish yo chapdan o'ngga qarab yo'naladi (ikkinchi darajali bo'laklarning hokim bo'lak bilan aloqasi) yo o'ngdan chapga qarab yo'naladi (bosh bo'laklarning o'zaro aloqasi). Tobe qism tobelashtiruvchi vosita yordamida hokim qismga bog'lanadi. Masalan, kitobni o'qi, ovqatdan ol, men keldim va boshqalar.

Sintaktik birikmalarning makon va zamonga bogʻliq boʻlmagan oʻzaro assotsiativ munosabati paradigmatic munosabat hisoblanadi. Maʼlum bir asosda oʻzaro assotsialashgan sintaktik birliklar paradigma aʼzolari sanaladi. Paradigma aʼzolarining umumlashmasi esa maʼlum umumlashmani, kategoriyanı hosil qiladi.

Gap grammatik jihatdan tashkil topgan, tarkibidagi elementlari bir yaxlit holga kelgan, semantik intonatsion butunlikka ega boʻlgan sintaktik birlik, u fikr bildirish, xabar berish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, emotsiyalarni his-tuygʻularni bildirish uchun ham qoʻllanadi. Kishilar gap orqali oʻz his-tuygʻulari: hayajoni, quvonchi, qaygʻusini ifoda etadilar.

Gapdagi soʻzlarning oʻzaro semantik munosabatga kirishi, oʻsha soʻzlar bilan ifodalangan tushunchalarning munosabatini, obʼyektiv borliqdagi predmet, holatlarning aloqasini bildiradi (predikativ aloqa yoʻli bilan):

- a) predmet bilan harakat munosabati ot+feʼl: Ot kishnadi;
- b) predmet bilan belgi munosabati ot+sifat: Suv tiniq;
- v) predmet bilan predmet munosabati ot+ot: Kamtar-parranda.¹

Bu aloqalar natijasida gapning mundarijasi tashkil topadi va ifodalanadi.

Kishilar oʻz hayotlarining uzviy bir qismi boʻlgan gap orqali muomala-munosabatga kirishadilar. Sintaksisning asosiy birligi hisoblangan gap haqidagi taʼlimot uzoq tarixga ega. Tilshunoslik fanida gap va uning tabiatiga doir turli fikrlar uchratamiz. Adabiyotlarda qayd etilishicha, hozirgi kunda gapning 300 ga yaqin taʼrifi maʼlum. Shu faktning oʻziyoq gap tushunchasi nafaqat murakkab va ziddiyatli ekanidan dalolat beradi.

Tilshunoslik tarixida sintaktik kategoriyalarni, shu jumladan, gap va uning xususiyatlarini izohlashda bir-biridan farq qiluvchi bir qancha lingvistik oqimlar boʻlgan. Shulardan biri va dastlabkisi logik-grammatik oqimdir. Bu oqim gapni logika-mantiq qonunlari asosida tahlil etadi. Bunda hatto gap termini gapning oʻziga nisbatan ham, logik hukmga nisbatan ham qoʻllanadi. Gapga logik nuqtai nazardan qarashni rus tilshunosligida F.I.Buslaev misolida koʻrish mumkin. U gapga “Soʻzlar bilan ifodalangan hukm” deb taʼrif beradi.¹

Gapga psixologik protsess sifatida qarovchilar ham boʻlgan. Bunday qarash tilda psixologik-grammatik oqim nomini olgan. Bu oqim gapni soʻzlovchi psixikasida paydo boʻlgan tasavvurlar birikmasini ifoda etuvchi, shuningdek tinglovchi psixikasida ham shu tasavvurlarni hosil qiluvchi vosita sifatida baholaydi.

Gapga logik nuqtai nazardan qarash oʻrtasida prinsipial farq yoʻq. Har ikkala qarash ham gapning sof lingvistik belgilarini hisobga olmaydi. Bu hol tilshunoslikda gapning lingvistik belgilarini topishga intilishni kuchaytirib yubordi. Logik-grammatik va psixologik-grammatik

¹ Гуломов А., Асқаров М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.:Ўқитувчи, 1987. 30-бет.

¹ Аҳмедов А. Ўзбек тилида гапнинг коммуникатив турлари. Т.: Fan, 1979. 6-бет.

oqimlarga qarshi kurashda, uchinchi, yangi oqim-formal-grammatik oqim maydonga keldi. Bu oqim ikki yo'nalishda davom etdi. Ba'zi olimlar gapga ta'rif berishda uning kommunikativ birlik sifatidagi xususiyatlarini, bu xususiyatlar bilan bog'liq bo'lgan kategoriyalarni hisobga oldilar, boshqalar esa gapning formal belgilariga, birinchi galda formal-grammatik bilimlariga tayandilar.

Gaplar ifoda maqsadiga ko'ra darak gap, so'roq gap, buyruq gaplarga bo'linadi. Kuzatilgan maqsadga qarab, nutq uslubining barchasida foydalaniladi. Bu gaplarning har biri nutq uslublarida qo'llanishiga qarab, ayrim o'ziga hos belgilarga ega bo'ladi. Darak, buyruq, so'roq va undov gaplar yig'iq va yoyiq, sodda yoki qo'shma gap shaklida bo'lishlari mumkin. Har bir gap turi o'ziga hos grammatik belgilarga ega bo'lish bilan birga, har hil mazmunni ham ifodalaydi. turli mazmunning ifodalanishida, asosan, intonatsiya va ayrim so'z hamda qo'shimchalar xizmat qiladi.

Yuqoridagilardan sjunday xulosa chiqadi: gap shakliy-grammatik va intonatsion jihatdan ham, mazmun-mundarija hihatdan ham tugallikka ega bo'lgan sintaktik birlikdir. Ammo uning fikriy tugalligi nisbiydir. Gap nutq ichida yashaydi. Nutqda uning mazmuni boshqa gaplar bilan munosabatda bo'lish orqali yana ham oydinlashadi.

1.2. Gap va uning mazmuniy tuzilishi

Gapning semantik qurilishini semantik sintaksis o'rganadi. Traditsion sintaktik nazariyalarda, asosan, gapning shakliy tomoniga e'tibor qaratildi. Faqat ayrim masalalarni hal etish jarayonidagina (gapning kommunikativ maqsadiga ko'ra turlarini belgilashda; ikkinchi darajali bo'laklarning ichki klassifikatsiyasida, masalan: holning o'rin, payt, sabab, maqsad va boshqa turlarga bo'linishida, aniqlovchilarning sifatlovchi, qaratqich, izohlovchilarga ajratilishida va boshqalar) semantikasiga murojaat qilindi. Gapning ma'no xususiyati va tarkibi ham, gapning semantik turlari, gapning shakliy va semantik strukturalarining o'zaro munosabati ham yaqin yillargacha maxsus o'rganish ob'yekti bo'lmay keldi.

Gapning shakliy va mazmuniy tuzilishini birgalikda olib tadqiq etish o'tgan asrning 60-yillariga kelib kuchaydi. Proffessor A. Nurmonov gapning mazmuniy tuzilishiga N.D.Arutyunova, N. Shvedova, O.I. Moskolskaya, V. Gak, Ye. Paducheva kabi oliimlarning tadqiqotlarida alohida e'tibor qaratilganini, bu borada asosli qarashlar bayon qilinganini ta'kidlab o'tadi. Shuningdek, A. Nurmonov gap semantikasiga qiziqishning uyg'onishiga lingvistik nazariya rivojiga ta'sir etgan bir qator omillar: tilshunoslikning gap mazmuni-propozitsiyaga alohida diqqat qiluvchi logika bilan munosabatining yangi pog'onaga ko'tarilishi, til va nutqning ma'no tomoniga ummiy burilishi, nutq faoliyatining pragmatik komponentiga e'tiborning kuchayishi, gapga o'zining maxsus ma'nosi bo'lgan til belgisi sifatida qarashning vujudga kelishi hamda gaplarning semantik

ekvivalentligi tushunchasiga tayanadigan sintaktik transformatsiya nazariyasining vujudga kelishi singari omillar turtki bo'lganligini qayd etib o'tadi.¹

O'zbek tilshunosligida ham sintaktik semantika sohasida qator ishlar amalga oshirildi. Gapni sintaksisning asosiy birligi sifatida e'tirof etib, uning mazmuniy jihatlarini yoritib bergan professorlar A. Nurmonov, N. Mahmudov, S. Solixov, R. Sayfullayevlarning tadqiqotlarini alohida ta'kidlab o'tish joiz.

Amalga oshirilgan qator tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda sintaktik semantika deyarli hamma tilshunoslar tomonidan e'tirof etildi. Shunga qaramay, bu masalada tilshunos olimlar qarashlarida farq mavjud ekanligi ko'zga tashlanadi.

“O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi” qo'llanmasida ta'kidlanishicha, N.Yu.Shvedova sintaktik semantikaning asosiy vazifasi deb formal-sintaktik modellarning xususiy ma'nolarini aniqlashni ko'rsatadi. Shuningdek, gap struktur sxemasining umumlashtirilgan ma'nosi va ular o'rtasidagi munosabat gap sintaktik qurilishining asosi bo'lib xizmat qilishi muhimligini qayd etadi. Gapning semantik tuzilishi haqida N.Yu.Shvedovanning qarashlari o'ziga xosdir. Uning konsepsiyasiga ko'ra, gapning semantik tuzilishi deganda tipiklashtirilgan ma'no elementlarining abstraktlashtirilgan hamda til sistemasida aks etgan informativ mazmuni tushuniladi. Olima gap mazmunini tashqi omillarsiz, sof til materiallariga tayangan holda o'rganishni maqsad qilib oladi. Shu ma'noda tilning har qanday sath birliklari, jumladan, gapning qurilish modellari ham undagi kategorial va konkret ma'nolar munosabatlaridan hosil bo'lgan semantik o'ziga xoslikka ega bo'ladi.³

Gapning semantik tuzilishi haqida tilshunoslikda yana bir yo'nalish mavjud bo'lib, unga ko'ra gapning kommunikativ minimumi komponentlarining leksik ma'nolariga asoslanish birinchi planga ko'tariladi. Bunday qarashni O.I.Moskalskaya ishlarida ko'rish mumkin. Uning ishlarida gapning semantik tuzilishi struktur tuzilishdan ajratilgan holda o'rganildi.

Sintaktik semantika bo'yicha Ye.V.Paduchevaning ham izlanishlari o'ziga xosdir. Uning fikricha, gap ma'nosi leksema ma'nolaridan, so'z shakllarining grammatik ma'nolaridan va sintaktik qurilmalarning ma'nolaridan tashkil topadi. Shuning uchun ham sintaktik semantika tavsifi leksik va morfologik semantikasi bir butun gap semantikasini tavsiflashga komponent bo'lishi kerak.¹

Gapning denotativ konsepsiyasi V.G.Gak asarlarida izchillik bilan rivojlantiriladi. U gapni to'liq til belgisi hisoblab, gap referenti situatsiyadir, ya'ni “gapirish” momentida ob'yektiv borliqdagi so'zlovchi ongida mavjud bo'lgan va gapning o'zini shakllantirish jarayonida til birliklarini tanlashga ma'lum darajada sharoit yaratuvchi elementlar yig'indisidir, deydi.

¹ Нурмонов А. Гол ҳақидаги синтактик назариялар. Т.: Fan, 1988. 58-бет

³ Нурмонов А., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. Т.: Fan, 1992. 27-бет..

¹ .Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. Ko'rsatilgan kitob. 29-бет.

Situatsiya va uni ifodalovchi gap o'rtasidagi munosabat V.G.Gak tomonidan ikki aspektida – onomasiologik va sintaktik aspektida o'rganiladi. Keyingi holatda gap bo'laklarining sintaktik funksiyalari bilan real voqelikdagi ular ifodalagan predmetlarning rollari o'rtasidagi munosabat tahlil qilinadi.

Bu yo'nalish gap ma'nosini ob'yektiv borliq bilan bog'laganligi uchun situatsiyani aniqlashga va analiz qilishga alohida ahamiyat beradi.

Gapning denotativ (nominativ) aspektini ifodalash uchun ko'p hollarda "propozitsiya" terminidan foydalaniladi. Bu termin tilshunoslikka mantiqdan – falsafiy tadqiqotlar ta'sirida kirib keldi. Propozitsiyaga qiziqishning o'sishi bilan uning talqinida ham xilma-xillik orta bordi.

Simvolik mantiq klassik mantiqdan farqli ravishda, o'zining tushunchalarini inson ongida aks etishini chetlab o'tgan holda bevosita ob'yektiv reallik kategoriyalari bilan munosabatini belgilashga intiladi. Propozitsiya tushunchasining bu umumiy tendensiyasi natijasida keyinchalik u tafakkurdan ob'yektiv reallikka, sub'yektiv omildan ob'yektiv omilga «berildi». Natijada u tafakkur shakliga emas, balki uning mazmuniga, u orqali ifodalanadigan ob'yektiv reallikka nisbatan qo'llanila boshladi. Sub'yektiv modallik kategoriyasida ozod bo'lib, situatsiyani ifodalashga o'tdi. Propozitsiya xuddi shu ma'nosi bilan tilshunoslikka kirib keldi.

Propozitsiya tushunchasi haqida B.Rassel, Ch. Fillmor asarlarida bir qator fikrlar bayon qilindi. B. Rassel fikrigacha, propozitsiya ob'yektiv borliq bilan tuzilishigako'ra o'xshash bo'lgan aktual faktdir. Propozitsiya haqida Ch.Fillmor shunday deydi: "Gapning asosiy tuzilishida"propozitsiya" deb nomlash mumkin bo'lgan strukturani, ya'ni gapning modal aspektidan ajralgan fe'l bilan ot o'rtasida zamondan tashqaridagi munosabatlar majmuasini kuzatamiz. Gapning modal aspekti uning butun xarakteristikasini belgilaydigan inkor, zamon, mayl va tus kabi xususiyatlarini o'z ichiga oladi.¹

Propozitsiya terminini bugungi kunda ko'pchilik tilshunoslar gapning mazmuniy asosi deb e'tirof etadilar. Propozitsiyani gapning mazmuniy tuzilishida o'z ifodasini topgan ob'yektiv reallik, ob'yektiv mazmun sifatida talqin etadilar.

Propozitsiya faqat gaplar orqali ifodalanishi shart emas. U so'z birikmasi va so'zlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Masalan: Dars boshlandi / darsning boshlanishi. Demak, ma'lum bir sintaktik tuzilma gap bo'lishi uchun ma'lum propozitsiyani ifodalashdan tashqari, yana boshqa belgilarga – kommunikativ avtonomlik va modallik belgilariga ega bo'lishi kerak. Shuning uchun ham har qanday gap ot propozitsiyasida transpozitsiya qilinganda, uning kommunikativ bo'linishi (tema-rematik bo'linish) va modal xususiyati yo'qoladi, ammo nominativ mazmuni eskicha saqlanib qoladi. Masalan:

O'quvchilar darsga tayyorlanishdi – o'quvchilarning darsga tayyorlanishi.

¹ Общее языкознание. Внутренняя структура языка. М.: Nauka, 1972. с.298.

Ko'p yurish foydali – ko'p yurishning foydaliligi.

Gapning mazmuniy tuzilishida propozitiv mazmun alohida o'rin egallaydi. Undan tashqari, har qanday gapda so'zlovchining kommunikativ niyati va modallikning biron turi: yo ob'yektiv modallik, yo sub'yektiv modallik ham qatnashadi. Professor N. Mahmudovning ta'kidlashicha, propozitsiyadan real gap mazmuniga o'tish uchun propozitiv ramkadan tashqari, yana ikki ramkani – modallik va kommunikativ ramkani qilish zarur bo'ladi. Modallik va kommunikativlik har qanday gap semantik tuzilishning zaruriy komponenti hisoblanadi.¹

Shunday qilib, har qanday semantik qurilishi murakkab, ko'p qirrali xarakterga ega bo'lib, unda eng kamida uch komponent: propozitiv, modal, kommunikativ komponentlar ishtirok etadi. Gapning semantik qurilishini tashkil etgan yuqoridagi komponentlardan eng asosiysi ob'ektiv borliqdagi ayrim situatsiya yoki voqealarni aks ettiruvchi propozitiv strukturadir.

Demak, har qanday gap mazmunida uch aspekt ishtirok etadi: propozitiv, modal, kommunikativ (tema-rematik) aspektlar. Bulardan til birligi sifatidagi gap semantikasida faqat propozitsiya va ob'ektiv modallik mavjud bo'lsa, nutq birligi sifatida gap semantikasida ulardan tashqari, albatta, kommunikativ aspekt va ba'zan sub'yektiv modallik ham ishtirok etadi.

Ayrim tilshunolar esa gap mazmunida ekstralingvistik faktorlarni rad etmagan holda, til ifodasining ob'ektiv borliq, situatsiya bilan bevosita emas, balki inson ongida mavjud bo'lgan "ob'ektiv borliq obrazlari" orqali bog'lanishiga asoslanib, "situatsiya" termini psixik makon va psixik zamonda joylashgan psixik situatsiyaga nisbatan qo'llaydilar. Hozirgi sintaktik semantikasida denotativ aspekt ko'proq o'rin olmoqda. Bunga ko'ra situatsiya elementlari hisobga olinadi. Ammo tilshunolar ham shu situatsiya elementlari masalasi ham bir xil emas.

Semantik strukturaning original konsepsiyasi I.P.Susov tomonidan ilgari surildi. Uning qarashicha, real haqidagi bir necha situatsiyalardan tashkil topadi. Inson ongi konkret situatsiyalarni aks ettiradi, umumlashtiradi. Inson ongida abstrakt situatsiyaga ichki til shakllari mos qo'yiladi. Uni hosil qilish uch bosqichda bo'ladi: abstrakt situatsiyaga izomorf bo'lgan strukturani hosil qiluvchi relyatsion bosqich; relyatsion strukturaga sub'ekt – predikat munosabatni qo'shadigan predikatsion bosqich; predikatsion strukturaga temporollik, modallik va boshqalarni yuklaydigan modifikatsion bosqich.

Ko'rinib turibdiki, semantik tuzilish haqida hozirgi kunda tilshunolar o'rtasida bir xillik yo'q. Bu esa gapning semantik qurilishining nihoyatda murakkabligi natijasidir.

Har bir gap anglatadigan fikrni, shu gapdan kuzatilgan maqsadni so'zlovchi va tinglovchi bir xil tushunadi. So'zlovchining so'zda tutgan maqsadiga, emotsionalikka qarab gapning tuzilishi ham shunga mos shaklda bo'ladi. Masalan, so'rashni bildiradigan gaplarning tarkibida kim, qaysi kabi olmoshlar ishtirok etadi: Kim keldi? Bu – so'roq gapning shunga moslangan tipik

¹ Махмудов Н. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик- синтактик асимметрия. Т.: Fan, 1984. 10-бет

shakllaridan biri. Demak, gap qurilishining soʻzlovchi tomonidan koʻzda tutilgan maqsadga (darak, soʻroq, buyruq mazmunlariga), emotsionallikka mos keladigan tipik shakllari bor. Lekin, birinchidan, bir turning tipik shakli nutqda boshqa tur uchun qoʻllanishi ham mumkin (masalan, soʻroq gapning muayyan oʻrinlarda darak yoki buyruq mazmunini berish uchun qoʻllanishi), ikkinchidan, gap nutq ichida, situatsiyaga qarab turlicha tushunilishi mumkin. Masalan, Kim gapirdi? gapi ishlatilish oʻrniga, intonatsiyaga qarab, “Gapirgan odam kim?” mazmuniga ham, “Hech kim gapirgani yoʻq-ku” mazmunida ham qoʻllana oladi.

Keyingi vaqtlarda koʻp tekshiruvchilar predikativlikni gapning asosiy belgisi deb bilmoqdalar. Biroq predikativlik kategoriyasining mohiyati toʻgʻrisida har kimning fikri har xildir.

Baʼzi olimlar predikativlikni ega bilan kesim aloqasi sifatida talqin etadilar. Predikativlikni bunday tushunish juda tordir. Bunda predikativlik bilan predikativ munosabat farq qilinmaydi.

Predikativlik, umuman har qanday gapga butunicha xos boʻlgan kategoriyadir. U ikki sostavli gaplar uchun qanchalik zarur boʻlsa, bir sostavli gaplar uchun ham shunchalik zarurdir.

M.Mirzaev, S.Usmonov, I.Rasulovning “Oʻzbek tili” darsligida predikativlik quyidagicha izohlangan: “Gapda soʻzlovchining aytilayotgan fikrga boʻlgan munosabati ifodalanadi. Bu predikativlikdir”.¹

A.Gʻ.Gʻulomov, M.A.Asqarovaning “Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis” qoʻllanmasida esa bunday deyiladi: “Har bir gapning real borliq haqida biror xabar bayon qilishi, shuni ifodalashi, gap mundarijasining real voqelik bilan bogʻliq ekanligini, aloqadorligini koʻrsatadi. Bu hodisa-gap, nutq mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi - predikatsiya sanaladi”.²

Oldingi kitobning mualliflaridan biri professor I.Rasulov keyingi bir ishda predikativlikni “gapda ifoda qilinayotgan fikrning borliqqa boʻlgan munosabati” tarzida taʼriflaydi.³

Biz predikativlikni gap mundarijasining real voqelik bilan umumiy bogʻliqligi, aloqadorligini koʻrsatuvchi kategoriyasi deb tushunamiz.

Predikativlikni ifoda etuvchi vositalar, uning tarkibiy elementlari haqida ham turlicha qarashlar bor. Akademik V.V.Vinogradov predikativlik kategoriyasining ifoda vositalariga modallik, zamon va shaxs kategoriyalarini kiritsa, professor N.Yu.Shvedova faqat modallik va zamon kategoriyalarini kiritadi.

Modallikni ifodalashda ham har xillik koʻzga tashalanadi. Ayrim ishlarda gapdagi har turli maʼno munosabatlari, hatto emotsional-ekspressiv munosabatlar ham modallik sistemasi sifatida baholanadi.

Modallik deganda baʼzilar gapdagi mundarijaning voqelikka munosabatini tushunsalar, boshqalar soʻzlovchining gap mundarijasiga munosabatini tushunadilar. Shuning uchun boʻlsa

¹ Мирзаев М., Усмонов С, Расулов И. Ўзбек тили. Т.: Оʻqituvchi, 1966. 176-бет

² Гуломов А., Асқарова М., Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. Т.: Оʻqituvchi, 1987. 41-бет

³ Расулов И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида бир составли гаплар. Т.: Fan, 1974. 56-бет

kerak Shvedova modallikni ikki turga ajratadi: ob'ektiv modallik va sub'ektiv modallik. Modallikni bunday ikki turga ajralishi masalaga bir muncha aniqlik kiritgan.

Ob'yektiv modallik har qanday gapda bo'ladi: u gapning zaruriy sharti sub'ektiv modallikning esa har qanday gapda bo'lishi shart emas: u gapda bo'lishi ham mumkin, bo'lmasligi ham mumkin. Binobarin, ob'yektiv modallik gapning doimiy konstruktiv belgisi hisoblansa, sub'ektiv modallik o'tkinchi, fakultativ belgisi hisoblanadi.

Shunga ko'ra, predikativlikni xarakterlashga ob'yektiv modallik nazarda tutiladi.

Demak, predikativlikni tavsiflaydigan modallik so'zlovchi nuqtai nazaridan gap mundarijasining voqelikka munosabatidan iboratdir.

Predikativlik kategoriyasining ikkinchi elementi sintaktik zamon kategoriyasidir. Sintaktik zamon kategoriyasi gap mundarijasining nutq momentiga munosabatini ko'rsatadi.

Bu kategoriya bosh bo'lak vazifasidagi fe'ling zamon formalari, to'liqsiz fe'l, bog'lama, sintaktik-intonatsion struktura orqali ifodalanadi. Masalan, Biz o'qidik misolida kesim vazifasidagi fe'l butun gapga o'tgan zamon ma'nosini beradi. Bahor tipidagi nominativ gapda esa sintaktik-intonatsion struktura hozirgi zamon ma'nosini ifodalaydi.

Predikativlik kategoriyasining uchinchi elementi sintaktik shaxs kategoriyasidir. Sintaktik shaxs kategoriyasi gap mundarijasining so'zlovchi, tinglovchi va o'zgacha munosabatini ifodalaydi. Bu kategoriya kesim vazifasidagi fe'ling shaxs formalari (Keldingiz, Boryapsan kabi), ega vazifasida kesimlik olmoshlari (men paxtakor. Sen o'qituvchi kabi) yoki sintaktik struktura (Toshkent-O'zbekistonning poytaxti – III shaxsning sintaktik formasi) orqali ifodalanadi.

Anglashiladiki, predikativlik kategoriyasi gap mundarijasining reallik va norealikka asoslangan modal bahosidan, fikrning nutq momentiga va shaxsga munosabatidan tashkil topadi.

Gap o'z formasiga ega bo'lishi bilan birga, o'z funksiyasiga ham egadir. Ma'lumki, kishilar o'z faoliyatining barcha sohalarida bir-birlari bilan faol munosabatda bo'ladilar. Ular doimo o'zlarini o'rab olgan ob'ektiv borliqdagi narsa-predmetlar va voqea-hodisalar to'g'risida fikr yuritadilar va bu fikrlarni bir-birlariga ma'lum qiladilar. Bularning hammasi gap orqali amalga oshiriladi. Demak, gap fikrni shakllantirish, ifodalash va bayon qilish vositasidir. Gap fikrni ifodalash, bayon qilish vositasi ekani to'g'risda gapirganimizda so'zlovchi nazarda tutilgan bo'ladi. Tinglovchiga nisbatan esa gap bayon qilingan fikrni anglash, tushunish vositasidir.

Gap bilan fikr o'zaro dialektik aloqadir. Gapda fikr ifodalanadi. Fikr doimo gap orqali shakllanadi. Demak, gapni o'rganar ekanmiz, uni fikr bilan bog'lab tekshirishimiz kerak.

Gap ma'lum fikrni ifodalash bilan birga, har xil his-tuyg'ularni ham ifodalaydi. Biroq bu emotsiyalar fikr bilan bog'liq holda ro'y beradi. Demak, gap intellektual (aqliy) holatni ham ko'rsatadi.

Gapning xarakterli belgilari predikativlik va intonatsiya ekanligi bizga ma'lum. Bu belgilar gap tushunchasining asosi, gapning shakllantirish vositasidir.

Har bir gapning reallik bilan bog'liqligi haqida biror fikr, xabar bayon qilish gap mundarijasining voqelik bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu hodisa-gap mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikatsiya sanaladi.

Gapni predikatsiya shakllantiradi. Bu grammatik kategoriya-umuman gapga xos xususiyat. Predikativlikni kesim ko'rsatadi. (Bordi. Student edim): kesim umumiy predikativlik ma'nosini konkret modallik, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ifodalaydi. Predikativlikni shakllantirishda intonatsiyaning ham ishtiroki bor: intonatsiya gapga xos bo'lgan universal vositadir. Anglashiladiki, predikativlikni ifodalash gapning paradigmasi-predikativlikni bildiruvchi butun formalari sistemasi bilan bog'liq.

Gap fikrni ifodalaydi, ma'lum maqsadni bayon qiladi. Bu hodisa, birinchidan, shu gapdagi fikrning borliqqa munosabati, ikkinchidan, so'zlovchining sub'ektiv munosabati – modallik (reallik, gumon, taxmin, istak kabilar) bilan, zamon va shaxs bilan bog'lanadi.

Gapni shakllantiruvchi, gapning asosi bo'lgan predikativlik hodisasi, odatda, so'zlarning predikativ qo'shilishi bilan ifodalanadi. (Ega va kesimning o'zaro munosabati: Bola yugurdi. Bola yosh kabi) Lekin predikativlik tabiiy, bir so'zdan iborat bo'lgan gaplarda ham mavjud. (Qor! Tun. kabi) Bir so'zdan iborat gaplardan konkret gap bo'lagini topib bo'lmaydi. Demak, predikativlik bunday gapga butunicha xos bo'ladi. Bularning hammasida, shubhasiz, intonatsion tugallik bor. Bundan gapda predikativlik bilan intonatsion tugallikning birgalikda harakat qilishi, bir-biriga moslashgan bo'lishi anglashilib turadi. Intonatsiya predikatsiyani ifodalash vositalaridan biridir, bu hol ham gapning eng asosiy belgisi predikativlik ekanligini ko'rsatadi.

So'zlarning predikativ qo'shilishi orqali gap hosil bo'lishi (Suv tiniq kabi) bu konstruksiya hamma vaqt tugal fikrni ifodalaydi, degan xulosaga olib kelmaydi. Ba'zan bunday tugallik uchun boshqa elementlar ham talab qilinadi, lekin shunda ham, baribir, gapning konstruktiv asosi predikativ qo'shilmadir. Bu qo'shilma gapda hech qanday elementga tobe bo'lmaydi, balki boshqa elementlarni o'ziga tobelaydi, demak, u absolyut hokimlikka egadir. Bu qo'shilma – predikat birlik-gapning hamma belgilarini: nutqning fikr anglatadigan, xabar bildiradigan eng kichik, yaxlit birligi ekanligini, boshqa predikativ birliklar, shuningdek, sodda gap va qo'shma gap sostavidagi sodda gapga o'xshash qismlar boshqacha xususiyatlarga ega bo'ladi. Misollarni chog'ishtiring: Sohibjon-mashhur paxtakorning o'g'li. Otasi pensiyaga chiqqan. – Otasi pensiyaga chiqqan Sohibjon sodiq farzand ekanligini ko'rsatish uchun ishga astoydil kirishdi. (Ikkinchi misoldagi otasi pensiyaga chiqqan qo'shilmasi Sohibjon bo'lagiga tobe-uning aniqlovchisidir)

Predikativlik hodisasi orqali gap so'z birikmasidan, predikativ qo'shilma predikativ bo'lmagan qo'shilmadan aniq farqlanib turadi: yosh bola (voqelikka munosabat: reallik, real emaslik, istak

kabi ma'nolar, ma'lum maqsad, zamon munosabati ko'rsatilmagan; intonatsion tugallik yo'q-bunda fikr ifodalanmaydi) – Bola yosh (predikatsiya ifodalangan: voqelikka munosabat ko'rsatilgan – tugallik, zamon munosabati, gapga xos intonatsiya). Yosh bola va bola yosh qo'shilmalarining analizi shuni ko'rsatadiki, bularning har ikkalasida ham predmet va belgi tasavvurlarining munosabati ifodalangan, lekin ikkinchisida predmetning belgisi predikativlik yo'li bilan ko'rsatilgan, paytga munosabat ifodalangan.

Predikatsiyaning asosiy belgilaridan biri tasdiq – inkordir. Bu tasdiq – inkor tilda turlicha ifodalanadi. Umuman, predikatsiya turli vositalar bilan: predikativ formadagi fe'llar, kesimlilik affiksleri orqali (Boring. Studentsan. To'g'ri, student edi kabi), so'zlar tartibi, intonatsiya, gapning har xil strukturasi bilan ifodalanadi (Bahor! Bu – uchuvchi. Paxta oppoq kabi).

Gap predikativlik shakliga ega bo'lgan eng kichik birlikdir. Predikat gapning tuzilish va mazmuniy markazi sanaladi.

Tilshunolar predikat tushunchasi haqida munozarali fikrlarning ilgari surmoqdalar. Shuningdek, uning gap mazmuniy tuzilishi va markazidagi tutgan o'rni haqidagi mulohazalar ham turli xil. Ayrim tilshunolar predikatga mantiqiy tushuncha sifatida qarasalar, ba'zilar grammatik tushuncha sifatida qaraydilar. Keyingi yillarda tilshunoslikda semantikaning yuqori pog'onaga ko'tarilishi natijasida tilshunolar predikatga mazmun nuqtai nazaridan qaray boshladilar.

Predikat ham semantik, ham mantiqiy, ham grammatik tushunchadir. Semantik tushuncha sifatida predikat har qanday sintaktik qurilmaning nominativ asosi, uning yadrosi. Grammatik tushuncha sifatida predikat o'zi boshqarib kelayotgan sintaktik elementlarning markazi. Logik tushuncha sifatida fikrning sub'ekt belgisini bildiruvchi qism.¹

Mantiqshunoslikda sub'yekt va predikat tushunchasi keng qo'llaniladi. Mantiqshunoslikda mantiqiy ega sub'ekt, mantiqiy kesim – predikat deb yuritiladi. Sub'yekt va predikat tushunchasi mantiqshunoslikda hukm bilan chambarchas bog'liq. Sub'yekt oldingi hukmlardan aniq bo'lgan belgilarni, predikat esa yangi belgilarni ifodalaydi. Har bir hukm uchun ega va kesimning zarur bo'lishi ularning alohida-alohida bo'lgan ahamiyatini inkor etmaydi.²

Demak, mantiqiy sub'ekt tushunchasi hukmning boshlang'ich nuqtasi bo'lsa, predikat tushunchasi yangi ma'lumot beruvchi markazdir.

Mantiqshunoslikdan farqli ravishda tilshunoslikda predikat grammatik va semantik tushunchadir. Sub'yekt predikat munosabatida predikat yetakchi o'rinni egallaydi. Predikat predikativlik shaklini olib, gapni grammatik jihatdan shakllantiradi. Predikat gapda predmetning belgisini bildiruvchisi, muayyan vaziyat haqidagi belgisini bildiruvchisi, muayyan vaziyat haqidagi tasdiq yoki inkor kommunikatsiyasini beruvchi markaz vazifasini bajaradi.

¹ Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар. Т.: Fan, 1984. 64-6.

² Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Логика. Т.: Fan, 1984. 132-бет.

Bu fikrdan shu narsa oydinlashadiki, predikativlik shaklini olgan predikat sintaktik sathda kesim vazifasini bajaradi. Predikat vazifasida fe'l hamda ot (keng ma'noda) kelishi mumkin.

Fe'l o'zining leksik-grammatik xususiyatiga ko'ra kesim vazifasida qo'llanishga juda mos so'z turkumidir.³ Chunki fe'l o'zida zamon, modallik, shaxs va kommunikativlik kategoriyalarini birlashtira oladi. Shuning uchun ham tilshunoslar fe'lga predikat nuqtai nazaridan qaraydilar. Masalan, Salima maktabga bordi gapida fe'l predikat kesim vazifasida qo'llanib, sub'ektning harakat belgisini ifodalamoqda. Bundan tashqari, kesim o'tgan zamonni. 3 shaxsni, tasdiq va xabarni ham anglatmoqda.

Fe'l predikat va ot predikatning o'zaklari boshqa boshqa bo'lsa ham, umumiy holatda bir maqsadga xizmat qiladi. Ularning orasidagi farq unchalik katta bo'lmaydi. Ot predikat jarayonni yoki aniq vaziyatni ifodalasa, fe'l predikat aniq harakatni ifodalaydi.

Demak, ot predikat ham fe'l predikat singari bo'sh o'rinlarini to'ldirib yoyiq gap hosil qila oladi. Ot predikatlar xuddi fe'l predikat kabi gapning mazmuniy hamda grammatik markazini tashkil qila oladi.

Gapning kommunikativ kategoriyasi gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini ham o'z ichiga oladi. Gapning kommunikativ maqsadiga ko'ra nutqiy aloqa turiga asoslanadi. So'zlovchi o'zining maqsadiga muvofiq keladigan gap shakllarini tanlaydi. Shunga ko'ra, gaplar quyidagi turlarga bo'linadi: 1) darak gaplar, 2) so'roq gaplar, 3) buyruq gaplar, 4) istak gaplar. Har qanday gapning uyushtiruvchi markazi kesim bo'lganligidan gapning ifoda maqsaliga ko'ra modellar ham kesim asosida ajratiladi.

Modallik gapning asosiy belgisi, gap mazmunining eng muhim qismidir. Modallik ostida gapning sub'yekt bilan bog'lik bo'lgan turli ma'nolari tushuniladi. Shunga ko'ra, bu ma'nolarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) ob'yektiv va 2) sub'yektiv modallik.

Ob'yektiv modallik bilish akti yo'naltirilgan ma'lum bir vaziyatdagi mavjud ob'yektiv aloqalar xarakterini aks ettiradi (mumkinlik, haqiqiylik, zaruriylik). Sub'yektiv modallik gapda ifodalangan ob'yektiv mazmunga so'zlovchining munosabaptini ifodalaydi va modusga kiradi. Sub'yektiv modallik kirish so'z vazifasida kelgan maxsus modal so'z yoki modal vazifasidagi boshqa so'zlar yordamida ifodalanadi. Sub'yektiv modallik orqali, o'z navbatida, so'zlovchining o'z fikriga turli munosabatlari namoyon bo'ladi: ishonch, tasdiq, gumon, achinish va boshqalar. Ob'yektiv modallik gapni shakllantiruvchi zaruriy belgilardan biri hisoblansa, sub'yektiv modallik ob'yektiv modallik ustiga qo'yiluvchi qo'shimcha modallikdir.

Shunday qilib, tilshunoslikka oid adabiyotlarda ta'kidlanishicha, gapning semantik tuzilishi murakkab bo'lib, gapning mazmuniy tuzilishi bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan propozitiv, modal, kommunikativ aspektlardan iborat.

³ Ўзбек тили грамматикаси. Т. 1976, 2 том. 129-бет.

II bob

Qo'shma gaplarning grammatik xususiyatlari

2.1. Sintaktik birliklarda shakl va mazmun

So'nggi paytlarda tilga tizim sifatida yondashish, tilni tizim qonuniyatlari asosida o'rganish, til va nutq hodisalarini farqlash kabilar hozirgi zamon tilshunosligida katta burilish yasadi va tilshunoslik fanining rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi.

Har qanday nutqiy faoliyat markazida shaxs turar ekan, u sezgi o'rganlari orqali borliqdagi olam unsurlarini umumlashtirgan holda ongda aks ettiradi va til belgilari orqali tinglovchiga uzatadi. Nutqiy faoliyatda gapirish va tushunish, nutq hosil qilish va uni idrok etish jarayonlari almashinib turadi. Shu sababli lingvistik birliklar semantikasida ikki yo'nalish o'rganiladi. Birinchi yo'nalish onomosiologik yo'nalish bo'lib, unda mazmundan shaklga, ya'ni gap hosil qilish jarayoniga e'tibor beriladi. Ikkinchi yo'nalish semasiologik yo'nalish bo'lib, unda shakldan mazmunga, ya'ni gapning ob'yektiv mazmun tomoniga e'tibor qaratiladi.

Har qanday lisoniy birlik shakl va ma'no birligidan iborat. Yuqori sath birligi bo'lgan sintaktik birliklar ham bundan mustasno emas. Shunday ekan, barcha lisoniy biliklarni bu ikki tomonning o'zaro qanday munosabatda ekanini o'rganish, ular o'rtasidagi muvofiq va nomuvofiq jihatlarni yoritish katta ahamiyatga ega.

Har bir sath birligi kabi sintaktik sath birligi bo'lgan gap ham ikki tomonlama mohiyat sifatida uchki (mazmuniy) va tashqi (shakliy) tuzilishga ega.

An'anaviy tilshunoslikda, asosan, gapning shakliy tomoniga e'tibor berib kelindi. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari, gap bo'laklariga asosiy e'tibor qaratildi. Aslida gapning shakliy tomoni qanday tuzilishga ega bo'lsa, mazmuniy tomoni ham ana shunday tuzilishga egadir. Gapning mazmun tomoni ham muayyan mazmuniy uzvlardan tashkil topgan kichik sistema sanaladi. Uning uzvlari ob'yektiv olam bilan bog'lanadi va ob'yektiv olam unsurlarini lisoniy birliklar orqali tilda ifodalaydi. Demak, gapning mazmuniy birliklari shakliy tomonni ob'yektiv olam bilan bog'lab turuvchi vosita sanaladi.

Har qanday gap shakl va mazmun birligidan iborat butinlik bo'lishiga qaramay, yaqin yillargacha sintaktik tadqiqotlarda, asosan, gapning shakliy tomoniga e'tibor berilgan. Faqat ayrim o'rinlarda (masalan, gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini belgilashda, ikkinchi darajali bo'laklarning ichki tasnifida) mazmun tomonga murojat qilingan.

Shakl va mazmun hamda ularning o'zaro aloqadorligi masalasi sintaksisning markaziy muammosi bo'lib, ularni tadqiq etishda buhar ikki kategoriya dialektal birlikda olib qaralishilozim. Shakliy va mazmuniy tahlil bir-biri bilan dialektal ravishda bog'langan. Sintaktik nazariya ana shu ikki tomonni, ya'ni ham shakliy, ham mazmuniy tomonni to'liq nazarda tutgandagina, u haqiqiy nazariya bo'la oladi. Chunki gapning shakliy va mazmuniy qurilishlari o'rtasidagi aloqa

benihol murakkab va ziddiyatli bo'lib, juda ko'p hollarda bu qurilishlar bir-biri bilan aynan bir xil, teng muvofiqlik bo'ladi.

Har qanday til birligi kabi gap ham, xususan, qo'shma gap ham ikki tomonlama birlikdir, ya'ni ifoda tomoni va mazmun tomoniga ega. Uzoq vaqtlar mobaynida qo'shma gapning asosan ifoda va qisman mazmun tomonlari o'rganildi. Keyingi yillarda tilshunoslikda gapning mazmun tomoniga, «semantika» deb yuritiladigan jihatga e'tibor kuchaydi, mazmuniy (semantik) sintaksis, degan yo'nalish yuzaga keldi. A.Berdialievning tadqiqotlari ana shu yo'nalishdagi o'zbek tilshunosligidagi dastlabki ishlardandir. Uning doktorlik dissertatsiyasida ergash gapli qo'shma gaplardagi paradigmatic va sintagmatic xususiyatlar chuqur tadqiq etilgan. Ergashgan qo'shma gaplarning mazmuniy-signifikativ xususiyatlari, ulardagi sintaktik omonimiya, polisemiya, ko'p funktsionallik kabi bir qator muhim masalalar ishonarli tarzda hal qilingan. Shubhasiz, bu ish o'zbek tilshunosligidagi qo'shma gap nazariyasiga qo'shilgan muhim hissadir. Lekin ishning kirish qismida alohida ta'kidlanganiday, tadqiqotdagi asosiy metod tarkibiy-mazmuniy (mazmuniy-tarkibiy emas) bo'lib, u «shakldan mazmunga» qabilidagi tahlilga asoslangan¹. Aytish kerakki, tahlil faqat «shakldan mazmunga» qabilidagi moya asosida olib borilganda, bevosita lisoniy shakllarda o'z ifodasini topmaydigan, tildagi turli vositalarning bir-biri bilan munosabati asosida yuzaga keladigan, bevosita reallashadigan ma'nolar tadqiqotchi e'tiboridan chetda qolishi mumkin. Shuning uchun bu moya bilan bir qatorda «mazmundan shaklga» moyasi ham muhimdir. Aslida shakl va mazmun dialektikasining mohiyatiga muvofiq ravishda mazmuniy tahlil har ikki moyaga asoslanmog'i lozim. Hamonki, mazmuniy tahlil gapning qanday anglanishi, qanday interpretatsiya qilinishi va uning tashqi olamdagi holatlar, jarayonlar, ob'ektlar bilan qanday aloqadorlikka ega ekanligini tushuntirishi kerak ekan, bunda gapning ham mazmuni, ham shakli to'la hisobga olinmog'i shart.

Aytish joizki, an'anaviy tilshunoslikda yaratilgan shakliy (formal) sintaksisga oid tadqiqotlarning ham ahamiyati benihoya kattadir. Qo'shma gap va uning tarkibiy xususiyatlariga bag'ishlangan ishlardagi ilmiy asoslangan g'oyalar bugungi tilshunoslikda qo'shma gap tabiati va uning mazmuniy-tarkibiy xususiyatlariga oid yangicha qarashlarning paydo bo'lishi uchun qonuniy ravishda mustahkam zamin hozirlaydi.

Qo'shma gaplarni o'rganishning dastlabki bosqichlarida o'zbek tilidagi, umuman turkiyshunoslikdagi qo'shma gap nazariyalari, asosan, rus tilshunosligida shakllangan qo'shma gap nazariyalari qolipida yaratilgan. Aytish mumkinki, nafaqat qo'shma gap, balki tildagi juda ko'plab boshqa hodisalar talqinida ham ana shu yo'l, ya'ni rus tilshunosligidan nusxa ko'chirish bir qadar

¹ Бердиалиев А. Семантико-сигнификативная парадигматика и синтагматические отношения в конструкциях сложножодчиненного предложения узбекского литературного языка. АДД. Ташкент, 1989; Бердиалиев А. Эргаш гапли кўшма гап контрукцияларда семантик-сигнификатив парадигматика. Тошкент, 1989.

an`anaga aylangan<sup>1</sup>. Jahon tilshunosligi tarixida bunday hol bir necha bor kuzatilgan, xususan, qadimgi lotin tilshunosligining yunon tilshunosligidan nusxa olish asosida shakllanganligi ma`lum. Tabiiyki, bunday yo`l til hodisalarining muayyan tilning o`zigagina xos bo`lgan xususiyatlarini to`g`ri va xolis tushunishga imkon bermaydi.

Gapning sintaktik qurilishi juda chuqur va har taraflama o`rganilgan, buning ustiga sintaktik qurilish konkret ko`rish mumkin bo`lgan sathdir. Shuning uchun gap qurilishini belgilash biror bir qiyinchilik tug`dirmaydi. Lekin mazmuniy sintaksisdagi ikkinchi muhim jihat — mazmuniy sath ham bor, biroq gapning mazmun jihatini belgilash unchalik ham oson emas.

Voqealar o`rtasidagi munosabat va uning sintaktik ifodalanishini belgilashda mazkur munosabatni shakllantiruvchi mantiqiy-mazmuniy mexanizm va bu mexanizمنىning sintaktik tuzilishga nisbatlanishiga alohida e`tibor bermoq lozim.

Predikat va voqea ishtirokchilari o`rtasidagi munosabat gapning mazmunini tashkil etadi. Voqea va uni ifodalovchi gap o`rtasidagi munosabat ikki yo`nalishda — ifoda tomondan ma`no tomonga va, aksincha, ma`no tomondan ifoda tomonga qarab o`rganiladi².

Shakl va mazmunning dialektik birligi hamda bu dialektik birlikning namoyon bo`lish tabiati masalasi har qanday fanning ham eng markaziy masalalaridandir. Zero, har qanday fanning, shu jumladan, tilshunoslikning ham bosh maqsadi hodisaning shakli va mazmuni o`rtasidagi munosabatni hamda bu munosabatning o`ziga xos qonuniyatlarini aniqlashdan iborat. Shuning uchun ham tilshunoslikda «shakliy va mazmuniy tahlilning bir-biri bilan dialektik ravishda bog`langanligi» ko`p ta`kidlanadi. Tilda, esa, xususan, uning sintaktik sathida gapning shakliy va mazmuniy tarkiblari o`rtasidagi aloqa behad murakkab va ko`pincha ziddiyatli bo`lib, ular birlari bilan to`liq muvofiq kelmaydi, ko`pincha mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimetriya) mavjud bo`ladi³. Gaplarning aksariyatida ana shunday nomuvofiqlik bor. Shakl va mazmunning bunday ziddiyatli tabiati tilning o`ziga xos xususiyatidir. Muhimi shuki, til birliklarining shakli va mazmuni o`rtasidagi dialektik ziddiyat ularning uzviy birligiga to`squinlik qilmaydigan emas, balki bu ziddiyat ana shunday birlik mavjud bo`lgandagina mumkin bo`ladi, bu tildagi qonuniy va ob`yektiv hodisadir⁴.

O`zbek tilida sodda gaplardagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik (asimetriya) muammosi o`rganilgan⁵. Ammo bu masala qo`shma gaplar doirasida alohida o`rganilgan emas.

¹ Махмудов Н.М. Қайта қуриш ва ўзбек морфологиясининг айрим масалалари. Ўзбек тили ва адабиёти. 1988. 3-сон, 16—20-бетлар.

² Бақоева Ҳ. Гапнинг мазмуний ва шаклий тузилиши.// Ўзбек тили ва адабиёти, 2002, 2-сон. — 28-бет.

³ Кацнельсон С. Д. Типология языка и речевое мышление. Л.: Наука, 1972, С 7, 15.

⁴ Колшанский Г. В. Проблема противоречий в структуре языке. — В кн.: Энгельс и языкознание. М.: Наука, 1972, С. 40—56;

⁵ Махмудов Н. М. Семантико-синтаксическая асимметрия в простом предложении узбекского языка. Докт. диссертация. Ташкент, 1984; Ўша муаллиф. Ўзбек тилидаги содда гапларда семантик-синтактик асимметрия. Тошкент, Ўқитувчи, 1984.

Aytish lozimki, sodda gaplar doirasidagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik, asosan, tildagi tejash tendensiyasining namoyon bo'lishi sifatida yuzaga kelsa, qo'shma gaplardagi bunday nomuvofiqlikning zamini tildagi ortiqchalik tendentsiyasiga borib taqaladi.

Bu tendensiya nutqiy aloqadagi muayyan zaruriyat bilan bog'liq bo'lib, zaruriyat sifatida so'zlovchining turli sub'yektiv maqsadi, voqeaning baholashi kabilarni ko'rsatish mumkin. So'zlovchi ayni maqsadi, bahosi va shu kabilarni alohida ta'kidlab ifodalash uchun predikativ tizimlarni tanlaydi, lekin bu tizimlar denotativ voqeani emas, mazkur maqsadga ko'ra modusni ifodalaydi. Buning natijasida nazariy jihatdan ikki denotativ voqea ifodachisi bo'lgan ikki (yoki undan ortiq) predikativ birlikdan iborat ergash gapli qo'shma gap faqat bir denotativ voqeani ifodalaydigan bo'lib qoladi, ya'ni faqat bir mazmuniy «yadro»ni o'z ichiga oladi. Bu, tayinki, mazmun va shakl jihatidan nomutanosiblikni keltirib chiqaradi.

T.A.Kolosova ayrim gaplarda ifoda planining mazmun planiga mos emasligini aytib, shunday yozadi: «Bunday qo'shma gaplar, ikki predikativ birlikning mavjud bo'lishiga qaramasdan, bir situatsiyani ifoda qiladi. Jumlaning mazmuni aslida ergash gap qismida mujassamlashgan, bosh gap qismi esa hamisha oldin kelib, sezilarli darajada mazmunsizlashgan, u axborot berish vositasi emas, balki ergash gapdagi axborotning o'ziga xos aktualashtiruvchisidir». Tadqiqotchi ana shuni hisobga olib, bunday gaplarning ifoda planiga ko'ra qo'shma, mazmun planiga ko'ra esa sodda ekanligini ta'kidlaydi¹.

O'zbek tilidagi ergash gapli qo'shma gaplarda asosiy «axborotni aktualashtiruvchi» sifatida, ya'ni modus ifodachisi sifatida bosh gap ham, ergash gap ham, aytib o'tilganiday, kelaverishi mumkin.

Qiyos: Gap shundaki, men yakkachinor qishlog'iga ishga jo'nadim.(O'.Umarbekov) Hozir o'sha yillarni eslasam, institutda qolganimga xursand bo'laman. (O'.Umarbekov).

Birinchi gapda modus bosh gap orqali, ikkinchi gapda esa modus ergash gap orqali ifodalangan. Lekin bari bir har ikki gapda ham mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik mavjud. Ergash gapda ifodalangan mazmunning tabiatiga ko'ra mazkur shakllar bilan bog'liq «shart» va «payt» ma'nolari neytrallasadi. Bu hol, albatta, tushunarli, chunki mazkur predikatlar denotativ voqea ifodasida ishtirok etmagan.

Shunisi ham tabiiyki, modus ifodalovchi tizim ixchamlashishga moyil bo'ladi. Buni yaxlit gapda denotativ voqeaga qaraganda modusning nomuhimligi bilan izohlash mumkin. Ana shu nomuhimlik, aslida, tegishli so'z shakllaridagi ma'nolarning («shart», «payt» kabi) kuchsizlanishiga yoki neytrallasishiga olib keladi. Bu neytrallasuv ko'pgina ergash gapli qo'shma gaplarda juda aniq bo'ladi. Men senga aytsam, odamlarga yaxshilik qil, Keyingi masalaga kelsak, asosiy ma'ruzani kasaba uyushmasining raisi qiladi. Gapning ochig'ini aytganda, ishga

¹ Колосова Т. А. Ўша асар, 32—35-бетлар.

jiddiy kirishmoq shart. Men o'ylaymanki, u bugun keladi kabi ergash gapli qo'shma gaplarda ana shunday neytrallashuvni ko'rish mumkin. Bu neytrallashuvga va gapning tegishli qismlarida ifodalangan modusning mantiqiy-mazmuniy tabiatiga ko'ra bunday shaklan qo'shma gaplar haqli ravishda kirish tizimli sodda gaplar sifatida baholanadi¹. A.G'ulomov kirish tizimlarning asosiy gapdagi fikrga bog'liq bo'lgan, shu haqdagi qo'shimcha mulohazalarni ifodalashini ta'kidlaydi. Uningcha, «bu mazmun ottenkalari juda xilma-xil: so'zlovchining aytilayotgan fikrga sub'ektiv munosabatini, shu fikrga bog'liq holda tug'ilgan emotsiyalarni, fikrning umumiy bahosini va shu kabi holatlarni bildiradi»². Bu ma'nolar biz modus tavsifi bilan bog'liq holda aytgan ma'nolar bilan mos keladi. Demak, kirish gap, kirish so'z, kirish tizimlarning semantikasi bevosita modusdan iborat. Modus ifodalangan va predikatlaridagi tegishli shakllar ma'nosi aniq neytrallashgan aksar ergash gaplarni kirish gaplar sifatida baholash bunday shaklan qo'shma gaplardagi mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlikni bartaraf etadi. Chunki bunday holatdagi ergash gapning gapligi inkor etilmagan holda u qo'shma gapning sintaktik tarkibidan tashqariga chiqariladi. Zero, «kirish konstruksiyalar so'zlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiradigan, lekin gap bo'laklari bilan sintaktik jihatdan bog'lanmagan elementlardir»³.

Yuqorida aytib o'tilganidek, modus ifodalovchi gaplar mohiyatan shakliy jihatdan ixchamlashishga moyil bo'ladi. Bu modus sifatidagi ma'noni nutqiy aloqa talabiga muvofiq ta'kidlash darajasining katta yoki kichikligi bilan bog'liq. Ana shu darajaga mutanosib ravishda modus ifodalangan gapni predikativ tizim, hatto bir so'zgacha ixchamlashtirish mumkin. Bu munosabat bilan A. G'ulomov shunday yozadi: «Ma'lumki, bari bir, anglashiladiki kabi kirish so'zlarning bir qismi aslida bir gap bo'lgan. Bu gap har jihatdan o'zgarib, kuchsizlanib, kirish so'zga aylangan. Masalan, baribir (bari bir: ega-kesim). Bularning ba'zilarida -ki bog'lovchisining qo'llanishi ham shuni ko'rsatadi: Ma'lumki, paxta terimi sentyabr oyidan boshlanadi (aslida: ma'lumki — bosh gap, qolgani ega ergash gap: Paxta terimining sentyabr oyidan boshlanishi ma'lum narsa). O'ylaymanki, bugun kelar (aslida o'ylaymanki bosh gap, qolgani to'ldiruvchi ergash gap: u bugun keladi, — deb o'ylayman, Ko'chirma gap bilan muallif gapining munosabatidan bosh gap bilan to'ldiruvchi ergash gapning munosabati anglashilib turadi»⁴.

Agar nutqiy aloqada modusni gap shaklida ifodalab alohida ta'kidlashga zarurat bo'lmasa, modusni ifodalovchi gap ixchamlanib boraverishi mumkin. Shuning uchun ham A.G'ulomovning yuqorida keltirilgan fikri asoslidir. Masalan:

Agar men sizga to'g'risini aytсам, siz bu kitobni o'qimagansiz.

¹ Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри, Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 155-бет.

² Ўша асар, 156-бет.

³ Ўзбек тили грамматикаси. II том. Т., 1976. 25-бет.

⁴ Гуломов А., Аскарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. Тошкент: Ўқитувчи, 1987, 155-156-бетлар.

Bu gapda *-sa* ning ma'nosi neytrallashtgan emas, u to'la «shart» ma'nosini ifoda etgan, ya'ni qo'shma gapning har ikki qismida ham denotativ voqea ifodalangan, modus alohida gap bilan ifodalangan emas. Yaxlit qo'shma gapning mazmuni ikki denotativ voqea o'rtasidagi shart munosabatidan iborat, ya'ni birinchi denotativ voqea (ergash gapda) ning amalga oshishi ikkinchi denotativ voqea (bosh gapda)ni keltirib chiqaradi. Gapning mazmuniy va shakliy jihatlari bir-biriga muvofiq keladi. Endi mana bu gapni olib ko'raylik: Agar men sizga to'g'risini aytsam, siz bu kitobni o'qimagansiz. Bu gapning ergash qismida modus ifodalangan va predikat ifodasidagi *-sa* (aytsam)ning «shart» ma'nosi neytrallashtgan; bosh gapda: esa (siz bu yerlarni ko'rmagansiz) denotativ voqea ifodalangan. Shu ma'noda ergash gap mazmunan kirish gapga yaqinlashadi, bog'lovchi vosita *-sa* ham mazmun, ham grammatik jihatdan kuchsizlangan. Modusni ifodalovchi gapning ixchamlasha olish xususiyatiga ko'ra mazkur gapda quyidagicha shakliy ko'chim (transformatsiya)ni amalga oshirish mumkin: Agar men sizga to'g'risini aytsam, siz bu kitobni o'qimagansiz → Mei sizga to'g'risini aytsam, siz bu kitobni o'qimagansiz → Sizga, to'g'risini aytsam, siz bu kitobni o'qimagansiz → To'g'risini aytsam, siz bu kitobni o'qimagansiz → To'g'risi, siz bu kitobni o'qimagansiz. Ko'rinadiki, denotativ voqea ifodasi bo'lgan gap bilan qarshilantirilgan va mazmuni modusdan iborat bo'lgan. Agar men sizga to'g'risini aytsam gapi mazmunan to'g'risi shaklidagi kirish so'z bilan teng.

Umuman, ergash gapli qo'shma gaplarning tarkibida alohida gap orqali ifodalangan modus mazmuni mavjud bo'lgan barcha turlari uchun mazmuniy-sintaktik nomuvofiqlik xosdir. Ayni choqda bunday ergash gapli qo'shma gaplardagi modus ifodasining tabiatiga ko'ra ularda hamisha kirish tizimli gaplarga aylanish imkoniyati mavjud. Bu mazmuniy-sintaktik jarayon, ya'ni ergash gapli qo'shma gaplarning kirish tizimli gaplarga shakliy ko'chishi benihoya murakkab va o'ziga xos jiddiy jarayon bo'lib, unda bir qator mantiqiy lisoniy qonuniyatlar amal qiladi.

2.2. Ergash gapli qo'shma gaplar tasnifi

Qo'shma gap sintaktik birlikning eng yuqori shaklidir. Qo'shma gaplar uchun sodda gaplar qurilish materiali sanaladi. Qo'shma gaplar mustaqil sodda gaplardan emas, balki mazmun va grammatik jihatdan bir-biriga bog'liq birliklardan tashkil topadi.

Mazmuni, grammatik tuzilishi hamda intonatsiyaga ko'ra bir butunlikni tashkil etgan, turli xil grammatik, leksik-grammatik va leksik vositalar yordamida birikkan tuzilmalar qo'shma gap deyiladi.¹

¹ Gulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 1985. 172-bet.

Demak, qo'shma gap grammatik shakllangan va birdan ortiq axborotni tashish uchun mo'ljallangan nisbiy mustaqil sodda gapning grammatik, semantik, intonatsion va kommunikativ jihatdan yaxlitlangan butunligidir¹.

Qo'shma gapni tashkil etuvchi sodda gaplar mazmun va intonatsiyasi jihatidan yaxlitlikni, bir butunlikni tashkil etadi.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gap alohida olingan sodda gapdan nisbatan mustaqil emasligi bilan ajralib turadi. Avvalo, bu — grammatik va ohang jihatdan nomustaqillik. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gapning o'zaro zichlashuvi mazmun, grammatik shakl va intonatsiya nuqtai nazaridan bo'ladi.

Qo'shma gap muammosi o'zbek tilida XX asrning 30-yillaridan keyin ma'lum darajada o'rganila boshlandi. Qo'shma gaplar dastlab ikki asosiy turga bo'linib kelingan. V.A.Bogorodskiy ham qo'shma gaplarni ergashgan va bog'langan deb ikkiga ajratish birmuncha sun'iy ekanligi, u tildagi jonli turli-tumanlik, xilma-xillikni o'zida aks ettira olmasligini aytgan.

I.A.Batmanov o'zbek tilidagi qo'shma gaplarni uchga bo'lib tekshiradi: shart ergash gap, o'zgalar gapi, bog'langan qo'shma gaplar.

A.K.Borovkov qo'shma gapning ikki asosiy turi mavjud ekanligini ko'rsatadi. Xuddi shu xildagi fikr A.N.Kononov ishida ham ta'kidlangan.

M.Asqarova qo'shma gaplarni ikki guruhga bo'lib o'rganadi.² G'.A.Abdurahmonov esa qo'shma gaplarni uch turga (bog'lovchisiz qo'shma gaplar, bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar) bo'lib tekshiradi.³

N.A.Baskakov qo'shma gaplarni uch guruhga bo'lib tekshiradi: bog'langan qo'shma gaplar, (bog'lovchili, bog'lovchisiz), ergashgan qo'shma gaplar (bog'lovchili, bog'lovchisiz) va ko'chirma gaplar ergashgan qo'shma gap.

Tilshunos I. Azimov qo'shma gaplarni mazmuniy jihatdan bir necha guruhlariga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi.⁴

Keyingi yillarda qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning qurilish qolipiga ko'ra tasniflash tavsiya etiladi.

Qo'shma gaplarni tasniflaganda ularning tarkibidagi sintaktik aloqa va munosabatlarni ham hisobga olish lozim bo'ladi.

Sintaktik aloqaning tenglashish aloqasi, tobelanish aloqa kabi oppozitsiyalarini hosil qiluvchi qutblari mavjud.

¹ R. Sayfullayeva, Mengliyev B. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 392-bet.

² Asqarova M. Hozirgi zamon o'zbek tilida qo'shma gaplar. –T., 1960. 6-7-betlar.

³ Абдурахмонов Ғ.А. Основы синтаксиса сложного предложения современного узбекского литературного языка. АДД. -Т., 1960. –С.6

⁴ Azimov I. Qo'shma gaplar tasnifiga doir// O'zbek tili va adabiyoti, 2005y, 5-son. 51-bet.

Tenglashish aloqasining xarakteri uning birinchi bosqich paradigmasini belgilashda oppozitsiya asosi vazifasini bajaradi. Tenglashish aloqa tarkibida ikki ko'rinishni farqlash mumkin: a) yopiq qatorli tenglashish; b) ochiq qatorli tenglashish.

Yopiq qatorli tenglashishda ma'nosiga ko'ra biriktiruv, zidlov aloqasi o'z aksini topadi, vazifaga ko'ra qo'shma gap hosil qiladi.

Ochiq qatorli tenglashishda ma'nosiga ko'ra ayiruv-chegaralov, inkor aloqa o'z aksini topadi, vazifasiga ko'ra qo'shma gap hosil bo'ladi. Qo'shma gapni hosil qiluvchi ayiruv, inkor bog'lovchilari ishtirok etadi.

Tobelanish aloqasi tobelikning yo'nalish xususiyatiga ikki xil aloqa hosil qiladi: a) koordinativ aloqa; b) subordinativ aloqa.

Koordinativ aloqa vazifasiga ko'ra nominativ va kommunikativ birlik hosil qiladi. Tuzilishiga ko'ra qo'shma gaplar hosil qiladi.

Subordinativ aloqa qo'shma gaplarni hosil qiladi, bu qo'shma gaplar tarkibidagi aloqa sodda gaplar tarkibidagi boshqaruv aloqasini eslatadi.

Qo'shma gap tasnifida sintaktik aloqa mezonlarinigina emas, balki sintaktik munosabat mezonlarini ham hisobga olish kerak. Sodda gaplar tarkibida monopredikativ sintaktik munosabat mavjud bo'lsa, qo'shma gaplarda polipredikativ sintaktik munosabatlar mavjud.

Polipredikativ sathda sintaktik munosabatlarning to'rt xili vujudga keladi: predikativ munosabat, atributiv munosabat, possessiv munosabat, situativ munosabat.

Qo'shma gap ham lisoniy birlik sifatida murakkab tabiatli bo'lib, bu murakkablik uning lisoniy sathda tutgan o'rni, tarkibidagi sodda gapning grammatik shakli va bog'lovchi vositalari hamda mazmuniy munosabatining rang-barangligi bilan belgilanadi. Shuningdek, qo'shma gap turlarini xilma-xil asoslarda turlicha tasniflash mumkin bo'ladi. Tasnif asosining aniqligi va izchil amalga oshirilishi masala mohiyatini oydinlashtirishda muhim.

Qo'shma gapning ma'noviy va struktur tasnifi ko'p holda o'zaro farqlanadi.

Formal sintaksis qo'shma gap tasnifida ko'p hollarda ularning nutqiy belgi-xususiyati, zohiriy alomatiga tayanadi. Substantsial sintaksis tasnifi esa qo'shma gapning lisoniy mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Qo'shma gapning tarkibidagi bog'lovchi vositalariga ko'ra sof shakliy bo'lib, gap orasidagi ma'noviy bog'lanish qanday qo'shimcha (shakliy) vosita bilan ta'minlanishiga tayanadi. Bu asosga ko'ra qo'shma gapning quyidagi turlari ajratiladi:

- a) faqat ohang bilan bog'langan qo'shma gap;
- b) yuklamalar vositasida bog'langan qo'shma gap;
- s) teng bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap;
- v) ergashtiruvchi bog'lovchilar vositasida bog'langan qo'shma gap;

g) nisbiy soʻzlar vositasida bogʻlangan qoʻshma gap¹.

Oʻzbek tilidagi ergash gaplarning tasnifi umuman boshqa tillardagi, ergash gaplarning tasnifiga yaqin turadi. Bu tasodifiy emas, albatta. Chunki «turkiy tillardagi, shuningdek, boshqa tillardagi ergash gap nazariyasi sodda gap nazariyasi bilan uzviy bogʻlangan»². Ergash gaplarni sodda gaplardagi muayyan boʻlaklar bilan nisbatlash tilshunosliklarda juda uzoq anʼanaga ega. Ayrim tilshunosliklarda, masalan, ispan tilshunosligida ergash gaplarning vazifasini soʻz turkumlarining sodda gaplardagi vazifasi bilan tenglashtirishdan iborat qarash ham bor³. Lekin bu qarash ham avvalgi qarashdan mohiyatan unchalik farq qilmaydi.

Rus tilshunosi Beloshapkova bu haqda shunday yozadi: «Rus sintaksis ilmidagi turli davrlarda ergash gapli qoʻshma gaplarni tasniflashning uch prinsipi ilgari surilgan edi. Ergash gapli qoʻshma gaplarni yaxlitligicha sodda gaplarga, ergash gaplarni esa sodda gap boʻlaklariga oʻxshatishga asoslangan tasnif juda keng tarqaldi. Bunga asoslangan tasnif qolipi oʻzining mohiyat eʼtibori bilan XIX asrning oʻrtalarida shakllandi; uning yaratilishida F.I.Buslaevning xizmatlari benihoya kattadir. Bu tasnifning asosiga muvofiq ergash gaplar orasida ega, kesim, toʻldiruvchi, aniqlovchi va hol ertash gaplar farqlanadi, hol ergash gaplarning turlari sifatida oʻrin, ravish, daraja va miqdor, payt, sabab, maqsad, shart, toʻsiqsizlik ergash gaplar ajratiladi»⁴.

Ergash gaplarni sodda gap boʻlaklariga oʻxshatishga asoslangan tasnifga ergash gapli qoʻshma gaplarni bosh va ergash qismlarning bogʻlanish vositalariga koʻra shakliy tasniflash qarama-qarshi qoʻyiladi. Bunday tasniflash A.M.Peshkovskiy, M.N.Peterson, L.A.Bulaxovskiy, A.B.Shapirolar tomonidan ilgari surilgan va himoya qilingan. Ergash gapli qoʻshma gaplar orasida ikki asosiy tip farqlangan: bogʻlovchi vazifasidagi soʻzli gaplar (nisbiy ergashish) va bogʻlovchili gaplar (bogʻlovchili ergashish).

Tarkibiy-mazmuniy tasnifning yaratilishida N.S.Pospelovning ishlari muhim rol oʻynadi, u ergash gapli qoʻshma gaplarning ikki asosiy tipini ajratgan: ikki aʼzoli tip va bir aʼzoli tip. Ikki aʼzoli va bir aʼzoli gaplar oʻrtasidagi farqni N.S.Pospelov bosh va ergash qismlar oʻrtasidagi aloqadorlikning turli tabiati bilan bogʻlaydi: ikki aʼzoli gaplarda ergash qism bosh qism bilan yaxlitligicha bogʻlanadi, bir aʼzoli gaplarda ergash qism bosh gapdagi bir soʻzga tegishli boʻladi, bunda u bu soʻzni rivojlantiradi yoki aniqlashtiradi⁵. V.A.Beloshapkovaning oʻzi ayni tiplarni «boʻlaklangan» («raschlenennoʻy») va «boʻlaklanmagan» («neraschlenennoʻy») gaplar deb

¹ R. Sayfullayeva, Mengliyev B. va b. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. 398-bet.

² Баскаков А. Н. Предложение в современном турецком языке. М.: Наука, 1984, С. 119.

³ Васильева - Шведе О. К., Степанов Г. В. Теоретическая грамматика испанского языка. Синтаксис предложения. М.: Высшая школа, 1981, С. 232.

⁴ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 362 б.

⁵ Белошапкова В. А. Современный русский язык. Синтаксис. М: Высшая школа, 1977, С. 216—219.

nomlaydi¹. N.S.Pospelov va V.A.Beloshapkovalarning bu masaladagi qarashlarida prinsipial farq yo`q.

Ergash gaplarning bosh gapni yaxlitligicha izohlashi yoki uning biror bo`lagi bilan aloqador bo`lishi haqidagi qarash turkiyshunoslikda ham keng tarqalgan. Masalan, M.A.Asqarova shunday ta`kidlaydi: «Ergash gap esa mazmun va strukturasiga ko`ra bosh gapdan ko`ra boshqacharoq tuzilib, bosh gapning biror bo`lagini yoki bosh gapni yaxlitligicha izohlaydi»². Ozarbayjon tilidagi ergash gapli qo`shma gaplardagi bosh va ergash gap munosabatidagi ayni xususiyatni ta`kidlagan holda A.Z.Abdullaev va A.G.Javodovlar turkiy tillardagi, xususan, ozarbayjon tilidagi ergash gapli qo`shma gaplarni ikki mazmuniy-sintaktik guruhga — «bir mazmuniy» va «ikki mazmuniy yadroli» gaplarga ajratishni tavsiya qiladilar. Bunda ular boy gapdagi biror bo`lakni izohlaydigan ergash gapli qo`shma gaplar ko`proq bir mazmuniy yadroga va bosh gapni yaxlitligicha izohlaydigan ergash gapli qo`shma gaplar ko`proq ikki mazmuniy yadroga ega bo`lishini aytadilar<sup>3</sup>. Lekin, garchi mualliflar bunday tasniflashni barcha turkiy tillar uchun tavsiya qilayotgan bo`lsa-da, uni o`zbek tili uchun to`lig`icha tatbik, etib bo`lmaydi. Chunki ular farqlayotgan «bir mazmuniy yadroli» va «ikki mazmuniy yadroli» qo`shma gaplar tushunchalari biz yuqorida aytib o`tgan bir denotativ voqea ifodalangan va ikki (yoki undan ortiq) denotativ voqea ifodalangan ergash gapli qo`shma gaplarga yaqin keladi. O`zbek tilida, yuqorida ko`rib o`tilganiday, modus bosh gap orqali ham, ergash gap orqali ham ifodalana oladi, ergash gap orqali ifodalanganda esa bu gap shaklan bosh gapga to`lig`icha tegishli bo`ladi (Men sizga to`g`risini aytsam, siz bu yerlarni ko`rmagansiz). Misol tariqasida keltirilgan gapdan ko`rinib turibdiki, unda bir denotativ voqea — «mazmuniy yadro» ifodalangan. Demak, mazkur tilshunoslar fikriga to`lig`icha qo`shilish mumkin emas.

Aytish mumkinki, ergash gaplarni tasniflashda keyingi paytlarda u yoki bu tarzda turli tilshunosliklarda ergash gapli qo`shma gaplarning sodda gaplarga qiyoslanishidan qochishga qanchalik harakat qilinmasin, bari bir bu harakatlar mohiyatan ana shu qiyoslanishdan uzoqqa ketolmayapti. M.I.Cheremisina va T.A.Kolosovalar ta`kidlaganlaridek, «tobe predikativ birliklarning vazifalari bilan gap bo`laklari vazifalari o`rtasidagi o`xshashlik hozir urf (modada) bo`lmasa-da»,... «bu o`xshashlikdan qochib qutulish qiyin»<sup>4</sup>. Ularning fikricha, tobe predikativ birliklarning vazifalarini sodda gap bo`laklarining vazifalari bilan solishtirish mumkin. Ega, kesim, to`ldiruvchi, aniqlovchi, turli mazmuniy turlarga ega bo`lgan hol vazifalari sodda gapda so`z

¹ Белошাপкова В. А. Ўша асар, 220-бет.

² Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. 3-нашри. -Т.: Ўқитувчи, 1987, 187-б.

³ Абдуллаев А. З., Джавадов А. Г. О семантическом ядре азербайджанского сложноподчиненного предложения. Советская тюркология, 1987, № 1, С. 52—53.

⁴ Черемисина М. И., Колосова Т. А. Очерки по теории сложного предложения. Новосибирск: Наука, 1987, С.61.

shakllari, soʻz birikmalari, turli sintaktik tizimlar orqali bajarilishi mumkin. Ayni vazifalar predikativ birliklar orqali bajarilganda, gap qoʻshma gapga aylanadi.

Har qanday gap aslida muayyan sintaktik oʻrinlar (pozitsiyalar) sistemasidan iborat. Sodda gaplardagi sintaktik oʻrinlar ergash gapli qoʻshma gaplardagi sintaktik oʻrinlardan aslida farq qilmaydi, ular bir xil¹.

Sintaktik oʻrin gapdagi predikatni ifodalagan soʻzning maʼnosi va demak, valentligiga koʻra yuzaga keladi. Boshqacha qilib aytganda, bosh gapning kesimi vazifasidagi soʻzning maʼnosi va valentligi ergash gapning mohiyatini va qoʻllanishini taʼminlaydi². Predikatning valentligiga koʻra yuzaga keladigan sintaktik oʻrin, agar predikatning mazmuniiy imkoniyati yoʻl qoʻysagina, tobe predikativ birlik tomonidan egallanishi mumkin. Aks holda ergash gapli qoʻshma gap tarkib topmaydi. Shuning uchun ham ayrim tilshunoslar ergash gapli qoʻshma gap tarkibini tasvirlashda valentlik nazariyasidan foydalanadilar³. Ergash gapli qoʻshma gaplarning mazmuniiy sintaksisini oʻrganishda ham oʻrni bilan valentlik nazariyasiga murojaat qilish maqsadga muvofiq.

Aytilgan mulohazalardan shu narsa kelib chiqadiki, ergash gapli qoʻshma gaplarni oʻrganishda bari bir sodda gaplardagi boʻlaklarning vazifalaridan andoza olgan maʼqul. Chunki yaxlit pozitsion struktura (sintaktik oʻrinlar tizimi) sifatida ergash gapli qoʻshma gaplar sodda gaplardan deyarli farq qilmaydi. Ergash gapli qoʻshma gaplarda gapning grammatik «sinchi» (karkasi), asosini bevosita bosh gap tashkil qiladi. Ergash gap esa u yoki bu tarzda ana shu bosh gap tarkibiga muayyan bir boʻlak sifatida kiradi. «Bosh gap tarkibidagi muayyan boʻlakni izlaydigan ergash gaplar» deb ajratilganda ham shu narsa nazarda tutiladi⁴.

Endi «bosh gapni yaxlitligicha izohlaydigan ergash gaplar» degan iboraga kelsak, u mantiqan toʻgʻri emas. Bunday gaplar ham bosh gapdagi muayyan bir boʻlak — hol vazifasida keladi. Ergash gaplarning bu tipini baholashda koʻpincha ayrim tilshunoslar ularni hol ergash gaplar deyishdan oʻzlarini tiyadilar. Bu munosabat bilan R. Sayfullaeva shunday yozadi: «Hol ergash gapli qoʻshma gap bilan ikkinchi darajali boʻlaklardan biri boʻlgan hol turlarining son jihatdan teng kelmasligidan choʻchiymizmi?! Hol predikativ birlik emas, balki u gap boʻlagidir. Hol ergash gap esa predikativ birlik boʻlib, diskursning bir elementi. Demak, hol bilan hol ergash gapni bir planda oʻrganib boʻlmaydi, ular semantik turlarining son jihatdan teng boʻlishi ham shart emas»⁵. Lekin R. Sayfullaeva bari bir anʼanadan chiqib ketolmaydi: «Ergash gap bosh gapning biror boʻlagini izohlaydi. Agar bosh gapdagi izohlanuvchi boʻlak ifodalanmasa, ergash gap bosh

¹ Шутова С. И. Вопросы теории синтаксиса, М.: Наука, 1984, С. 55.

² Гаврилов.Г. Ф. Об изоморфизме сложноподчиненного предложения и словосочетания. — В кн.: Подчинение в полипредикативных конструкциях. Новосибирск; Наука, 1980, С. 29.

³ Страхова В. С. Некоторые лингвистические основы обучения гипотаксису. — В кн.: Проблемы учебника русского языка как иностранного. Синтаксис. М.: Русский язык, 1980, С. 456—457,

⁴ Нурмонов А. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. - Т.: Фан, 1992.- 240-241- б.

⁵ Сайфуллаева Р. Эргашган қўшма гапининг таснифи. Ўзбек тили ва адабиёти, 1989, 3-сон, 22-бет.

gapni butunicha izohlaydi» Aslida «butunicha izohlaydi», «bosh gapga butunicha aloqador bo`ladi», qabilidagi iboralarning o`zi aniq emas. Har qanday gap bo`lagi (aniqlovchi bundan mustasno) funksional jihatdan faqat kesimga aloqador bo`ladi. Keng ma`nodagi hol sintaktik o`rnini egallagan predikativ birlik, ya`ni demak, ergash gap ham yaxlit bosh gapga emas, balki uning bir konstruktiv bo`lagi — kesimga aloqador bo`ladi. Boshqacha qilib aytganda, gapning hol bo`lagi, shubhasiz, kesimga tobe bo`lsa-da, kesim pozitsiyasidagi so`zning kuchli sintagmatik valentligini mutlaqo reallashtira olmaydi. Ta`kidlash lozimki, hol gapning asosiy mazmunini tashkil qiluvchi voqea bilan u yoki bu jihatdan bog`langan voqeani ifodalovchi gap bo`lagi bo`lib mazmun tomondan «gap ichida gap ifodalovchi» sifatida kelishdek o`ziga xoslik bilan xarakterlanadi<sup>1</sup>. Bu, tayinki, predikativ birliklarni bu sintaktik o`rinni egallab, ergash gap bo`lib kelishlari uchun juda ham qulaydir. Shuning uchun ham hol sintaktik o`rinni, u sodda gapda bo`lsa ham, ergash gapli qo`shma gapda bo`lsa ham nisbatan erkin deb qarash mantiqiydir².

Ko`rinadiki, ergash gaplarning har qanday turi ham u yoki bu tarzda bosh gapda muayyan bir bo`lak bilan aloqalanadi. Tabiiyki, bu aloqalanish usullari xilma-xil. Lekin bundan boshqacha deb qarash, ya`ni ergash gap yaxlit bosh gap bilan aloqalanadi deb qarash bosh gapdagi kesimning mazmuniy-sintaktik maqomini kamsitishga olib keladi. Shuning uchun ham N.A.Baskakov hozirgi turk tilidagi ergash gaplarni quyidagicha guruhlarga ajratadi:

1. Bosh gapdagi substantiv bo`laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga ega va to`ldiruvchi ergash gaplar kiradi.

2. Bosh gapdagi atributiv bo`laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga kesim va aniqlovchi ergash gaplar kiradi.

3. Bosh gapdagi atributiv — hol bo`laklar bilan aloqalanadigan ergash gaplar. Bu guruhga sabab-natija, shart, to`siqsiz, maqsad, payt, o`xshatish va chog`ishtirish ergash gaplar kiradi³.

O`zbek tilshunosligida ergash gaplar (boshqa ko`pgina tilshunosliklardagi kabi) mazmuniy-shakliy jihatdan 14 turga ajratiladi: 1) ega, 2) kesim, 3) to`ldiruvchi, 4) aniqlovchi, 5) ravish, 6) o`lchov-daraja, 7) chog`ishtirish-o`xshatish, 8) sabab, 9) maqsad, 10) payt, 11) o`rin, 12) shart, 13) to`siqsiz, 14) natija ergash gaplar⁴.

Qo`shma gap tarkibiy qismlari orasida tobelik aloqasi mohiyatan so`z birikmasi tarkibiy qismlari orasidagi hokim-tobelik munosabati bilan o`xshash. Farq shundaki, bunda tobe qism ham, hokim qism ham alohida gap bilan ifodalanadi. Shundan kelib chiqqan holda, gap bo`laklariga muvofiq ravishda bunday qo`shma gaplar 5 turga ajratiladi.

¹ Кацнельсон С. Д. Кўрсатилган асар, 22-бет.

² Хожиев А., Махмудов Н. Семантика ва синтактик позиция. Ўзбек тили ва адабиёти, 1983, 2-сон, 31—32-бетлар.

³ Баскакова А. Н. Предложение в современном турецком языке. М. : Наука, 1984, С. 157.

⁴ Ғуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 187-бет.

1. Kesim tobe gapli qo'shma gap: Qizig'i shuki, o'ttiz besh yilning narisidagi gaplar Amirga tushida ayon bo'libdi. (U.H.)
2. Ega tobe gapli qo'shma gap: Kim birovga chuqur qazisa, unga o'zi yiqiladi. (Maq.)
3. Hol tobe gapli qo'shma gap Yusuf uyqusiragan ko'yi qarasa, o'zidan boshqa hamma, hatto ukalari ham choy ichib o'tiribdi. (U.H.)
4. To'ldiruvchi tobe gapli qo'shma gap: Ayni damda shu narsani ravshan anglardiki, yangi tarixni yozish bilan bog'liq orzulari endi uni bezovta qilmayotgandi. (U.H.)
5. Aniqlovchi tobe gapli qo'shma gap: U shunday to'xtamga keldiki, odamzodning o'zagi mustahkam ekan. (U.H.)

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bu tasnif ma'no bilan bog'liq bo'lganligi sababli bir qo'shma gapning o'zi xilma-xil tasnif etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ergash gapli qo'shma gaplar, umuman, qo'shma gaplarning qurilishi turli shakllarga – qoliplarga ega. Har bir qolip alohida grammatik vositalarni talab qiladi. Ergashgan qo'shma gaplar turlicha tasnif qilingan: bog'lovchi vositalarga ko'ra, ergash gaplarning bosh gap tarkibidagi qaysi bo'lakni izohlab kelishiga ko'ra. Bizningcha, ergashgan qo'shma gaplarni ular orqali yuzaga chiqqan mazmuniy munosabatlarga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir.

2.3.Ergash gapli qo'shma gaplarning grammatik xususiyatlari

Hozirgi o'zbek tilida qo'shma gaplar ma'lum mazmun munosabatlarini ifodalashi, grammatik belgilari, tuzilishi, qurilish qolipi va intonatsiyasiga ko'ra bir necha ko'rinishga ega. Ular quyidagilardan iborat:

1. Bog'langan qo'shma gaplar.
2. Ergash qo'shma gaplar.
3. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar.
4. Ko'chirma qurilmali qo'shma gaplar.

Qo'shma gap qismlarining birikish usullari mavjud bo'lib, ular parataksis va gipotaksis sanaladi.

Parataksis so'zi grekcha so'z bo'lib, bog'lanish, qator tuzish degan mazmunni ifodalaydi. ¹

Parataktik qurilmalar qismlari orasida turli mazmun munosabatlarining ifodalanishida shu qislar tarkibidagi gap bo'laklarining ma'nosi va o'rinishi, ularning semantik va grammatik o'zaro munosabati, ayrim leksik elementlarning qo'llanishi, gaplarning intonatsiyasi kabi omillar

¹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T., 1980.

asosiy rol o'ynaydi: Urushdan faqat boylar manfaat topdi, ammo kambag'allar xonavayron bo'ldi. (Jurn.)

Gipotaksis so'zi ham grekcha so'z bo'lib, gaplarning o'zaro ergashtiruvchi vositalar yordamida tobelashishini anglatadi.¹

Tilda ikki sodda gapni grammatik va, ayni paytda, semantik jihatdan bog'lash natijasida yangi mazmunga, yangi sifatda ega bo'lgan sintaktik butunlik yuzaga keladi. Bu sintaktik butunliklarni ikkiga ajratish mumkin: 1) parataksis; 2) gipotaksis (grek.hupo – osti +taxis - joylashuv) gaplarning ergash bog'lovchi vositalar yordamida tobelanishidir. Gipotaksisning ziddi parataxis (grek. Parataxis – qator tizish) esa gaplarning o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchi vositalar yordamisiz va ular orqali bog'lash mumkin, birinchi holatda parataksis yuzaga kelsa, ikkinchi holatda gipotaksis yuzaga chiqadi. Har ikkila holatda ham tobe munosabat mavjuddir, faqat ularda bog'lovchi vositalarning qo'llanishiga ko'ra tobelik turli darajada bo'ladi, shunga ko'ra ular o'z ichida turlarga bo'linib ketadi.

S. Usmonov glossematik funktsiyalarning (ya'ni tobelikning) uchta tipi borligini ko'rsatib o'tgan: 1) ikki tomonlama tobelik (yoki interdependentsiya). Bu biri ikkinchisiz mavjud bo'lmaydigan ikki element orasidagi munosabatdir; 2) bir tomonlama tobelik (yoki determinatsiya). Bu biri boshqasining bo'lishini talab qiladigan ikki element orasidagi munosabatdir².

Gipotaksis turlarini tobelikning darajasiga, uning komponentlari orasidagi munosabatga qarab belgilaymiz. Gipotaktik butunlik komponentlarida to'liq predikatsiya mavjud bo'lsa, ya'ni bu sintaktik butunlik oddiy shakldagi semantik yadroga ega bo'lsa, tobe munosabat past darajada bo'ladi.

Gipotaksis komponentlarining birida to'liq bo'lmagan predikatsiya bo'lib, u ikkinchi predikatsiya bilan birgaoddiy shakldagi bir semantik yadrogiga ega bo'lsa, o'rta darajadagi tobe munosabatda bo'ladi. Oddiy shakldagi semantik yadro tobe qismga joylashadi, hokim qismdagi to'liq bo'lmagan predikatsiya esa semantik yadroga ulanadi.

Agar gipotaksis komponentlari: hokim qism ham, tobe qism ham to'liq bo'lmagan predikatsiyadan iborat bo'lsa, bunday semantik butunlik murakkab shakldagi bir semantik yadroga ega bo'ladi va tobe lanishning yuqori darajasida bo'ladi. Gipotaksis komponentlarining biri 0 ko'rsatkichli predikatsiyaga ega bo'lsa, bunday holatda tobelanish o'ta yuqori darajada bo'ladi. Demak, gipotaksis komponentlari orasida tobelanish bir xil bo'lmaydi, shunga ko'ra gipotaksisning quyidagi turlarini ajratish mumkin: 1) quyi tobelanishga ega bo'lgan G1 (oddiy shakldagi ikki semantik yadro), erkin tobelik (yoki konstellyatsiya); 2) o'rta tobelanishga ega

¹ Hojiyev A. Ko'rsatilgan asar.

² Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1972. 187-bet.

bo'lgan G2 (oddiy shakldagi bir semantik yadro), bir tomonlama tobelik (yoki determinatsiya); 3) yuqori tobelanishga ega bo'lgan G3, ikki tomonlama tobelik, 4) o'ta yuqori tobelanishga ega bo'lgan G4, bir tomonlama hukmronlik. Ko'rinadiki, gipotaktik butunliklar to'rt turga bo'linadi.¹ Bir-birini taozo etuvchi, bir-biridan ajralmaydigan tobe munosabatga kirishgan bunday gipotaksis komponentlari o'ta yuqori tobelanish darajasida ega bo'ladi deb aytish mumkin.

Ergash gap bosh gapni izohlaydigan va mazmunan unga tobe bo'lgan qismdir. Ergash gap turli tobelashtiruvchi vositalar yordami bilan bosh gapga bog'lanadi. Shundan bilamizki, mushumzo'rlar tipirchilab qoldi. (A.Q.)

Birdan ortiq komponentlarni biri ikkinchisiga sintaktik jihatdan tobe bo'lishi va o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, nisbiy so'zlar orqali birikishidan tashkil topgan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar deyiladi, ergashgan qo'shma gaplar ham fikriy, ham grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo'lib, ularning tarkibidagi komponentlar sintatik jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo'ladi. (Bog'langan qo'shma gapdagi sodda gaplar esa biri ikkinchisiga teng holda birikkan bo'ladi.) Ergashgan qo'shma gapdagi komponentlar ergashtiruvchi bog'lovchilar orqali bog'lanadi (bog'langan qo'shma gapda esa bu komponentlar teng bog'lovchilar orqali bog'lanadi).

Qo'shma gapning tarkibidagi qismlar o'zaro bir-biriga intonatsiya va yordamchi vositalar bilan bog'lanadi.

Intonatsiya qo'shma gapning hamma turida ishtirok qiladigan universal vosita sanaladi. Qo'shma gapning shakllanishidagi ishtirokiga ko'ra, intonatsiya bosh va yordamchi rolni o'ynaydi. Intonatsiya bosh rolni o'ynaganda sintaktik aloqa faqat intonatsiya orqali ifodalangan bo'ladi. Yordamchi rol o'ynaganda boshqa vositalar ishtirok etadi.

Ergashgan qo'shma gaplardagi sodda gaplarni bog'lashda nisbiy so'zlar muhim ro'l o'ynaydi. Nisbiy so'z vazifasida ko'proq so'roq, belgilash olmoshlari va ayrim ravishlar ishlatiladi. Bularning ergash gap va bosh gap tarkibida qo'llanishi, odatda shunday tartibda bo'ladi: oldingi gapdagi olmosh yoki ravish keltiriladi. Bu so'zlarning ishlatilishi ko'p vaqt so'roq javob harakterida bo'ladi. Ko'pincha so'roq harakatidagi so'z oldingi gapda, javob tarzidagi so'z keyingi gapda keladi. Nisbiy so'zlar ishtirok etgan qo'shma gaplarda birinchi gapning fe'l kesimi shart maylida qo'llangan bo'ladi. Masalan: 1. Akam o'z yo'lini to'g'ri deb qanchalik ishonsa, otam ham o'z e'tiqodida shunchalik sobit. (U.H.) 2. Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut –baraka bo'ladi.

Bog'langan qo'shma gapdagi bog'lanish esa bundan boshqachadir: unda komponentlar nisbiy so'zlar orqali birikmaydi. Ulardagi sodda gaplarni bog'lashda fe'l kesimlarning zamon firmasi,

¹ Zokirova H. Gipotaksis komponentlari o'rtasidagi tobelanish darajasi// O'TA, 2010, 3-son, 75-bet.

ayrim olmoshlarning ishlatilishi, soʻz formalarining takrorlanishi kabi hollar muhim ahamiyatga ega boʻladi.

Ergashgan qoʻshma gapdagi komponentlar orasida tobelanish xarakterdagi intonatsiya, bogʻlangan qoʻshma gapda esa tenglik xarakteridagi intonatsiya qoʻllanadi. Ergashgan qoʻshma gapdagi ohang bogʻlangan qoʻshma gapdagi ohangga nisbatan boshʻqacharoq boʻladi.

Ergashgan qoʻshma gaplar bosh va ergash gaplardan tashkil topadi. Bosh gap tuzilish jihatidan mustaqil sodda gaplarga oʻxshaydi, ergash gap doimo bunday xususiyatga ega boʻla bormaydi. Ergash gap va bosh gaplar maxsus yordamchilarni qabul qilishiga koʻra ham bir-biridan farqlanadi. Ergashgan qoʻshma gapdagi komponentlarni bir-biriga tutashtiruvchi soʻz shakllar–affiks tusidagi yordamchilar (ravishdosh, sifat-dosh formolari yoki shart feʻli affiksi –sa va boshqa yordamchilar - vositalar) ergash gapning kesimi tarkibida qoʻllaniladi.

Masalan: 1. Yusuf koʻib turardiki, uning javobi Shavkatga hatto ota oʻlimidan ham qattiqroq taʼsir qilgandi. (U.H.) 2. Ammo-lekin bilardiki, oʻz eʼrriofini hech qacho hech kimga oshkor qilolmaydi. (U.H.)

Ergash gap bosh gapga bogʻlanib uning bir boʻlagini yoki bosh gapni butunicha - butun bir gapni izohlab, toʻldirib bir tomondan xarakterlab keladi. Bosh gap ergash gap tomondan izohlanadi, aniqlanadi, va u ergash gapga nisbatangina mustaqil, tugallangan tusda boʻladi: ergash gap uni izohlaydi unga ergashgan boʻladi. Masalan: 1. Bu shundan iboratki, odamzod goʻyo faqat maʼnaviyat tanlab, moddiyatni mensimasa yoki aksincha, moddiyat yoʻlida maʼnaviyatni qurbon bersa,, avvalo, oʻzini mahv etaduganga oʻxshaydi. 2. Oʻylay-oʻylay shu xulosaga keldiki, odamzod, avvalo oʻz davrining farzandi ekan. (U.H.)

Ergash gap bilan bosh gap birga olinib, bir butunlikni – ergashgan qoʻshma gapni tashkil etgandagina u tugallangan mustaqil qoʻshilma-qoʻshma gap sanaladi.

Ergash gapni bosh gapdagi biror boʻlakni yoki butun bir gapni izohlab, toʻldirib, aniqlab kelish xususiyati sodda gapdagi gap boʻlaklariga oʻxshab ketadi, yaʼni ergash gap maʼlum bir gapning yoki gap boʻlagining xususiyatini oʻzida saqlaydi. Masalan: Yusuf yana iqror boʻldiki, Zahro aqlli va farosatli ayol edi. (U.H.)

Bu gapda bosh gap va ergash gap oʻzaro –ki bogʻlovchisi yordamida birikkan. Yusuf yana iqror boʻldiki –bosh gap, Zahro aqlli va farosatli ayol edi-ergash gap. Ergash gap bosh gapdagi harakat obʼyektini izohlaydi. Shunga koʻra u toʻldiruvchi ergash gap sanaladi. Bu ergash gap butunicha xuddi toʻldiruvchi kabi nimaga degan soʻroqqa javob boʻladi.

Ergash gapning tuzilishi, mazmunga koʻra hajmi, ega-kesimning mavjud boʻlishi va odatda maʼlum pauza bilan ajralishi uning sodda gapga oʻxshashlidir.

Ergash gaplar ham, ularning deyarli hammasi, mustaqil sodda gaplarga uchraydigan asosiy belgilarga ega boʻladi: predikatilik protsessi, maʼlum pauza bilan ajralish, mazmunga koʻra

bo'lgan hajm. Ba'zi ergash gaplarning sintaktik funksiyasi ularning gap bo'lagiga o'xshash ekanligini ko'rsatadi: ergash gaplarning ayrimlari jihatdan gap bo'laklariga mos keladi. Masalan, payt, sabab, maqsad, o'rin, daraja-miqdor hollariga o'xshash holatda bo'ladi: 1. Inson yolg'on gapirgani uchun ichkarida iztirob chekmayaptimi, demak, allaqachon yolg'onga ko'nikkan, uni qabula qilgan. 2. Mirazim shunday o'ylar bilan boshi g'ovlab turganda, Zahro ovqatga chaqirib ketdi. (U.H.) 3. Qancha hurmat qilsang, shuncha hurmat topasan.

Lekin ayrim ergash gaplar gap bo'laklariga mos kelmaydi. Masalan, shart, chog'ishtirish-oxshatish, natija kabi ergash gaplar: 1. Agar qo'ylarni qayerga yashirganingni aytmasang, go'shtingni itlarim nimalaydi. 2. Xuddi o'latga chalingan parrandadek, bo'yni ozg'in tizzalari ustida qotdi. 3. Ular shunchalik ko'p va emin-erkin o'tlab yurishardiki, bu narsa qishloqda besh-o'nta qo'yni ortidan tayoq ko'targan ikki bola chopib yurishini ko'rishga odatlangan Yusufga juda g'ayritabiyy va ajoyib tuyulardi. (U.H.)

Gap bo'laklari ma'lum bir tushunchani ifodalab, so'z orqali berilsa, ergash gaplar tugallanmagan bo'lsa ham, ma'lum bir fikrni ifodalaydi va mantiq jihatdan boshqa bir gapga bog'lanib turadi, uni izohlaydi: O'rinli joyi shunda ediki, qo'l ostidagi rahbarlarning anchamunchasi almashtirildi. (U.H.)

Ergash gaplardagi mazmun gap bo'laklariga nisabatan ancha keng bo'ladi. Ergash gaplarga ma'lum bir fikrni turli xildagi ottenkalari bilan ifodalash mumkin bo'ladi. Ikkita misolni chag'ishtirib ko'raylik: Men ishonamanki, sen buni uddalaysan – Men seni buni uddalashingnga ishonaman.

Ergash gapli qo'shma gaplarda ergash gap bosh gap bilan quyidagi vositalar yordamida bog'lanadi:

1) ergashtiruvchi bog'lovchilar (shu sababli, chunki, shuning uchun, o'shaning uchun, nega desangiz, shundan so'ng, -ki, shu tufayli, negaki, go'yo va boshqalar) orqali bog'lanadi. 1. Boshingga ish tushgan, shuning uchun kelgansan. 2. Axir, ajabtovur, xilma-xil texnika atrofni shu darajada bosib ketdiki, odamlar istar-istamas tashqariga otilib chiqdilar. (U.H.)

2) fe'ling shart mayli formasi –sa orqali bog'lanadi: 1. Va kim ko'p to'lasa, o'shaning xizmatini qilaman. 2. Yusuf uyqusiragan ko'yi qarasa, o'zidan boshqa hamma, hatto ukalari ham choy ichib o'tiribdi. (U.H.)

3) ravishdosh shakllari orqali: 1. Yulduzlar bitta – bitta so'nib, ufq oqara boshladi. 2. Yusuf ularning kelishini kutib turmay, o'zi u tomon yo'naldi. (U.H.)

4) sifatdosh shakllari orqali: 1. Agar siz paydo bo'lmaganingizda, ehtimol, allaqachon ishlayotgan bo'lardim. (U.H.)

5) –sa ham yoki “-sa-da” orqali: 1. Boshida uchqur xayollar charx urib aylanca-da, Yusuf firmani birdaniga tark etolmadi. 2. Chorasizlikdan etgan yaralardan bag'rimiz qonga to'lib ketgan bo'lsa ham yuzimizga bahtiyorlik tabassumini chizmoqqa tirishamiz. (U.H.)

Qo'shma gapning tarkibidagi qismlar o'zaro bir-biriga intonatsiya va yordamchi vositalar bilan bog'lanadi.

Intonatsiya qo'shma gapning hamma turida ishtirok qiladigan universal vosita sanaladi. Qo'shma gapning shakllanishidagi ishtirokiga ko'ra, intonatsiya bosh va yordamchi rolni o'ynaydi. Intonatsiya bosh rolni o'ynaganda sintaktik aloqa faqat intonatsiya orqali ifodalangan bo'ladi. Yordamchi rol o'ynaganda boshqa vositalar ishtirok etadi.

Qo'shma gap qismlari o'zaro yordamchi vositalar bilan birikadi. Yordamchi vositalar o'z xarakteriga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Grammatik vositalar. Qo'shma gapni hosil qiluvchi grammatik vositalarga bog'lovchilar, ko'makchilar, yuklamalar, kelishik shakllari kiradi.

2. Leksik-grammatik vositalar. Qo'shma gapni tuzishda xizmat qiluvchi leksik-grammatik vositalarga sifatdash, ravishdash, harakat nomi, shart fe'li, buyruq fe'li shakllari kiradi.

3. Leksik vositalar. Maxsus leksik vositalarning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) qo'shma gaplarni hosil qilishda kirish va kiritma konstruksiyalar ishtirok etadi. Ular izohlash, qiyoslash munosabatini ifodalaydi. Lekin bu narsa Qalandarovning taftini bosolmadi, aksincha, yuragiga o't yoqildi. (A.Q.)

2) payt munosabati ifodalangan qo'shma gaplarda shundan buyon, shundan keyin, shu paytda, shunda, unda so'zlari qo'llanadi.

3) qo'shma gapni tuzishda olmoshlarning, asosan, ko'rsatish va nisbiy olmoshlarning roli bor. Shunday ayollar bo'ladi: ular ishqni e'tiqod kabi muqaddas tutadi.(O.)

4) qo'shma gapning har ikki qismida bir xil vazifa yoki har xil vazifadagi so'z takrorlanadi: Mening domlam yo'q, domlam ikki ko'zim .(A.Q.)

6) deb orqali bog'lanadi. Bu yordamchi ko'chirma gap va aftor nutqini bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladi. Shuning bilan birga, maqsad, sabab ergash gaplar bilan bosh gapni bog'lash uchun xizmat qiladi. Masalan: Bir eshitdimki, ko'chibdi deb; bir eshitdimki, qo'lga tushibdi deb. (A,Q) Tarxon ko'rsin deb, olovni yuzimga tutdim.

Ergash gap orqali ham ma'lum ma'no ifodalanadi, bu ayniqsa, ergash gap mustaqil shaklda bo'lganda yorqin ko'rinadi. Shu bilan birga, ergash gapning kesimi tobe shaklda bo'lganda ham bu xususiyat saqlanadi. Shuning uchun ham tobe shakldagi kesim tarkibiga mustaqil kesim shakllariga xos elementlar qo'shilib kela oladi: Turmush qurganimdan keyin-ku, juda ham serqatnov bo'lib qoldi.

Ergash gapning egasi bosh kelishik shaklida bo'lgan so'z turkumlari orqali ifodalanadi va bosh gap egasidan farqlanib turadi. Bosh gap bilan egasi umumiy bo'lgan konstruksiyalar sifatdash va ravishdash, shart va to'siqsiz konstruksiyali murakkab gapni tashkil etadi: Bektemir shu kungacha

qo'li ishga tegmaganidan afsuslandi.(O.) Ko'krakdan oqqan qonga belanib yotsa ham, u fikran, ruhan jangda-kurashda edi. (O.)

Ergash va bosh gaplarning egasi bir xil bo'lishi ham mumkin. Ammo bu holda ega har ikki gapda aynan yoki almashi takrorlanadi: Asqar ota unig ot choptirishini ko'rib shunchalik zavqlanib ketdiki, otiga ustma-ust qamchi bosganini o'ziam bilmay qoldi.(A.Q.)

Egasi umumiy bo'lgan qurilmalar uyushiq kesimli sodda gapni tashkil etishi mumkin: Obidjn akasini bu ketishi ilgarigi ketishidan emasligini sezar edi, shuning uchun xayrlashganda yig'lamadi.(A.Q.)

Ayrim ergash gaplar to'liqsiz gap shaklida bo'lib. Bosh gapdan farqlanuvchi egasi ifodalanmay qolishi mumkin: Agar ijizat bersangiz, shu ishni bajarib qo'ya qolsak... (A.Q.)

Egasi mavjud bo'lmagan ayrim ergash gaplar doim shu shaklda qo'llangani uchun ergash gaplikdan chiqadi va bir xil shaklda qo'lanuvchi barqaror birikma shaklini oladi...lozim bolsa, kechalari oydinga ham ishlar edi. (A.Q.) Ammo shuni ham hisobga olish kerakki, tarkibida egasi bo'lgan har qanday sintaktik qurilma ham ergash gap sanalavermaydi. Buning sababi tarkibida egasi bo'lgan konstruksiyalarning semantikasi va vazifasidagi o'zgarishdir. Bunday vaziyatda esa faqat shklan bo'lib qoladi.

Ergash gaplarning ega va kesimi o'zaro shaxs va sondagi munosabatiga ko'ra ikki xil bo'ladi: ega va kesimi moslashgan ergash gap;ar va ega va kesimi moslashmagan ergash gaplar.

Ega va kesimi moslashgan ergash gaplarning kesimi aniqlik, shart, buyruq-istak fe'llari bilan ifodalanadi. Ega va kesimi shaxs-sona moslashmagan ergash gaplarning kesimlari sifatdosh, ravishdosh va harakat nomi orqali ifodalanadi. Ammo u bilan ergash gap so;z birikmasiga aylanmaydi; ma'lum fikr, maqsadni ifodalashi, kesimning shakllanganligi bilan gap hisoblanadi. Kesimining tobe shaklda kelishi va boshqa bir gapni izohlashi bilan ergash gap bo'la oladi. Ayrim hollarda kesimi sifatdosh shaklida bo'lgan ergash gaplarning egasi kesim tarkibidagi egalik formanti orqali moslashishi ham mumkin: men ishga borganimda, sen ishga borganingda kabi. Agar egalar ifodalanmagan bo'lsa, birinchi va uchinchi shaxslarda egalik qoshimchalarinng bo'lishi talab qilinadi, egalik qo'shimchasi ergash gapning egasini aniq ko'rsatib turadi: borganimda u erda yo'q edi kabi.

Ammo kesindagi egalik affiksi ko'pincha ifodalanmaydi bu hol, birinchidan, uchinchi shaxsda egalikning umumiy mazmunga ta'sir etmagan holda tushirilishi bo'lsa, ikkinchidan, egalarning ifodalanishi yoki ularning mavjudligi umumiy kontekstdan ifodalanib turadi. Umuman hozirgi o'zbek tilida kesim tarkibida egalik affiksini ifodalanmasligi ko'p uchraydi.

Ergash gaplar mazmuniga ko'ra, asosan darak yoki istak-shart bildiruvchi buyruq gaplar shaklida bo'ladi. Ergash gaplaring so'roq gaplar tipidagi ko'rinishlari kam uchraydi: Men nima

qilibmanki, kolkozni opichlab katta qilgan odamlar qatori qoshchinorning ho'jayini bo'laman?
(A.Q.)

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ayrim olingan sodda gaplar bilan o'xshashlik va farqli tomonlarga ega. Ular o'rtasidagi o'xshashlik quyidagilardan iborat: gap bo'laklarining ishtirok etishi, so'z birikmalarining mavjudligi, ega-kesim munosabatlarining bo'lishi. Farqli tomonlari shundaki, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar ayrim olingan sodda gaplarga nisbatan mustaqilligini yo'qotgan bo'ladi, fikriy, intonatsion tugallikni to'liq ifodalamaydi.

Demak, gapni tashkil etgan sodda gaplar mazmuni, grammatik qurilishi va intonatsiyasi bilan alohida qo'llanuvchi mustaqil sodda gaplardan farq qiladi. Ergashgan qo'shma gaplar o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapga ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi birliklar, olmoshlar, nisbiy so'zlar, ko'makchili qurilmalar bilan bog'lanadi. Ergash gap bosh gapdan oldin ham, bosh gapdan keyin ham kelishi mumkin.

III bob

Ergash gapli qo'shma gaplarning semantik tadqiqi

3.1. Izohlash munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Qo'shma gap til sintaktik sathining oliy birligidir. Sodda gap ham sintaktik sath birligi hisoblansa-da, u qo'shma gapga qaraganda anchayin ixcham birlikdir. Qo'shma gap sodda gapdan, eng avvalo, mazmun sig'imining kattaligi, mazmuniy-sintaktik tuzilishining o'ziga xosligi, murakkabligi bilan farqlanadi. Albatta, har ikki gap turi — sodda gap ham, qo'shma gap ham muayyan hukm ifodachisi sifatida mavjud bo'lsa-da, tilning kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lishday eng muhim vazifasi bevosita gaplarda namoyon bo'lsa-da, sodda va qo'shma gaplar tuzilishi va mazmuniy tarkibi hamda bu tarkibni yuzaga keltiruvchi uzvlar munosabati ularning har birida mutlaqo o'ziga xosdir. Mantiq fani nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, sodda gaplarda asosan sodda hukm, qo'shma gaplarda esa murakkab hukm ifodalanadi.

Qo'shma gap bir sodda gaplarning ohang, mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishi orqali yuzaga keladi. Bunda sodda gaplar o'rtasida turlicha bir-birini taqozo qiluvchi munosabatlar bo'lishi mumkin. Qo'shma gapning umumiy lisoniy mohiyati uning sodda gap bilan o'zaro munosabatida ochiladi. Lisoniy qurilish jihatidan qo'shma gapning sodda gapdan farqi ma'lum darajada ravshan. Aniqrog'i, sodda gapda shakllangan kesim yoki kesimlik belgisi miqdori bitta bo'lsa, qo'shma gapda u birdan ortiq bo'ladi va birdan ortiq sodda gaplarning mazmun hamda grammatik jihatdan birikuvidan tashkil topadi.

Kesimlarning birdan ortiqligidan tashqari, har bir qo'shma gapda ifodalanayotgan birdan ortiq fikr, axborotning o'zaro zich munosabati, gaplararo grammatik taqozo etuvchilik hamda intonatsion yaxlitlik kabilar ham bu sintaktik qurilmalarning qo'shma gapligini ta'minlaydi.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplarning o'zaro munosabati xususida N. Mahmudov shunday yozadi: "Ta'kidlash lozimki, voqealar o'rtasidagi mazmuniy munosabatlar benihoya murakkab va xilma-xil. Bunday murakkab munosabatlarning ifodasi uchn, ayniqsa, ergash gapli qo'shma gaplar qulay. Ammo qo'shma gaplarning boshqa tiplarida ham voqealar o'rtasidagi munosabatlar ifodalanadi."¹

Turkiy tillar sintaksisi bo'yicha chuqur tadqiqotlar olib H. Gadjiyeva ham bunday gaplarda mantiqiy tobelik mavjud bo'lishini ta'kidlaydi². German Paul shunday yozadi: "Biz shuni aniqladikki, hatto mustaqil gaplar ham bir-biri bilan aloqaga kirishib, tobelanishdan iborat ma'no nozikligiga ega bo'ladi"³. Mavzuni chuqur tadqiq qilgan M. Cheremisina va T. Qolosoalar yuqoridagi fikrni qo'llab-quvvatlab, bog'langan qo'shma gap qismlarining tilshunoslar tomonidan juda ko'p ta'kidlanayotgan tengligi noto'g'ri ekanligini aytadilar⁴.

Tilshunos I. Azimov qo'shma gaplarni mazmuniy jihatdan bir necha guruhlariga bo'lib o'rganishni tavsiya etadi.⁵

Shu asosda ergash gapli qo'shma gaplarni o'rganishda ular ifodalayotgan mazmuniy munosabatlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Qo'shma gaplarni quyidagicha tasnif etishni tavsiya etamiz: 1. Izohlash munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar. 2. Payt munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar. 3. Sabab munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar. 4. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar. 5. Shart munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar. 6. Maqsad munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar.

Izohlash munosabatini ifodalovchi ergashgan qo'shma gaplar mazmunini izohlash munosabati tashkil etadi. Bu guruhga izohlash ma'nosini ifodalovchi ega, kesim, to'ldiruvchi, aniqlovchi, ravish, o'rin ergash gapli qo'shma gaplarni kiritish mumkin. Chunki bunday gaplarning har birida asosiy (yetakchi) gapdagi biror bo'lakning ma'nosi izohlanadi.

Ega ergash gaplar bosh gapdagi ega vazifasida bo'lgan olmoshning ma'nosini izohlab keluvchi gaplardir. Bu xil ergash gapli qo'shma gaplarning mazmuni konkret harakat-holat, xususiyatarga oid bo'ladi.

Ega ergash gap bosh gapdan so'ng keladi. Bu xil qurilmalarda asosiy mazmun ergash gapda ifodalanadi, bosh gap esa asosiy fikrni anglashga tayyorlaydi, unga diqqatni jalb etadi. Ega ergash gap –ki bog'lovchisi yordamida bosh gap bilan bog'lanadi. Bunday ergash gap bosh gap

¹ Nurmonov A., Mahmudov N. va b. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. T., 1992. 220-bet.

² Гаджиев Х., Серебренников В. А. Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. М., 1986. С.99

³ Пауль Г. Принципы истории языка. М., 1960. С177.

⁴ O'sha yerda. 75-bet.

⁵ Azimov I. Qo'shma gaplar tasnifiga doir// O'zbek tili va adabiyoti, 2005y, 5-son. 51-bet.

tarkibidagi ega vazifasida bo'lgan shu, shu narsa, shunisi kabi olmoshlarning ma'nosini izohlaydi: Hozirdanoq shu narsa ko'rinib turibdiki, dangasalik, ayyorlikni bilmaydigan kishiga o'xshaysiz. (A.Q.)

Ushbu gapda bosh gap tarkibida shu narsa olmoshi qatnashgan. Ergash gap esa ana shu olmoshning noaniq bo'lgan ma'nosini izohlagan: dangasalik, ayyorlikni bilmaydigan kishiga o'xshashingiz ko'rinib turibdi.

Ega ergash gapli qoshma gaplarda ko'pincha bosh gap tarkibidagi ma'nosi izohlanayotgan olmosh yashirinadi: Bundan chiqdiki, biz zolim boy ekanmiz-da. (A.Q.)

Bu gapda esa bosh gap tarkibida ma'nosi izohlanayotgan so'z yashiringan holda kelgan. Bunday so'zning mavjudligi gapning ma'nosidan anglashilib turadi. Agar bu so'zni tikkalamoqchi bo'lsak, bu o'rinda shu narsa degan olmosh bor ekanligi anglashiladi.

Ega ergash gaplar ba'zan bosh gapga –mi so'roq yuklamasi yordamida bog'lanishi kuzatiladi: Eslaringda bormi, bir yili men bir kunda sakkiz yuz qirq olti kilogramm paxta tergan edim! (A.Q.)

Mazkur holatda qo'shma gapning turi haqida agar bir oz yuzaki qarasak, yanglishish mumkin. Chunki bu erda qo'shma gap qismlari hech qanday bog'lovchilarsiz bog'langandek ko'rinadi. Biroq gapning ma'nosiga e'tibor bersak tobelanish, izohlash munosabati mavjudligi anglashiladi. Birinchi qism aytilishi bilan uning mazmuni mavhum ekanligi, binobarin, ushbu mavhum ma'noni aniqlashtirish zarurligi seziladi. Bu esa birinchi gap bosh gap, ikkinchi gap esa ergash gap ekanligini anglatadi. Bosh gap bilan ergash gap o'zaro –mi so'roq yuklamasi orqali bog'langan.

Ega ergash gap bosh gapga –sa shart mayli qo'shimchasi yordamida ham bog'lanadi. Bunda bosh gap tarkibida u, o'sha, shu olmoshlari, ergash gap tarkibida esa kim, nima, kimki olmoshlari qatnashadi: Kim birovga shuqur qazisa, uning o'zi yiqiladi. Qozonga nima tushgan bo'lsa, cho'michga ham o'sha chiqadi.

Yuqoridagi gaplarda qo'shma gap qismlari bir-biri bilan nisbiy so'zlar vositasida bog'langan. Har ikki qism tarkibida ishtirok etuvchi bunday bo'laklar havola bo'laklar deb ham yuritiladi.¹

Bunday bo'alaklar har ikki qism tarkibida kelib, ular orqali anglashiladigan ma'noni aniqlashtirishga yordam beradi.

Ega ergash gapning egasi vazifasida qo'llangan kim olmoshi ma'noni kuchaytirish, diqqat shu so'zga jalb qilinganini ko'rsatish maqsadida takrorlangan holda ishlatilishi mumkin: Kimda-kim No'monhoji Qalandarovning xo'jaligi tugatilsin desa, qo'l ko'tarsin. (A.Q.)

Ergash gap tarkibida ishlatilgan kimda-kim olmoshi ma'noni izohlabgina qolmay, balki gap orqali yuzaga chiqadigan ma'noni kuchaytirishga ham yordam bergan.

Ba'zi holatlarda otlashib kelgan ayrim so'zlar ega ergash gap orqali izohlanadi: Shunisi qiziqki, hali kelmasdan turib ketish g'amiga tushamiz, uka. (A.Q.)

¹ Фуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 198-бет.

Bunda bosh gaplarda qo'llangan shunisi, shunaqasi kabi so'zlar aniqllovchi ergash gaplardagi olmoshlarning substantivlashishidan kelib chiqqan. Shuning uchun ham bu xildagi ergash gaplar bosh gapga –ki vositasida birikadi.

Kesim ergash gaplar bosh gapdagi olmosh bilan ifodalangan kesimni izohlab, uning ma'nosini ochib beradi. Ergash gaplarning bu tirida asosiy fikr, maqsad ergash gap orqali ifodalanadi, butun ergash gap bosh gapga nisbatan mantiqan kesim bo'ladi.¹

Bosh gapning kesimi ko'rsatish olmoshi orqali ifodalanib, bu olmosh kesimining ma'nosi ergash gapda ochiladi. Shunisi xarakterliki, bosh gap ko'p o'rinlarda ergash gapni mantiqan izohlaydi, unga baho beradi, uni xarakterlaydi:1. Talabim shuki, xonalar keng, yorug' bo'lsin. (O.) 2. Kulgilisi shuki, boyagina Rashidning ustiga hezlanib bostirib kelayotgan odam endi uning ostida edi.(U.H.)

Keltirilgan misollarda –ki bog'lovchisi ergash gap bilan bosh gapni bog'lash uchun xizmat qilgan. U bosh gapning tarkibida qo'llangan bo'lib, kesim vazifasidagi so'zning ma'nosi umumiy-noaniq ma'nodir. Bu noaniq ma'no ergash gap orqali aniqlashtiriladi. Birinchi gapda talabning aynan nima ekanligi ergash gap orqali oydinlashadi: xonalar keng, yorug' bo'lsin. Ikkinchi gapda kulgili narsa nima ekanligi ergash gap vositasida bayon qilinadi: boyagina Rashidning ustiga hezlanib bostirib kelayotgan odam endi uning ostida edi.

Bosh gapda kesim vazifasida qo'llangan bu so'zlar mustaqil kesimlar kabi shaxs ko'rsatkichiga ham ega bo'ladi: Bo'ladigan gap shuki, kambag'allar majlis qilib sizni kapsanchilar qishlog'idan badarg'a qilishga qo'l ko'tarishdi. (A.Q.)

Kesim vazifasida keluvchi har bir olmoshning o'z ma'nosi va vazifasi bor: shu olmoshi qo'llanganda eganing ma'nosi ergash gap mazmuni orqali izohlanadi, aniqlanadi, ergash gap xulosa, natija ma'nosini ifodalaydi: 1. Maqsadimiz shuki, hamma baxtli bo'lsin.

Ma'lumki, olmosh boshqa so'z turkumlaridan lug'aviy ma'noga ega emasligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun olmosh so'z turkumi ayrim adabiyotlarda ichi bo'sh so'lar deb ham yuritiladi.² Kesim ergash gapning kesimi shuki olmoshi bilan ifodalanganda bosh gapdagi noaniq ma'no yana ham mavhumlashgani kuzatiladi. Ergash gap ana shu ma'noning tushunarli tarzda yuzaga chiqishini ta'minlaydi: Xulosa shuki, yaxshisi ustoz, yo'g'-e, Tursunovga yaqinlashmaydi.(U.H.)

Bosh gapning kesimi vazifasida shunda va shunday olmoshlari kamroq qo'llanadi. Shunda olmoshi ishlatilganda kesim ergash gap bosh gap egasining mazmunini izohlaydi. Bunday ergash gapning bosh gapi ergash gap mazmunini baholamaydi, balki asosiy fikrni ifodalaydi. Shuning uchun bosh gap ko'pincha yoyiq gap bo'ladi: 1. Hamma gap shundaki, bir sentner paxtani bir

¹ Ғуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 201-бет.

² Ғуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 218-бет.

mehnat kuniga tushirish mumkin.(A.Q.) 2. Qizig'i shundaki, o'ttiz besh yilning narisidagi gaplar Amirga tushida ayon bo'libdi. (U.H.)

Bosh gapning kesimi shunday olmoshi bilan ifodalanganda, ergash gap bosh gap egasining xususiyati, belgisi haqida xabar beradi: Vaziyat shundayki, hamma og'irlik menga tushgan.

Bosh gapning kesimi vazifasida keluvchi ko'rsatish olmoshi bo'lmoq, edi, iborat so'zlari bilan birga kelishi mumkin. Bu holda iborat so'i o'zidan oldin kelgan olmoshni chiqish kelishigida bo'lishini , bo'lmoq, edi, -dir shakllari esa bosh va chiqish kelishiklarining birida bo'lishini talab qiladi. Bunda bo'lmoq va edi fe'llari bosh gapdagi xususiyat va holatning o'tgan va hozirgi zamonda ro'y berishini ko'rsatish uchun qo'llanadi. Bu vositalarsiz yoki iborat so'zi kelgan kesimlar xususiyat yoki holatning hozirfgi amonda ro'y berishi, shu belgining hozir mavjudligini ko'rsatadi: 1.Suhbatlarning oqibati shu bo'ldiki, Qalandarov obkomga uchramay rayonga qaytdi. 2.Majlisda ko'riladigan masalalarning muhim tomoni shundan iboratki, Baqaqurilloqdagi cho'l erlarni suvga serob qilish muhokama qilindi. (A.Q.) 3. Natija shu bo'ldiki, uni birov avtobusga o'tirganini aytdi. (U.H.)

Ayrim o'rinlarda bosh gapning olmoshdan ifodalangan kesimi yashiringa bo'lishi mumkin: Men yaxshiroq bilganimki, biz hammahalla edik. (A.Q.)

Kesim ergash gapning bu turi bosh gapning egasiga diqqatni jalb etish zarur bo'lganda qo'llanadi, kesim ergash gap bosh gapga nisbatan mazmunan kesim bo'ladi-eganing xususiyat va holati haqidagi hukm, tasdiq yoki inkorni ifodalaydi.

Ba'zi holatlarda bosh gapning kesimi olmosh bilan ifodalanmaydi. Biroq bu kesim garchi mustaqil so'zlar bilan ifodalangan bo'lsa ham, uning ma'nosi noaniq bo'ladi: 1. Ammo ne yoziqki, qizimiz ham dardmand bo'lib tug'ildi. 2. Ne ko'rgulikki, qarama-qarshi tomonlarnig har ikkisi ham mening o'zim. (U.H.)

Mazkur faplarda bosh gapning kesimi birinchi gapda ne yozuqki so'zi bilan, ikkinchi gapda esa ne ko'rgulikki birligi bilan ifodalangan.

Aniqlovchi ergash gaplar bosh gapda tarkibidagi ot yoki olmosh orqali ifodalangan biror bo'lakning belgi-xususiyatini aniqlab keladi.

Aniqlovchi-izoh ergash gaplarda ma'lum predmetlarning belgi-xususiyati yuzasidan fikr yuritiladi, aniqlovci ergash gap ma'lum predmetning belgi-xususiyati haqida izoh beradi va shu yo'l bilan bosh gapning mazmunini to'ldiradi.¹ Aniqlovchi izoh ergash gap har vaqt bosh gapdan so'ng keladi. Bu xil ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi yordamida bog'lanadi: 1. Tog'ri, ba'zan hayotda shunday qismat egalariga duch kelasanki, ular haqida bir nima demoqqa ojjiz qolasan. 2. O'ylay-o'ylay shu xulosaga keldiki, odamzod, avvalo o'z davrining farzandi ekan. (U.H.)

¹ Ғуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 229-бет.

Keltirilgan birinchi misolda aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan –ki bog'lovchisi yordamida bog'langan. Shuning uchun ham bosh gapdan oldin joylashgan. Aniqlovchi ergash gap bosh gap tarkibidagi shunday olmoshi ma'nosini izohlab kelgan. Shunday olmoshi bosh gap tarkibidagi to'ldiruvchiga bog'langan bo'lib, ergash gap mana shu to'ldiruvchining belgisini aniqlashga xizmat qilgan.

Keltirilgan ikkinchi misolda ham aniqlovchi ergash gap bosh gap bilan –ki yordamida bog'langan bo'lib, bosh gapdan so'ng joylashgan. Bosh gap tarkibida qatnashgan shu ko'rsatish olmoshi mazmunan noaniq bo'lganligi uchun uning mazmunini oydinlashtirish talab etiladi. Aniqlovchi ergash gap mana shu masalani aniqlashtirishga xizmat qilgan: “shu xulosa”- qanday xulosa ekanligi mavhum, ergash gap mana shu mavhumlikni konkretlashtiradi- “odamzod o'z davrining farzandi ekan”.

Shuningdek, bosh gap tarkibida shunday, bunday, bu, u, uning olmoshlari bo'lib, ergash gap bu olmoshlar orqali aniqlanmish otning ma'nosini izohlaydi, to'ldiradi. Bosh gapdagi olmoshlar aniqlovchi vazifasida, ergash gapdagi olmoshlar esa turli vazifalarda keladi:1. Sen shunday bir ish qilginki, hamma sendan mamnun bo'lsin.

2. Shunday joyga o'q tushibdiki, u yoqqa er ostidan borishga ham yuraging dov bermaydi. (O.)

Ergash gap tarkibidagi olmoshlar tushirilgan holda kelishi mumkin. Bu holatda qismlarda mustaqillik kuchli bo'ladi: 1. Bu shunday davr ediki, ovqatim ham, uyqum ham kitob...2. Bi shunday tushunish ediki, butun hayotiga tatirdi. (U.H.)

Bosh gap tarkibidagi olmosh ko'pincha otga, ba'zan sifatga bog'lanadi. Otga bog'langanda predmetning belgisi, sifatga bog'langanda shu sifatning belgi darajasi ifodalanadi. Mazmuni izohlanayotgan olmosh gapning egasi, to'ldiruvchi kesimga bog'lanadi, bu holda ana shu boshqarayotgan ot yoki sifatning ma'nosini ochadi: Ayni paytda, hukumat ishlari, umuman davlatni boshqarish shunday murakkab ishki, boshboshdoqlik salbiy oqibatlariga olib kelishi muqarrar.

Ba'zi aniqlovchi ergash gaplarning tarkibidagi olmosh ham, bosh gap tarkibidagi olmosh ham qatnashmasligi mumkin. Ammo ergash gapni bosh gapga bog'lovchi –ki bog'lovchisi saqlanadi: Odam borki, qolur undan yaxshi ot, odam borki, qolur undan o'hu dod.

Aniqlovchi ergash gaplarning bir tipi bosh gapdan oldin keladi, bosh gap tarkibidagi biror otni izohlaydi, aniqlaydi, aniqlanmish ot ergash gap bilan yonma-yon keladi: 1. Va kim ko'p to'lasa, o'shaning xizmatini qilaman. 2. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi. (U.H.)

Keltirilgan birinchi misolda ergash gap bosh gap bilan –sa shart mayli yordamida birikkan bo'lb, ergash gap bosh gapdan keyin joylashgan. Aniqlovchi ergash bosh gap tarkibida qo'llangan o'shaning olmoshining mazmunini ochib berishga yordam beradi.

Ikkinchi misolda ham ergash gap bosh gap bilan –sa shart mayli yordamida birikkan bo'lib, ergash gap bosh gapdan keyin joylashgan. U bosh gapdagi shu ko'rsatish olmoshining ma'nosini yoritib kelgan.

Aniqlovchi ergash gapning bu tipi o'zbek tilining o'ziga xos ichki xususiyatdan kelib chiqadi. Bosh gap tarkibidagi otning belgisi hukm yo'li bilan ifodalanadi, aniqlovchi gap tarkibida o'z egasi va kesimi bo'ladi.

To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap tarkibidagi biror bo'lakning (olmoshning, abstrakt otning, fe'l-kesimning) ma'nosini konkretlashtirish yo'li bilan bosh gapning mazmunini to'ldiradi. To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapdan so'ng kelib, unga analitik yo'l bilan bog'lanadi.¹

To'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap kesimi tarkibidagi –ki bog'lovchi orqali va bosh gap tarkibidagi shu nisbiy olmoshi orqali bosh gapga bog'lanadi, ergash gap ana shu olmoshning ma'nosini ochadi. Bu olmosh vositali to'ldiruvchi vazifasida keladi. Bunda quyidagi holatlar kuzatiladi:

1) vositasiz to'ldiruvchi vazifasidagi olmosh izohlanadi: Shuni istardiki, qasos shamshiri qonxo'r jallodning boshini olsa(U.) Shini ham aytib qo'yish kerakki, Anvarning dunyoga kelganini birdan bir tabrik etib suyungan shu Nodira edi.(A.Qod.)

2) vositali to'ldiruvchi vazifasidagi olmosh izohlanadi: 1. Shundan bilamizki, mushtumzo'r tipirchilab qoldi. (A.Q.) 2. O'rinli joyi shunda ediki, qo'l ostidagi rahbarlarning ancha-munchasi almashtirildi.

Bosh gap tarkibidagi shu olmoshi ko'pincha ifodalanmaydi, bu holda uni mazmunan tiklash mumkin bo'ladi. Bunday qurilmalarda asosiy e'tibor kesimga qaratilib, ergash gap uni izohlaydi, to'ldiradi: 1. Yusuf ko'ib turardiki, uning javobi Shavkatga hatto ota o'limidan ham qattiqroq ta'sir qilgandi. 2. Ammo-lekin bilardiki, o'z e'tirofini hech qachon hech kimga oshkor qilolmaydi. (U.H.)

Keltirilgan birinchi va ikkinchi misollarda ergash gap bosh gap bilan –ki bog'lovchi vositasida bog'langan bo'lib, ergash gap bosh gapdan keyin joylashgan. To'ldiruvchi ergash gap izohlab kelgan olmosh bosh gap tarkibida mavjud emas, yani to'ldiruvchi ergash gap bosh gapda qatnashmagan olmosh ma'nosini izohlashga yordam bergan. Bu erda bosh gap tarkibida olmosh ishtirok etmagan bo'lsa-da, uni tikkalash mumkin. Solishtiring: Yusuf ko'rib turardiki- Yusuf shuni ko'rib turardiki; ammo-lekin bilardiki- ammo-lekin shuni bilardiki.

To'ldiruvchi ergash gaplar ko'pincha darak gap shaklida bo'lib, o'rni bilan so'roq gap holatida ham qo'llanishi mumkin: Tushundingmi, bu nima?

To'ldiruvchi ergash gapning bosh gapi tarkibida ko'pincha ega qatnashmasligi mumkin. Bunda uning kesimi shart, lozim, darkor kabi so'zlarnig harakat nomi bilan birikishidan hosil

¹ Ғуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 236-бет.

bo'ladi: 1. Ayni damda shu narsani ravshan anglardiki, yangi tarixni yozish bilan bog'liq orzulari endi uni bezovta qilmayotgandi. 2. Umid qiladiki, orzularining barchasi aynan shu yo'lda ro'yobga chiqadi. (U.H.)

Keltirilgan misollarda to'ldiruvchi ergash gaplar bosh gap bilan –ki bog'lovchi vositasida bog'langan bo'lib, ergash gap bosh gapdan keyin joylashgan. Mazkur misollardagi bosh gaplar tarkibida ega qo'llanmagan. Bu bosh gaplar shaxsi aniq gaplar hisoblanib, eganing uchinchi shaxs birlikdaligi kesimning shaklidan bilinib yuradi. Bu vaziyatda tinglovchining diqqati ish-harakat sub'yektiga emas, balki uning ob'yektiga, yani to'ldiruvchiga qaratilgan.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga –sa shart mayli shakli yordamida ham bog'lanadi. Biroq bu turdagi to'ldiruvchi ergash gaplar nisbatan kamroq uchraydi: 1. Agar bilsangiz, bu hayot-mamot masalasi. 2. Kimki bo'lsa dilozor, undan elu-yurt bezor.

To'ldiruvchi ergash gap bosh gapga –chi, -ku, -mi yuklamalari yordamida aham bog'lanadi. Bunda –chi yuklamasi buyruq fe'liga bog'lanib, harakat-holatni yuzaga chiqarishga undaydi.

-mi yuklamasi esa ergash gapga so'roq ma'nosini qo'shadi, ta'kidlashga xizmat qiladi: 1. Eshityapsanmi, bizning zardolilarni bolalar eyishyapti. 2. Esingizdami, qishda mana bu pechka ustiga joy qilib berar edingiz. (U.H.)

Bu turdagi to'ldiruvchi ergash gaplar bosh gapdan so'ng keladi. Ba'zan –mi yuklamasi orqali birikkan ergash gaplar tarkibida undalmalar ham ishlatilishi mumkin: Ishonasizmi, o'rtoq Qurbonov, shu operator yigitimiz bir oydan ortiq rayo'n o'rganlariga qatnab so'roq berdi. (A.Q.)

Bosh gapning kesimi bilmoq, ko'rmoq kai fe'llardan ifodalangan to'ldiruvchi ergash gaplar keng qo'llaniladi. Lekin bu xil to'ldiruvchili qurilmalar har doim ham to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gap bo'lavermaydi: Ko'rdingizmi, biz qanday zo'r ekanmiz.

O'rin ergash gap bosh gapdagi ish-harakatning bajarilish o'rnini bildiradi. O'rin ergash gaplar bosh gapga shart mayli, nisbiy so'zlar yordamida bog'lanib keladi va bosh gapdagi voqeaning qayerda bajarilgani haqida axborot beradi.¹ Masalan: Qayerda ahillik bo'lsa, o'sha yerda qut – baraka bo'ladi.

Ko'p hollarda o'rin ergash gaplar bosh gapga –sa shart mayli shakli yordamida birikadi. Bunday ergash gapda nisbiy so'z mavqeyidagi qayerda, shu yerda, shu erda, shu erdan, o'sha erda kabi olmoshlar ishtirok etadi: Qayerda kurash bo'lmasa, u erda o'sish bo'lmaydi.

Keltirilgan misolda ergash gap bosh gap bilan o'zaro nisbiy olmoshlar va –sa shart mayli vositasida bog'langan. Ergash gap bosh gapdan keyin kelgan bo'lib, u ish-harakatning bajarilish o'rnini izohlashga yordam bergan.

Ergash gapdagi nisbiy so'zlar qaysi kelishik shaklida bo'lsa, bosh gapdagi nisbiy so'zlar ham o'sha kelishik shaklida bo'ladi.

¹ Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. T., 1985. 117-bet.

Ravish ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qay tarzda bajarilishini ifodalaydi: 1. Ko'kraklari erga tegay-tegay deb, qushlar qanot qoqardilar. 2. Yusuf hayratlanib ulgurmay, shundoq tepasida, besh-olti metr chamasi narida o'ziga qarab turgan bahaybat hayvonni ko'rdi. 3. Inchunun Yusuf shu tobda ayolining yuzu-ko'zlariga tikilib o'tirishiga qaramay, yuragi yolg'izlik izg'irinida izillardi. (U.H.)

Ko'rinadiki, qo'shma gaplarning izohlash munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladigan turlari keng tarqalgan. Izohlash munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarga ega ergash gap, kesim ergash gap, aniqlovchi ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, o'rin ergash gaplarni kiritish mumkin. Bunday ergash gapli qo'shma gaplarning ergash gap qismi bosh gapdagi mavhum harakat-holatni aniqlashtirishga yordam beradi.

3.2. Payt munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Payt munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga payt ergash gapli qo'shma gaplar kiritiladi.

Payt ergash gap bosh gapdagi harakatning bajarilish vaqtini – paytini ko'rsatadi. Qo'shma gapdagi harakatlarning bir vaqt yoki turli vaqtda bajarilishi ham turlicha bo'ladi. Bir vaqtning o'zida bajariladigan harakat ham turli ottenkalariga ega bo'lishi, shuningdek, bajariladigan harakat ham har xil bo'lishi mumkin.¹

Ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatdan yo oldin bajariladi, yo keyin bajariladi: 1. Chavandoz devordan ag'nasa, bir yeri lat yeydi.(T.M.) 2. Choy ichib chiqsam, odamlar suddan chiqib kelishyapti. (U.H.)

Keltirilgan birinchi misolda payt ergash gap bosh gap bilan uchinchi shaxs birlikdagi –sa shart mayli shakli orqali bog'angan bo'lib, bosh gapdan so'ng joylashgan. Bunda ergash gap orqali anglashilayotgan payt ma'nosi bosh gap orqali yuzaga chiqadigan harakatdan keyin yuzaga chiqishi ifodalanadi: qachon chavandozning bir eri lat yeydi- devordan ag'anasa. Demak oldin chavandoz devordan ag'anaydi, keyin bir eri lat yeydi.

Keltirilgan ikkinchi misolda payt ergash gap bosh gapga birinchi shaxs birlik shaklidagi shart mayli shakli yordamida birikkan. Ergash gap orqali yuzaga chiqayotgan payt mazmuni bosh gap orqali anglashilgan harakatdan oldin yuzaga chiqqan: odamlar qachon suddan chiqib kelishyapti- qachonki “choy ichib chiqsam”.

Bu mazmun munosabatlarning har biri o'ziga xos grammatik belgilar, ergash gap kesimining zamon munosabati va maxsus so'zlar orqali ifodalanadi, ba'zan kontekstdan ayon bo'ladi. Bosh va ergash gaplardagi ish- harakat bir vaqtda ro'y beradi. Bosh va ergash gaplardagi harakat, holat bir vaqtda boshlanib, tugallanishi mumkin. Buni quidagi misollar orqali ham ko'rish mumkin: 1.

¹ Ғуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 247-бет.

Odamlar kuni kecha vafot etgan qaysi bir hamqishloqlarini yodga olib, uning o'limi tafsilotlarini gaplashib turgan bo'lsalar, Amir dabdurstdan ashula boshlab yuboradi. 2. Agar haqiqatan ham, ishlari yurishib ketsa, u do'ppisini osmonga otadi. (U.H.)

Keltirilgan misollarda bosh va ergash gaplar orqali yuzaga chiqqan ish-harakat bir paytning o'zida sodir bo'lgan. Birinchi gapni tahlil qilsak, har ikki sodda gap kesimidan anglashiladigan harakat bir vaqtning o'zida yuzaga chiqadi: bir tomonda “Odamlar kuni kecha vafot etgan qaysi bir hamqishloqlarini yodga olib, uning o'limi tafsilotlarini gaplashib turgan bo'lsalar”, ikkinchi tomonda “Amir dabdurstdan ashula boshlab yuboradi”. Ikkinchi misolda ham xuddi shunday holat kuzatiladi.

Bosh va ergash gaplardagi harakat, holatning ro'y berishi qisman bir-biriga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Bunday semantik munosabat quyidagi grammatik vositalar bilan ifodalanadi:

1. Ergash gapning kesimi –da qo'shimchasini olgan sifatdosh shaklida bo'ladi. Bu turdagi payt ergash gaplar ikki xil mazmunni ifodalaydi: a) ergash va bosh gap tarkibidagi harakat holat bir vaqtning o'zida ro'y beradi bu holda ergash bosh gapdagi zamon shakllari bir-biriga mos bo'ladi: 1. Tashqarida qahraron qish hukm surganda, ichkarida-ayol qalbida ham muzlardan tog'lar ko'tariladi. 2. Saida nonushta qilayotganda, Qalandarov deraza pardasi ostidan boshini tiqib qaradi. (A.Q.) 3. O'zi chopqillab katta bo'lgan qishloq yo'liga burilganda, Yusufning yuragi bir hapqirdi. (U.H.)

b) ergash gapdagi harakat-holat oldinroq boshlanib, boshqa gapdagi harakat-holat unga qo'shilib ketadi. Ergash gaplarning kesimidan anglashiladigan harakat-holat bosh gapdagi harakat-holatning bajarilishidagi boshlanish nuqtasi bo'ladi: 1. Qizi qoshiqlarni ko'tarib kirganda, ro'molining uchi bilan ko'zini artgancha oshxonaga chiqib ketdi. 2. Qiz orzu-havas ko'rolmagan onasining dashnom va zixnovlaridan o'lar holatga etganda, baxtiga, er islohoti bolib qoldi. (A.Q.)

2. Payt ergash gap bosh gapga shart mayli orqali bosh gapga bog'lanadi: 1. Bir kuni Sodiqjon maktabdan kelsa, ukalari bog'da ish boshlab yuborishibdi. 2. Yusuf uyqusiragan ko'yi qarasa, o'zidan boshqa hamma, hatto ukalari ham choy ichib o'tiribdi. 3. Yetib borib qarasa, Said bilan Mirazim uch kishiga qarshi “jangga”

kirishgan ekan. (U.H.)

3. Ergash gapning sifatdosh shaklida bo'lib, o'rin payt kelishigini olgan kun, payt, zamon, dam, mahal, vaqt so'zlari bilan birikib keladi. Bu turdagi ergash gapdagi harakat-holat o'tgan zamonda bajarib tugallanadi va shu vaqtning o'zida bosh gapdagi harakat ham ro'y beradi: 1. Teatr direksiyasi eshonni ishdan bo'shatgan kunlarda, Qalandarov uni bir oshnasinikida ko'rib qo'ldi. (A.Q.) 2. Traktor odam to'la aravani sudrab qo'zg'algan paytda, kattalar esonlik tilab yuzlariga fотиha surushdi. (U.H.)

-r, -ar affiksli sifatdosh orqali ifodalangan payt ergash gaplarning kesimlari to'liqsiz fe'l bilan qo'llanib, ish-harakatning o'tgan zamonda ro'y berganligini bildiradi. Ba'zan bu to'liqsiz fe'l kesim bilan birikib qo'llanishi mumkin: U terlab, bo'g'ilib choparkan, yana haligi so'z quloqlarida qayta-qayta yangradi. (U.H.)

Fe'lining –moqchi shakli ham ekan to'liqsiz fe'li bilan shu maqsadda qo'llanadi: Mirazim ko'ngliga g'ulg'ula tushub darhol saidga sim qoqqan edi, u chiqib ketgan ekan.

4. Ergash gapning kesimi kelasi zamon sifatdoshi shaklida bo'lganda payt ergash gapdan anglashilgan harakat holat tugallanmasdan turib bosh gapdagi harakat holat ro'y beradi. Demak, bosh va ergash gaplardagi harakat holatning yuzagi kelib chiqishi bir-biriga qisman mos keladi: 1. Traktor to'xtar-to'xtamas, hamma undan tezroq tushushga shoshildi. 2. Yusuf ularning oldilariga etar-etmas, tanasi qayrilayotgan tok qarsillab yiqildi. 3. Ikki piyola choy ichgudek fursat o'tar-o'tmas, oyoqlarining tagidn suv ariq bo'lib oqa boshladi. (U.H.)

5. Ergash gapning kesimi –dan shaklini olgan o'tgan zamon sifatdoshi shaklida bo'lib, beri, buyon ko'makchisi yordamida bosh gapga bog'langan payt ergash gaplar bosh gapdagi harakat holatning boshlanish davrini ko'rsatadi. Bu bilan ergash gapdagi harakat holat tugallanib, bosh gapga o'z o'rnini boshatib bema'iydi, balki har ikki gapdan anglashilgan mazmun barobar davom etadi: Seni, omon, ko'rgandan beri, Kozlarimga uyqi kelmaydi.

Payt ergash gapli qo'shma gaplarda bosh va ergash gaplardagi ish-harakat turli paytlarda vujudga keladi. Payt ergash gapning kesimidan anglashilgan harakat bosh gapning kesimidan anglanib turgan harakatdan so'ng yoki oldin yuzaga kelishi mumkin. Ergash va bosh gapdagi harakat holatning ro'y berishidagi ketma-ketlik normal bo'lishi, tezlik bilan biridan ikkinchisiga o'tishi, toki biri chegaralanishi mumkin.

Bosh gapdagi harakat holatning ergash gapdagi harakat holardan oldin ro'y berishi quyidagi grammatik shakllar yordamida shakllangan payt ergash gapli qo'shma gaplarda kuzatiladi:

1) kesimi ravishdoshning –guncha shaklida bo'lgan payt ergash gaplar:U o'tgan hafta o'qigan darslarini takrorlab menga aytib bergunmaguncha, unga hech qayerga boeishga, na tomoshaga va na o'yinga ruhsat bermayman.(S.A.)

2) ergash gapning kesimi –gunga shaklli sifatdoshga qadar ko'makchisini qo'shilishi bilan ifodalanadi: Odamlar qishloqdan chiqib ketgunga qadar, otishmalar bir oz to'xtatiladi.

3) Ergash gapning kesimi sifatdoshning –mas+dan shakli bilan ifodalanganda, ergash gapdagi harakat-holatning o'rnini bosh gapdagi harakat-holat egallashi mazmuni anglashiladi. Ba'zan bunday shakllangan ergash gaplarning kesimiga burun, oldin, avval kabi so'zlar qo'shilib keladi. Bosh va ergash gap orasidagi harakat-holatning tez almashinishini ko'rsatish uchun ergash gap kesimiga –oq yuklamasi qo'shilishi mumkin: Rotaning keti vagondan tushmasdanoq, saf bo'lish haqida komanda berildi. (A.Q.)

4) Ergash gapning kesimi –may shaklli ravishdosh bilan ifodalanadi. Bu paytda har vaqt inkor ma’nosi yuzaga chiqadi: Yusuf hayratlanib ulgurmay, shundoq tepasida, besh-olti metr chamasi narida o’ziga qarab turgan bahaybat hayvonni ko’rdi. (U.H.)

Bosh gapdagi harakat- holatning ergash gapdagi harakat- holardan so’ng ro’y berishi quyidagi grammatik shakllar yordamida shakllangan payt ergash gapning qo’shma gaplarda kuzatiladi:

1) ergash gapning kesimi o’tgan zamon sifatdoshiga –dan qo’shimchasining qo’shilgan shakli bilan ifodalanib, u keyin, so’ng so’zlari bilan birikib keladi: Pilla topshirilib, klub binosi bo’shagandan so’ng saida bir guruh yoshlarning yordami bilan klubni yaxshi bezatdi. (A.Q.)

2) payt ergash gap bosh gap bilan o’tgan zamon sifatdoshiga to’liqsiz fe’lning qo’shilishidan yuzaga chiqadi. Bunday vaziyatda bosh va ergash gapdagi harakat-holatning tez almashinishi mazmuni anglashiladi: Shu konsertdan qaytishda Sidiqjon gapni nimadan boshlashni bilmay turgan edi, Boltaboyning o’zi gap ochib qoldi. (A.Q.) Bu turdagi ergash gaplarning kesimidan so’ng ba’zan ham yuklamasi kelib, ergash va bosh gaplardagi harakatning tez almashinishi mazmunini yanada ta’kidlaydi.

3) Ergash gapning aniqlik mayli bilan ifodalangan kesimiga –mi yuklamasining qo’shilishi orqali hosil qilingan ergash gapdagi mazmun bosh gapdan ilgari yuz beradi, lekin ergash gapdagi harakat tezlik bilan bosh gapdagi harakat bilan almashadi. Bu xil gaplarda payt va shart mazmuni ifodalanadi: Uning miyasiga bir narsa o’rmashdimi, chiqara olmaysan. (U.H.)

4) Ergash gapning kesimi harakat nomining bilan ko’makchisi bilan birikuvidan tuziladi. Bunday par ergash gapl qurilmalarda ham bosh va ergash gaplardagi harakatning tez almashinishi kuzatiladi: Tojixon oyog’i uzangiga tegishi bilan, o’zini egarga olib otga qamchi bosdi. (A.Q.)

Ko’rinadiki, payt munosabatini ifodalovchi qo’shma gaplarga payt ergash gapli qo’shma gaplar kiritiladi. Payt ergash gap bosh gapdagi harakatning bajarilish vaqtini – paytini ko’rsatadi. Qo’shma gapdagi harakatlarning bir vaqt yoki turli vaqtda bajarilishi ham turlicha bo’ladi. Bir vaqtning o’zida bajariladigan harakat ham turli ottenkalariga ega bo’lishi, shuningdek, bajariladigan harakat ham har xil bo’lishi mumkin. Ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatdan yo oldin bajariladi, yo keyin bajariladi.

3. 3. Sabab-natija munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo’shma gaplar

Sabab-natija munosabatini ifodalovchi qo’shma gaplar o’z ichiga sabab-natija mazmunini ifodalovchi (sabab, natija, to’siqsizlik ergash gapli) qo’shma gaplarni qamrab oladi.

To’siqsiz ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunga nimadir to’siq bo’lishini ifodalaydi, ammo ergash gapdagi harakat-holat, maqsadning yuzaga chiqishiga monelik qilsa ham bosh gapdagi mazmun vujudga kelaveradi, ergash gapdan anglashilgan mazmun kutilgan natijaga olib

kelaveradi.¹ Masalan: 1. Odil aka har doimgi joyida bo'lsa ham, avvalgidek yonboshlab emas, balki tizzalarini omonatgina bukib, oyoqlarini iloji boricha o'ziga yaqin tortib o'tirardi. 2. O'zimiz eski-tuskilarni yamab, amal-taqal o'tirgan bo'lsak ham, qozonimiz kunda bir mahal qaynab tuibdi. (U.H.)

To'siqsiz ergash gaplarning qismlari mazmunan ancha mustaqil bo'ladi. Bunday gaplarning kesimining shart ergash gaplarga ham o'xshaydi. Ammo bunday vazifadagi shart fe'li shartlilikni ifodalamaydi, balki tamoman boshqa mazmun-to'siqsizlik mazmunini anglatadi. To'siqsiz ergash gap bosh gapga analitik-sintetik usul bilan bog'lanadi. Odatda ergash gapning kesimi shart fe'li yoki sifatdosha orqali ifodalanadi. Bunday hollarda ergash gapni bosh gapga bog'lash uchun yuklama, ko'makchilar ishlatiladi. Bosh va ergash gap orasida semantik munosabatlarning qanday bo'lishiga ko'ra ergash gapning kesimlari, ergash gap bilan bosh gapni bog'lovchi vositalar ham turlicha bo'ladi.

To'siqsiz ergash gaplarning hosil bo'lishida inkor shakllarining alohida o'rni bor. Ergash gapning kesimi inkor shaklida bo'lganida bosh gap kesimi tasdiq shaklida bo'ladi yoki aksincha, bosh gapning kesimi inkor shaklida bo'lganda ergash gapning kesimi tasdiq shaklida bo'ladi: U kelsa ham, Karim bormadi yoki U kelmasa ham karim bordi.

Tosiqsiz ergash gapli qo'shma gaplarda turli xil ma'no munosabatlari yuzaga chiqadi. Sof to'siqsizlik mazmuni ergash gap kesimi tarkibida ham yoki –da elementini qo'llash yo'li bilan ifodalanadi: Ko'kda momaqaldiroq tinmasa ham, picha-picha uxlab oldik,-dedi Asqar polvon salmoqlab. (O.) Boshida uchqur xayollar charx urib aylanca-da, Yusuf firmani birdaniga tark etolmadi. (U.H.)

Ergash gap mazmunini kuchaytirish uchun kesim tarkibiga –ki bog'lovchi qoshiladi va ergash gap tarkibida qancha, qanday kabi olmoshlar ishtirok etadi. Ona rozi-uning tunlari o'tsa hamki uyqusiz, bedor.

To'liqsiz ergash gapning ham yuklamasi orqali bosh gapga bog'langan turi xalq tiliga yaqin bo'lgani uchun ko'p gapda qo'llanadi. -da yuklamasi yordami bilan tuzilgan konstruksiyalar esa ko'proq adabiy tilga yozma nutqqa taaluqlidir.

Ergash gapning kesimi takrorlanib kelishi ham mumkin, takrorlangan kesim shakllarining biri tasdiq, ikkinchisi inkor shakldagi shart fe'li yoki buyruq fe'lida bo'ladi (aytsam-aytmasam, u bugun kelmaydi; aytay-aytmay u bugun kelmaydi) yoki takrorlangan kesimlarning birinchisi qismishart fe'lida bo'lib, ikkinchisi qismi esa buyruq fe'li, bunda har ikki qism tasdiq yo inkor shakldagi bo'ladi (kitobni olsa – olsin lekin daftarga tegmasin). Bunday ergash gaplarda intonatsiya kattadir: Men ularning betini ko'ray- ko'rmay, lekin barining ishi menga ayon.(O)

¹ Ғуломов А., Асқарова М. Кўрсатилган асар, 254-бет.

Nomunofiqlik endilikda biror predmet yoki tushunchaning bir xususiyati boshqa bir xususiyatiga nomunofiq ekani anglashiladi: Ular ancha yo'l bosib qo'yishganiga qaramay, yetib kelgan joylari havfdan yiroq emasdi. (A.Q.)

Bunday ergash gapning kesimi o'tgan zamon sifatdosh shaklida bo'lishi mumkin: 1. Amir zohiran boshqa bemorlardan hech-da ajralmasligiga qaramay, botinida ana shunday mantiqli, tag-tugli mushohadalar haligacha kechib turardi. 2. Har ikki tomon ham imkon qadar samimiy o'lishga, bir-birlari bilan judayam qadrli ekanliklarini bildirishga intilayotganliklariga qaramay, suhbat zo'raki chiqayotir. (U.H.)

To'liqsiz ergash gap payt munosabatini ifodalashi mumkin. Bunda ergash gap kesimi sifatdosh shaklida bo'ladi. Bunda ergash gap sifatdoshi o'tgan zamon shaklida bo'lib, -da qo'shimchasi va ham elementi yordami bilan bosh gapga bog'lanadi: Bu haqda Nosirov gapirgan, bu fakti tahlil qilib berganda ham, Saida chindan e'tibor qilmagan edi, hozir nihoyatda darg'azab bo'ldi. (A.Qh.)

Bir xil to'siqsiz ergash gaplarni payt ergash gaplardan farqlamoq zarur. Ergash gapning bu turida payt mazmunigina emas, to'liqsizlik mazmun munosabati ham ifodalanadi.

Ba'zan to'liqsiz ergash gaplarda shart mazmun ottenkasi ham bo'ladi. Bu xil ergash gaplarining kesimi shart fe'li orqali ifodalanadi va bosh gapga sintetik usul bilan bog'lanadi.

Ergash gap tarkibida xoh bog'lovchisining qo'llanishi to'siqsiz ottenkasini kuchaytiradi.

To'siqsiz ergash gapning ayrim turlari umumlashtirish mazmunini ifodalaydi: ergash gapda anglashilgan mazmun umumlashtiriladi, konkret bir hodisa bilan bog'lanmaydi. Bu xil ergash gaplarning tarkibidan nima, qancha, har qancha, qayerda, qayoqqa, har yerda kabi nisbiy olmoshlar va shu vazifadagi so'zlar bo'ladi.

Umumlashtirish mazmunini ifodalagan to'siqsiz ergash gaplarning kesimi ikki xil bo'ladi;

a) shart fe'li shaklida: ...Har qancha qiyinchilik bo'lsa – ustringga ol (A. Q.)

Kesimi buyruq fe'li orqali ifodalangan ergash gaplarda to'liqsizlik mazmuni kuchli bo'ladi. Bu xil ergash gaplar alohida intonatsiya bilan ajralib turadi.

Ayrim to'siqsiz ergash gaplarda qiyoslash mazmuni bo'ladi: ergash va bosh gapdagimazmun bir biriga qiyoslanadi, ammo ergash gapdagi harakat-holat bo'lishiga qaramay, bosh gapdagi harakat, holat ro'y berishi ifodalanadi. Bu xil to'liqsiz ergash gaplarning kesimi sifatdoshdan bo'lib, bosh gapga bog'lovchi vazifasida holda yoki taqdirda so'zlari yordami bilan bog'lanadi: Qalandarov uni, medsestra turgani holda, bir kasalni rayonga eltib qo'yishga majbur qilibdi. (A.Qh.)

To'liqsiz ergash gapning bu turi bilan bog'lovchisi yordami bilan ham bosh gapga bog'lanadi, bunda ergash gapning kesimi sifatdoshdan bo'ladi.

Bunday ergash gaplar yordamchi vazifasidagi yarasha so'zi bilan bosh gapga bog'lanishi mumkin.

To'siqsiz ergash gapning mazmuni bilan gap orasidagi zidlik, nomuvofiqlik mazmuni ularning kesimlarida ham ko'rinadi:

1. To'siqsiz ergash gapning kesimi bo'lishsiz, bosh bosh gap kesimi shaklda.
2. To'siqsiz ergash gapning kesimi bo'lishli, bosh gap kesimi bo'lishsiz.
3. Ayrim hollarda to'siqsiz ergash gapning ham, bosh gapning ham kesimi bo'lishsiz shaklda kelishi mumkin.

4. To'siqsiz ergash gap va bosh gap kesimining bo'lishli shakli ham uchraydi.

Kesimlari bir xil shaklda bo'lgan konstruksiyalarda to'liqsizlik mazmuni ayrim gap bo'laklarining ma'nosini va gaplarining umumiy mazmunini bir biriga ziq qo'yish, qiyoslash orqali ifodalanadi: 1. Boshida uchqur xayollar charx urib aylanca-da, Yusuf firmani birdaniga tark etolmadi. 2. Demak, g'oyalar har qancha ulug' bo'lmasin, vaqt o'tgan sayin ularga ulashmakli yollari o'zgarib borar ekan. (U.H.)

To'siqsiz ergash gaplarning tarkibida agar, agarchi, garchand, garchi mabodo kabi elementlar ergash gapni bosh gapga bog'lash bilan birga, ergash va bosh gap mazmunini bir biriga keskin zid qo'yish qiyoslash uchun xizmat qiladi.

To'siqsiz ergash gaplarning mazmuni bosh bosh gapdagimazmunga zid ekanligini yanada ta'kidlash uchun, bosh gap ammo, lekin, biroq, faqat, bari bir, har holda va boshqa yordamchilar bilan boshlanadi: Ikkovi bu munosabatni har qancha yashirishsa ham, bari bir ko'pga bormay mish-mish tarqaldi, Zulfiqarovning xotini eshitib qoldi.(A Qh).

To'siqsiz ergash gapning o'rni asosan bosh gapdan oldin bo'ladi. Ba'zan to'siqsiz ergash gap bosh gapdan so'ng yoki uning ichida keladi. Bu holatda to'siqsiz ergash gap bosh gapdan so'ng yoki uning ichida keladi. Bu holatda to'siqsiz ergash gap bosh gapning ayrim bo'lagiga bog'lanadi, agar ergash gap bosh gapdan so'ng kelsa, uning mazmuni susayadi.

Natija ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning natijasini, xulosasini ifodalaydi. Mazkur ergash gaplarning bosh gapidan sabab mazmuni anglashiladi, ergash gap esa shu sababdan kelib chiqadigan natijani ko'rsatadi. Shuning uchun ham natija ergash gapning o'rni qat'iy bo'lib, u har doim bosh gapdan keyin keladi.¹

Natija ergash gap bosh gapga analitik yo'l bilan bog'lanadi, ergash gapni bosh gapga biriktirish uchun bosh gap kesimiga –ki bog'lovchisi qo'shilib keladi. Shu bilan birga bosh va erash gapni bog'lash uchun bosh gap tarkibida shu qadar, shu darajada, shunchalik, chunon kabi so'zlar qo'llanadi. Ergash gap bu so'zlar o'rnida kelgan gap bo'laklarini tiklamaydi, balki shu bo'laklardan anglashilgan mazmun qanday natijalarga olib kelganini ko'rsatadi: 1. Dunyo o'yinlarining shartlari shu qadar shafqatsiz chiqdiki, oxiri hatto Yusufni o'z domiga tortib ketdi. 2. Sel shunchalik yaqin qolgan ediki, bechora cholning hayqirig'i bo'g'zidan chiqishga ulgurmadi.

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. II. Sintaksis. T., 1966. 450-bet.

Natija ergash gaplarning bosh gapi tarkibidagi nisbiy olmoshlar xarakteriga ko'ra ikki xil mazmunni ifodalab keladi:

Bosh gap tarkibida shunday olmoshi qo'llanilgan o'rinlarda ergash gap bosh gapdan anglashilgan ish-harakatning qanday bajarilishi, belgi-xususiyatning qanday ro'y berishi, qanday natijalarga olib kelishini ko'rsatadi: 1.Chanqoq shu qadar zo'r ediki, uyatni bosib ketgandi. 2. Hatto shu darajada ko'p ediki, behisob boyliklar orasidan unga havo etishmay qoldi. (U.H.)

2. Bosh gap tarkibida shuncha, shunchalik, shu qadar olmoshlari qo'llanganda ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning yuz berish miqdor-darajasining natijasini ifodalaydi: 1. Lekin endi bular shu darajada joniga tekkanki, o'zini qaysi ko'ngilochar o'yinga urishni bilmay qoladi. 2. Ichingizdagi ulkan ehtiros dunyo yuzini ko'rishga shu qadar zo'r berdiki, siz ruhiyat dengizi dolg'alarining ketma-ket hujumidan esankirab qoldingiz. 3. Zero, olam va odam shu qadar katta suratlarda o'zgarib bormoqdaki, ertaga vatan, kindik qoni to'kilgan tuproq, sadoqat degan tushunchalar qanday tushunilishi haqida bir nima deyish qiyin. (U.H.)

Ergash gapning mazmunini yanada bo'rttirib, ta'kidlash uchun ergash gaplar natijada, oqibatda so'zlari bilan boshlanadi: Zambarakning gumburlashidan haybatli bir guvillash hosil bo'ldiki, natijada bu yerda alohida to'pning ovozi butkul eshitilmay qoldi.(A.Q.)

Natija ergash gap tuzilishiga ko'ra aniqllovchi, ravish ergash gaplarga o'xshaydi. Natija ergash gapning ulardan farqi uning kelib chiqadigan natija haqida xabar berishidir.

Sabab ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan mazmunning sababini bildiradi.¹ Sabab ergash gaplarning bosh gap bilan munosabati ikki xil bo'lishi mumkin. Ayrim sabab ergash gapli qo'shma gaplarda sabab-natija munosabati ifodalanadi, bunda ergash gap sabab bo'lsa, bosh gap undan kelib chiqadigan natija hisoblanadi: 1. Yanagi qog'oz kelishida bormadim, boisi Dono momo bandalik qildi. 2. Shu daqiqadan boshlab bobosini avvalgiga qaraganda yana ham yaxshi ko'radi, sababi bobosi hozirgina tokchadan shokolad olib berdi. (U.H.)

Keltirilgan misollarda ergash gap bilan bosh gap sabab bog'lovchilari boisi, sababi yordamida bog'langan. Sabab ergash gap bosh gapdan keyin kelib, bosh gapdan anglashilgan mazmunning sababini ifodalab kelgan. Shuning uchun ham bosh gapdan keyin joylashgan. Birinchi kelgan gaplar-bosh gaplar natijani ifodalagan. Ikkinchi kelgan gaplar-ergash gaplar esa sababni bildirgan.

Sabab- natija munosabati. Sabab-natija munosabatini ifodalaydigan sabab ergash gaplar bosh gapdan oldin qo'llanadi. Bu xil ergash gaplarning kesimi tobe shakld bo'ladi va quyidagicha shakllanadi:

1) ergash gap bosh gap kesimiga qo'shilib kelgan uchun, sababli, tufayli ko'makchilari yordami bilan bog'lanadi. Bunda ergash gapning kesimi –lik va egalik qo'shimchasini olgan

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. II. Sintaksis. T., 1966. 456-bet.

o'tgan zamon sifatdoshi bilan ifodalanadi. Bunga sabab shuki, ergash gap orqali oldin bo'lib o'tgan harakat-holat anglashiladi, bosh gap esa uning natijasini ifodalaydi. ergash gap kesimi ot-kesim yoki fe'l kesim bo'lishi mumkin: Manzuraxon ertasi kuni kechqurun jo'naydigan bo'lgani uchun, holi o'tirish kunduzi soat birga tayinlandi. (A.Q)

2) ergash gapning kesimi –lik affiksi va egalik handa –dan elementini olgan sifatdoshdan bo'ladi. Bunday shaklli ergash gap gumon, taxmin ma'nolarini ifodalab kelganda –mi yuklamasini oladi: 1. Bir inson botinida yovuzlik ezguli ustidan g'alaba qozondimi, shuning o'zi o'sha zot uchun qaysi qiyomatdan kam.

2. Sillasi quriganidan, ko'z oldi qorong'ilashib ketdi. 3. Inson yolg'on gapirgani uchun ichkarida iztirob chekmayaptimi, , demak, allaqachon yolg'onga ko'nikkan, uni qabul qilgan. (U.H.)

Sabab-izoh munosabati. Sabab ergash gaplarning ikkinchi turida sabab ergash gap bosh gapga nisbatan izoh ma'nosini ifodalaydi. Bunda qoshma gapning ikkinchi qismi birinchi qismini izohlaydi, undan anglashilgan mazmunning ro'y berish yoki ro'y bermaslik sababini ko'ratadi. Shu sababli qo'shma gapning birinchisi qismi bosh gap, ikkinchi qismi esa ergash gap bo'ladi. Ergash gap bosh gapga chunki, negaki, zeroki, nainki bog'lovchilari yordamida bog'lanadi. Bu xil ergash gaplarning kesimi mustaqil shaklda bo'ladi. Ular shaklan mustaqill sodda gaplarga o'xshaydi. Ammo gaplar orasidagi semantik munosabat va oradagi tobelashtiruvchi bog'lovchi chunki uni ergash gapga aylantirdi: 1. U jon bilan chiqadi, chunki ehtiyoj odamzod tabiatiga tashlangan urug'. 2. Roppa-rosa soat oltida taqillashini kutmay eshikni ochaverasan, chunki ikkala qo'lim ham band bo'ldi. (U.H.)

Tobe bog'lochi chunki yordami bilan bosh gapga bog'langan sabab ergash gaplar analitik usul bilan bog'lanadi.

Negaki, nainki, sababki yoki zeroki kabi kabi bo'glovchi hamsabab ergash gapni tuzishda xizmat qiladi, ammo bunday konstruksiyalar kam uchraydi: 1. Majlisda o'tkazishmasa, xafa bo'lmayman. 2. Shu daqiqadan boshlab bobosini avvalgiga qaraganda yana ham yaxshi ko'radi, sababi bobosi hozirgina tokchadan shokolad olib berdi. (U.H.)

Sabab ergash gap bosh gapga –ki bog'lovchisi yordamida bog'lanishi ham mumkin. Bunday ergash gaplarning kesimi tarkibida shuning uchun, shu sababli kabilar qatnashishi mumkin: 1. Hammasi tuzoqmidiki, bugun Said unga ilinib o'tiribdi. 2. Uning ko'zlari qup-quruq ediki, boshiga tushgan musibat yig'idan baland, ko'z yoshdan kattaroq edi. (U.H.)

Keltirilgan misollarda bosh gap va ergash gap o'zaro –ki bog'lovchisi yordamida bog'lanib, bosh gapdan keyin joylashgan. Bu yerda sabab bog'lovchilari qatnashmagan. Biroq gap orqali yuzaga chiqayotgan sabab mazmunidan gapning sabab ergash gap ekanligi anglashiladi.

Solishtiring: Hammasi tuzoqmidiki, bugun Said unga ilinib o'tiribdi-Hammasi tuzoqmidi, boisi

bugun Said unga ilinib o'tiribdi. Uning ko'zlari qup-quruq ediki, boshiga tushgan musibat yig'idan baland, ko'z yoshdan kattaroq edi-Uning ko'zlari qup-quruq edi, chunki boshiga tushgan musibat yig'idan baland, ko'z yoshdan kattaroq edi.

Ko'rinadiki, sabab-natija munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar o'z ichiga sabab-natija mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplarni qamrab oladi. Bunday munosabat anglata oladigan ergash gapli qoshma gaplarga sabab, natija, to'siqsizlik ergash gapli qo'shma gaplarni kiritish mumkin.

3.4. Qiyoslash munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga chog'ishtiruv, o'lhov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar va qiyoslash semanikasini ifodalovchi boshqa gaplar kiritiladi.

O'xshatish ergash gaplar bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning boshqa bir harakat-holatga qiyoslashni ifodalaydi. Bunda ergash gapdagi mazmunga qiyoslash orqali bosh gapning mazmini ochiladi. O'xshatish ergash gaplarda bosh gapning mazmuni boshqa bir voqea-hodisaga qiyoslanishi, qarama-qarshi qo'yilishi yoki bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning darajasi izohlanishi mumkin. Bosh gpning bu xususiyatlari ergash gapdan anglashilgan mazmunga qiyoslash orqali ochiladi.¹

O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarda intonatsiyaning ro'li katta. Ergash gap birinchi o'rinda kelganda intonatsiya ko'tariladi, ergash gap bosh gapdan so'ng kelganda esa pasayadi, har ikki gap orasida pauza bo'ladi.

Bu xil ergash gapli qo'shma gaplarni tashkil etgan qismlar qancha keng tarkibli bo'lmasin, ular ikki markazga bo'linadi va shu markazlar qiyoslanadi: 1. Go'yo bular begona-yu, bu esa odamgarchilik yuzasidan muomalaqilib turgandek. 2. Xuddi o'latga chalingan parrandadek, bo'yni ozg'in tizzalari ustida qotdi. (U.H.)

O'xshatish ergash gaplar quyidagi mazmun munosabatlarini ifodalaydi:

1. Qiyoslash mazmuni. Ergash gapli qo'shma gaplarda bosh gapdan anglashilgan belgi-xususiyat ergash gapdagi mazmunga taqqoslash orqali ifodalanadi. Bunda bir-biriga yaqin ikki va undan ortiq harakat-holat, voqea-hodisa qiyoslanadi. Qiyoslash orqali harakat-holatlarning xususiyatlari, xarakteri ochilmaydi, izohlanmaydi, balki qiyoslanayotgan harakat-holat, bekgi-xususiyatning o'xshashligi, yaqinligi ko'rsatiladi. Bunday egash gaplar bosh gapga analitik-sintetik yo'l bilan bog'lanadi. Ergash va bosh gaplarnmg o'zaro birikish usuliga ko'ra ergash gapning mazmun ottenkalari ham turlicha bo'ladi: 1. U dunyoda sen o'z savobu gunohing uchun ajr

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. II. Sintaksis. T., 1966. 458-bet.

olganingdek, meni ham qilib yurgan amallarimga qarab taqdirlaydi. 2. Baliq suvdan o'zga joyda yashayolmaganidek, men ham boshqa joyda qo'lsiz-oyoqsizman. (U.H.)

Ergash gapning kesimi –dek, -day qo'shimchasini olgan sifatdosha bilan ifodalanganda ravish, o'xshatish ergash gaplarga o'xshab ketadi, bu xil ergash gaplarning mazmunini ham o' ichiga oladi. Ammo bunday ergash gaplardagi asosiy mazmun biror harakat-holat, belgi-xususiyatni o'xshatish emas, qiyoslashdir: 1. Ilon po'st tashlab, boshqa yap-yangi liosga kirgani kabi, odamzod ham bahor kelishi bilan bir tozarib-yangilanib oladi. 2. Ikkalasning yuzi bir-biriga shundoq ro'para keldandiki, go'yo bekinmashoq o'ynayotgan bolalarga o'xshadilar shu tobda. (U.H.)

O'xshatish ergash gaplarning bu turida bo'lib o'tgan yoki doimiy bo'ladigan voqea- hodisalar yoki tushunchalar ifodalanib, bosh gap mazmini ularga qiyoslanadi, asoslanadi: Qari kelsa oshga, yosh kelsa ishga degandek, Kamol O'rinboyev yukli mashinadan tushdiyu, o't ichiga kirdi. (O.)

Ergash gapning kesimi –guncha ravishdoshi bilan ifodalanganda ham qiyoslash mazmuni yuzaga chiqadi: Qo'yday bo'lib, ming yil yashaguncha, she'riday bo'lib bir kun yashamoq afzal.

2. O'xshatish. Bosh gapdan anglashilgan mazmun ergash gapda ifodalangan mazmunga o'xshatish orqali izohlanadi, xarakterlanadi. Bunda ergash gap orqali o'xshatilayotgan mazmun xayoliy voqea-hodisa bo'ladi. O'xshatish munosabatini ifodalagan ergash gaplarning shakllanishi va bosh gapga bog'lanish usullari bir necha xildir. O'xshatish ergash gapning kesimi sifatdosha bo'lib, -dek, -day qo'shimchalarini oladi. Bu tipdagi ergash gaplarning o'rni ularning logik qimmatiga va bosh gapning qanday bo'lagiga qarab belgilanadi. Agar ergash gapga ahamiyat berilsa, ergash gap bosh gapdan anglashilgan umumiy mazmunga taalluqli bo'lsa bosh gapdan oldin keladi. Agar ergash gap bosh gapning biror bo'lagiga bog'lansa, uning alohida logik qimmati bo'lmasa bosh gap orasida yoki undan so'ng keladi: 1. Xuddi o'latga chalingan parrandadek, bo'yni ozg'in tizzalari ustida qotdi. 2. U me'yorni nazardan chetga qochirgandi, go'yo ikkita olam chegaralarini aralashtirib-chalkashtirib yuborgandi. (U.H.)

Bunday ergash gaplar bosh gap bilan kabi, singari ko'makchilari orqali ham bog'lanadi. Mazkur holatlarda ham ikki holat yonma-yon qo'yilib, bir-biriga o'xshatiladi: 1. Ilon po'st tashlab, boshqa yap-yangi liosga kirgani kabi, odamzod ham bahor kelishi bilan bir tozarib-yangilanib oladi. 2. Ikkalasning yuzi bir-biriga shundoq ro'para keldandiki, go'yo bekinmashoq o'ynayotgan bolalarga o'xshadilar shu tobda. (U.H.)

O'xshatish ergash gaplarni bosh gapga bog'lash uchun go'yo, xuddi, kabi yuklamalari ham qo'llanadi. Bunda ergash gapdagi o'xshatish mazmuni yanada ta'kidlanadi: U, xuddi ukasi ko'chada kutib turganday, qushday uchib chiqdi.

Ergash gap bosh gapga shunday olmoshi va –ki bog'lovchisi yordami bilan birikkanda ular bilan birga go'yo, xuddi yuklamalai ham ishtirok etadi: Oppoq yuzi quyoshda shunday tiniq ko'rindiki, go'yo u nurdan yaratilganday.

Bosh gapdagi voqeani uning hajmi va darajasiga ko'ra o'lchab ko'rsatadigan ergash gap turi miqdor-daraja ergash gap deyiladi. Miqdor-daraja ergash gap tarkibining kesimi shart mayli shaklida bo'ladi: 1. Akam o'z yo'lini to'g'ri deb qanchalik ishonsa, otam ham o'z e'tiqodida shunchalik sobit. 2. Unga saryog' surtilgan yumshoq non qanday zarur bo'lsa, yaproqlar qo'shig'i ham shunchalik zarur. (U.H.)

Bunda ergash gapdagi qancha? qanchalik? nechog'lik olmoshlari bosh gap tarkibida kelgan shuncha, shunchalik, shu chog'li, shu qadar kabi so'zlariga mos keladi: Shu darajada ozki, hatto oila, bola-chaqa tashvishlari bilan yashab bo'lmaydi. (U.H.)

Bunday ergash gaplar bosh gapga quyidagi vositalar orqali birikadi: 1) -sa, gan sari, gan sayin: 1. Yerga qancha ko'p ishlov berilsa, shunchalik hosil mo'l bo'ladi. 2. Ahmad qanchalik kuch sarflagani sari, ish shunchalik chekinardi. (T.M.)

2) -ki (shunday, shu qadar, shunchalik, shu darajada): Konvert ustidagi adreslar ham, familiyalar ham shunday chiroyli qilib yozilganki, har qanday kishining havasi keladi. (R. R).

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga chog'ishtiruv, o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar va qiyoslash semanikasini ifodalovchi boshqa gaplar kiritiladi. Bunday ergash gapli qo'shma gaplar orqali oxshatish, qiyoslash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi.

3.5. Shart munosabatini ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Shart munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga shart semantikasini ifodalovchi qo'shma gaplar mujassamlanadi.

Shart ergash gaplar bosh gapda anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan yuzaga kelganini, yuzaga kelishi mumkinligini bildiradi. Shart ergash gapning asosiy grammatik belgisi uning kesimining shart fe'li orqali ifodalanishidir. Ammo bu belgiga qarab muayyan qurilmalarni shart ergash gap deb hukm chiqarib bo'lmaydi, chunki shart fe'li boshqa ergash gaplarning kesimi bo'lib kelishi mumkin. Shu sababli ham shart ergash gaplarni belgilashda ergash gap qurilmalarining mazmuniga, tarkibidagi bo'laklarning ma'nosiga e'tibor berish talab etiladi.¹

Shart fe'li boshqargan qurilmalarning ergash gap bo'lishi uchun tarkibida o'z egasi bo'lishi kerak (egasi ma'lum gaplar bundan mustasno), shundagina predikativ munosabat, hukm yuzaga chiqadi. Tarkibida ega qatnashmagan, egasi umumiy bo'lgan birikmalar shart birikmalar, shartli oborotlar sanaladi. Shart ergash gapning kesimi fe'l kesim yoki ot kesim yoki ot kesim shaklida

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. II. Sintaksis. T., 1966. 440-bet.

bo'ladi. Ot- kesim bo'lganda kesim shart fe'li shaklidagi bo'lmoq bog'lamasi bilan birikib keladi:

1. Agar qo'ylarni qayerga yashirganingni aytmasang, go'shtingni itlarim nimalaydi. 2. Hatto kechgacha molni pullab yuborsak, kechqurun pulingni qaytaraman. 3. Agar rozi bo'lsang, shu ish bo'yicha yaxshi maoshli ham, hatto uy olish imkoniyatlari ham boridi.

Shart fe'li logik jihatdan kelasi zamonni ifodalaydi. U har vaqt bosh gap kesimidan anglashilgan harakat-holatdan oldin ro'y beruvchi harakat-holatni ifodalaydi. Shuning uchun ham bosh gapning kesimi kelasi yok hozirgi-kelasi zamonda bo'ladi yoki, buyruq fe'li shaklida bo'ladi. Bosh gapning kesimi o'tgan zamonda ham bo'lishi mumkin. Bunday holda ham bosh va ergash gap orasidagi chegara saqlanadi. O'tgan zamonda shart ergash gapdan anglashilgan harakatdan so'nggina bosh gapdagi mazmun ro'y bergani ifodalanadi: Hatto kechgacha molni pullab yuborsak, kechqurun pulingni qaytaraman.

Shart ergash gapli qo'shma gaplarda doimo bo'lib turadigan yoki bo'lishi mumkin bo'lgan harakat-holatlar to'g'risida fikr yuritilgani uchun ham ko'p maqollar, aforizmlar shu xil qo'shma gaplar shaklida tuziladi: Olim bo'lsang, olam seniki. Katta arava qaysi yo'ldan yursa, kichik arava ham shu yo'ldan yuradi.

Shart fe'lining boshqa fe'l shakllaridan farqi shuki, bu fe'l shakli egasi bilan shaxsda moslashadi, shart fe'li har uchala shaxsda bo'lishi mumkin: Agar sen namozsiz taskin topmayotgan bo'lsang, o'qiyver xohlaganingcha, faqat birovlarini tinch qo'y.

Ergash gap mazmunidagi shart mazmunini yanada ta'kidlash va bosh gap mazmuni bilan qat'iy chegaralash uchun ergash gap kesimidan so'ng –mi, -chi yuklamalari keltiriladi: Bordiyu mashinani to'xtatadigan, shofyorni javobgarlikka tortadigan militsionerning o'zini qasddan urib yuqitib o'tsa-chi, unda nima bo'ladi? (A.Q.)

Shart ergash gaplardan anglashilgan harakat-holatning bajarilishi real sodir bo'lishi yoki real sodir bo'lmasligi mumkin. Shart ergash gaplarning real holatida ergash gapda bosh gapdan anglashilgan mazmunning ro'y berishi uchun shart-sharoitning aniq ekani ko'rsatiladi: 1. Mabodo suvda zardoli oqmay qolsa, bolalar devordan bo'ylaydi. 2. Agar bu qumlar, irg'ayzorlar orasida adashilsa, umr bo'yi yurib ham chiqib ketib bo'lmaydi.

Real sodir bo'lmaydigan shart ifodalovchi shart ergash gap va bosh gaplarning kesimi tarkibida edi fe'li ishtirok etadi: Agar dunyoning narigi burchiga sizni opichlab borishga to'g'ri kelsaydi, men sevina-sevina bajarardim. (O.)

Shu tarzda irreal shart ifodalovchi ergash gaplar, bir tomondan, amalga oshishi mumkin bo'lmagan harakat-holatni ifodalaydi. Ikkinchi tomondan, ergash gapdan anglashilganmazmun ro'y bermagan bo'lsa ham u yuzaga chiqishi mumkin bo'ladi. Shart ergash gaplardagi irreallik gaplarning umumiy mazmunidan, ayrim gap bo'laklarining ma'nolaridan ham anglashilib turadi.

Bunday qo'shma gaplar so'zlovchining istagi, ikkilanishi, iltimosi, maslahati, murojaati kabi modal ma'nolarni ifodalash uchun bir vosita bo'ladi.

Shart ergash gaplar o'zining asosiy mazmunidan tashqari quyidagi ma'nolarni ham ifodalab keladi:

1. Istak, xohish ma'nosi bosh va ergash gapning kesimi shaklidan va umumiy kontekstdan sezilib turadi. Bunday hollarda ergash gapning kesimi buyruq-istak shaklida bo'ladi: Bahor kelsa, toqqa chiqardik.
 2. Sabab-natija mazmuni shart ergash gapning bosh gapidan anglashiladi. Bu holda ergash gap mazmuni bosh gap mazmuni uchun sabab bo'ladi. Bu mazmun munosabati shart ergash gapning hamma turida ham ifodalanadi. Ammo bu mazmun munosabati ayrim ergash gaplarning kesimi ko'pincha –r/-s shaklli sifatdosh yoki aniqlik fe'li orqali ifodalanadi, yohud ot kesim bo'ladi. Ergash gap tarkibida mabodo, bordi-yu kai bog'lovchilar v kesimi sostavida –mi yuklamasi ham bo'lishi mumkin. Ergash gap kesimi shart fe'lidan bo'lsa, bosh kesimi –rdi shaklli fe'l orqali ifodalanadi. Marasul, menga qara, agar Nasibani o'qishdan qoldirib, kurortga olib ketar ekansan, senday jiyanim yo'q. (A Q.).
 3. Qiyoslash mazmuni. Ayrim shart ergash gaplarda qiyoslash ottenkasi bo'ladi. Bunda ergash va bosh gapning umumiy mazmuni yoki ayrim gap bo'laklarining ma'nosi bir-biriga qiyoslanishi mumkin: Sen mening xotinim bo'lsang, meni xotin oladigan o'g'il qilib tuqqan onam o'sha yerda demaysan? (A Q.).
 4. Ayrim shart ergash gaplar bosh gapda ifodalangan mazmunni chegaralaydi. Bu xil ergash gaplarning keimi, asosan, sifatdoshdan bo'ladi: Agar dunyoda haqiqat bo'lganda, o'sha o'ringa men emas, sen o'tirishing kerakmasmidi?
 5. Izoh mazmuni. Shart ergash gapli qo'shma gapning shunday turlari ham borki, ularda bosh gapdan anglashilgan mazmun ergash gapda ifodalangan mazmunga izoh beradi. Bu holda bosh gap tarkibida ergash gap mazmuniga tebg keluvchi olmosh bu, uni kab qo'llanadi: Agar bordiyu, o'lib qolsachi, buni xudodan, kasalning ajali yetganidan yoki kasalning eshonga bo'lgan ixlosining sustligidan va ununing "shakkok"ligidan deb hisoblaydilar
- Ba'zan bu xil konstruktsiyalarning bosh gapi bir sostavli gap bo'lib, odatda, bas, mayli, xo'p, yaxshi, yomon, arziydi kabi so'zlar orqali ifodalanadi (ergash gap logik jihatdan ega vazifasida keldi): Yanglishsangiz, mayli, lekin yolg'on gapirmang. (A Q.).
- Ergash gap bosh gap tarkibidagi ayrim gap bo'lagining ma'nosini, xususiyatini izohlab kelishi mumkin. Bu holda ko'pincha ergash gap ma'nosini izohlanayotgan bo'lakdan so'ng keladi: Pulemyot, agar u jasur odamning qo'lida bo'lsa, nimga qodir ekanini anglatadi.

Ko'pincha, ergash gapdagi shart ma'nosini yanada ta'kidlash uchun agar gar, basharti, bordi-yu, mabodo, modomiki, loshki bog'lovchilari keladi: Madomiki, bizda shunday ko'z paydo bilibdimi, bu safar payqaganimizdan bir narsa chiqmasa, yanagi safar payqaganimizdan chiqadi. (A Q.).

Shart ergash gap, asosan, bosh gapdan oldin keladi. Agar ergash gap qo'shimcha izoh mazmunida bo'lsa, bosh gapdagi biror bo'lakka alohida ahamiyat berish zarur bo'lsa, ergash gap bosh gapning ana shunday bo'ladigan so'ng, bosh gap orasida keladi: Bunaqa gap, traktor kelsa, ziyon qiladigan odamdan chiqadi. (A Q.).

Bu qo'shma gapda shart ergash gap egadan so'ng kelib, egaga qo'shimcha izoh beradi, uning ma'nosini bo'rttirib, ajratib ifodalaydi. Quyida ergash gap bosh gapning kesimida shart ergash gap egadan keyin kelib, qo'shimcha izoh beradi, uning ma'nosini bo'rttirib, ajratib ifodalaydi: Bunda kalla bo'lsa ekan, pushaymon bo'lsa!(A.Q.)

Har qanday shart mayli shakli qatnashgan gap shart ergash gap bo'lavermaydi. Bu shakl bilan ba'zan kirish bo'lak, ma'no kuchaytiruvchi yuklama, bog'lovchi va boshqa vazifalarda kelishi mumkin.

Yuqoridagilardan ma'lum bo'ladiki, shart munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga shart semantikasini ifodalovchi qo'shma gaplar mujassamlanadi.

Shart ergash gaplar bosh gapda anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan yuzaga kelganini, yuzaga kelishi mumkinligini bildiradi.

3.6. Maqsad munosabatni ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplar

Bosh gapdan anglashilgan mazmunning nima maqsadda bajarilishini yoki bajarilmasligini bildiruvchi maqsad ergash gaplar deyiladi. Maqsad ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning, belgi-xususiyatning nima maqsadda ro'y berishini yoki ro'y bermasligini bildiradi.¹

Ergash gap ko'pincha bosh gapning kesimiga bog'lanadi, chunki ergash gap kesim va uning unig ob'yektidan ifodalangan mazmunning yuz berish maqsadini bildiradi: Tomoshabin to'planmasin uchun, u dadasiga jerkibroq yuring dedi. (A.Q.)

Maqsad ergash gap bosh gapga analitik yo'l bilan bog'lanadi, bunda bosh va ergash gapni bog'lash uchun deb, toki bog'lovchilar yoki uchun ko'makchisi qo'llanadi. Bu ergash gaplarning kesimi odatda buyruq, shart fe'l mayllari, kelasi zamon fe'li orqali ifodalanadi. Buning sababi shuki, mazmunan maqsad ifodalovchi ergash gapdan anglashilgan mazmun ro'y bergandan so'ng yuzaga chiqishi zarur bo'ladi.

Bosh gapga bog'lanish usuliga ko'ra, maqsad ergash gapning qiyidagicha turlari bor:

¹ Hozirgi o'zbek adabiy tili. II. Sintaksis. T., 1966. 445-bet.

1. Maqsad ergash gap bog'lovchi vazivasidagi deb ravishdoshi orqali bosh gapga bog'lanib keladi. Bunda ergash gap ko'chirma gap shaklida bo'ladi, ammo mazmunan bunday ergash gaplar ko'chirma gap emas, chunki bunday gap o'zgalar nutqining ayni o'zi bo'la olmaydi, bunday konsruktsiya maqsad munosabatini ifodalashning bir grammatik usuli bo'ladi.

Deb bog'lovchisi yordami bilan bosh gapga bog'langan maqsad ergash gaplarning kesimi, odatda, buyruq-istak fe'li shaklida bo'ladi. Buyruq-istak fe'li, ko'pincha, uchinchi shaxsda, kamroq birinchi va ikkinchi shaxsda bo'ladi: 1. Amir ulardan ko'z uzmad, toki ko'z-ko'zga tushganda muddaoni tushunishlari mumkin bo'lsin. (U.H.) 2. Tarxon ko'rsin deb, olovni yuzimga tutdim. (T.M.)

Maqsad ergash gapning kesimi shart fe'li shaklida bo'ladi. Bu holatda ergash gapdan orzu-istak, maqsad mazmuni anglashib, bosh gapdagi harakat-holat qanday orzu-umid, maqsadlar bilan vujudga kelishi ko'rsatadi.

Kesimi shart fe'li bilan ifodalangan maqsad ergash gaplardagi mazmun kesimi buyruq fe'li bilan ifodalangan ergash gaplardagiga qaraganda, qat'iy bo'lmaydi. Bu holatda ergash gapdagi mazmun yuzaga chiqishi ham, chiqmasligi ham mumkin.

Maqsad ergash gapning kelasi zamon sifatdoshining bo'lishli yoki bo'lishsiz shakli bilan ifodalanishi mumkin. Bu holatda kelasi zamonda ro'y berishi mumkin bo'lgan voqea, hodisalar to'g'risida fikr yuratiladi. Kelasi zamonga oid voqeaning ro'y berishi yoki bermasligi qat'iy qilib qo'yilmaydi: O'g'linga tegmasa, o'rtoqlariga tegar deb, xalta-xalta mayiz, turshak yubordim. (O.)

2. Maqsad ergash gap bosh gapga uchun ko'makchisi orqali, bog'lanadi, ergash gapning kesimi buyruq fe'lining uchinchi shaxs shaklida bo'ladi. Bu xil maqsad ergash gaplarda sabab ottenkasi ham bor.

Maqsad ergash gapning bu turining kesimi buyruq-istak mayli bilan ifodalangan fe'l kesim yoki ot kesim shaklida bo'ladi. Ot kesim bo'lganda, buyruq fe'lining uchinchi shaxsidagi bo'lmoq bog'lamasi bilan birikib keladi: qalandarov so'zni aylantirib, byuro sostavida qolishga xohish bildirib qo'ymasin uchun, Saida yana uning so'zini og'zidan oldi. (A Q.).

Uchun ko'makchisi yordami bilan bosh gapga bog'langan ergash gapning kesimi egalik affiksini olgan harakat nomi yoki hozirgi-kelasi zamon sifatdosh shaklida bo'lishi ham mumkin: Nurida shubha qoldirmaslik uchun, o'zining Yo'lichiga bo'lgan munosabatini biron harakat bilan bildirmaslikka tirishdi. (O.)

Maqsad ergash gap bosh gapga toki bog'lovchisi yordami bilan birikadi. Bu xil ergash gaplar bosh gapdan so'ng kelib, toki bog'lovchisi bilan boshlanadi. Ergash gapning kesimi, odatda, uchinchi shaxs buyruq fe'lidan bo'ladi (ergash gapning kesimi ot kesim bo'lgan taqdirga, buyruq fe'li shaklidagi bo'lmoq bog'lamasi qo'llanadi) bu holda bosh gapning kesimi buyruq fe'li, harakat nomi bilan kerak modal so'zining birikuvi yoki hozirgi-kelasi zamon aniqlik fe'li orqali birikuvi

yoki hozirgi-kelasi zamon aniqlik fe'li orqali ifodalanadi: Yashiraman yovuz ilonni yuraginga, toki ko'rmasin dushmanlarim hasrat kulgisin.(O.)

Bu xil maqsad ergash gapnini kesimi tarkibida deb bo'lovchisi kelishi ham mumkin; bu holda maqsad mazmuni yanada ta'kidlanadi, bosh va ergash gap orasidagi chegara qat'iylashadi: Amir ulardan ko'z uzmadi, toki ko'z-ko'zga tushganda muddaoni tushunishlari mumkin bo'lsin. (U.H.)

Ma'lum bo'ladiki, maqsad munosabatni ifodalovchi qo'shma gaplar maqsad ergash gapli qo'shma gaplarni o'z ichiga oladi. Maqsad ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning, belgi-xususiyatning nima maqsadda ro'y berishini yoki ro'y bermasligini bildiradi.

XULOSA

Qo'shma gap til sintaktik sathining oliy birligidir. Sodda gap ham sintaktik sath birligi hisoblansa-da, u qo'shma gapga qaraganda anchayin ixcham birlikdir. Qo'shma gap sodda gapdan, eng avvalo, mazmun sig'imining kattaligi, mazmuniy-sintaktik tuzilishining o'ziga xosligi, murakkabligi bilan farqlanadi. Albatta, har ikki gap turi — sodda gap ham, qo'shma gap ham muayyan hukm ifodachisi sifatida mavjud bo'lsa-da, tilning kishilar o'rtasida aloqa vositasi bo'lishday eng muhim vazifasi bevosita gaplarda namoyon bo'lsa-da, sodda va qo'shma gaplar tuzilishi va mazmuniy tarkibi hamda bu tarkibni yuzaga keltiruvchi uzvlar munosabati ularning har birida mutlaqo o'ziga xosdir. Mantiq fani nuqtai nazaridan olib qaraladigan bo'lsa, sodda gaplarda asosan sodda hukm, qo'shma gaplarda esa murakkab hukm ifodalanadi.

Birdan ortiq komponentlarni biri ikkinchisiga sintaktik jihatdan tobe bo'lishi va o'zaro ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi so'zlar, nisbiy so'zlar orqali birikishidan tashkil topgan qo'shma gaplar ergashgan qo'shma gaplar deyiladi. Ergashgan qo'shma gaplar ham fikriy, ham grammatik va intonatsion butunlikdan iborat bo'lib, ularning tarkibidagi komponentlar sintatik jihatdan biri ikkinchisiga tobe bo'ladi.

Gapni tashkil etgan sodda gaplar mazmuni, grammatik qurilishi va intonatsiyasi bilan alohida qo'llanuvchi mustaqil sodda gaplardan farq qiladi. Ergashgan qo'shma gaplar o'ziga xos grammatik xususiyatlarga ega. Ergashgan qo'shma gaplarda ergash gap bosh gapga ergashtiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchi vazifasidagi birliklar, olmoshlar, nisbiy so'zlar, ko'makchili qurilmalar bilan bog'lanadi. Ergash gap bosh gapdan oldin ham, bosh gapdan keyin ham kelishi mumkin.

Ergash gapli qo'shma gaplar, umuman, qo'shma gaplarning qurilishi turli shakllarga — qoliplarga ega. Har bir qolip alohida grammatik vositalarni talab qiladi. Ergashgan qo'shma gaplar turlicha tasnif qilingan: bog'lovchi vositalarga ko'ra, ergash gaplarning bosh gap tarkibidagi qaysi bo'lakni izohlab kelishiga ko'ra. Bizningcha, ergashgan qo'shma gaplarni ular orqali yuzaga chiqqan mazmuniy munosabatlarga ko'ra tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Ergash gap bosh gapga bog'lanib uning bir bo'lagini yoki bosh gapni butunicha - butun bir gapni izohlab, to'ldirib bir tomondan xarakterlab keladi. Bosh gap ergash gap tomondan izohlanadi, aniqlanadi, va u ergash gapga nisbatangina mustaqil, tugallangan tusda bo'ladi: ergash gap uni izohlaydi unga ergashgan bo'ladi.

Ergash gap bilan bosh gap birga olinib, bir butunlikni – ergashgan qo'shma gapni tashkil etgandagina u tugallangan mustaqil qo'shilma-qo'shma gap sanaladi.

Qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan, kabi turlaga ajratish uning formal tomoni hisoblanadi. Qo'shma gaplarni tadqiq etishda unda qanday voqea ifodalanganligi, uning nima haqida ekanligini tahlil etish maqsadga muvofiq.

Voqealar o'rtasidagi munosabat ergash gapli qo'shma gaplarda aniq va to'liq ifodalanadi. Bu munosabatning ifodalanishi va belgilanishida bog'lovchi va bog'lovchi vositalarning o'ri benihoya muhimdir. Ergashtiruvchi bog'lovchilar yoki shunday vositalar ergash gapning mazmunini asosan tayin etishi mumkin. Bu bog'lovchi vositalar o'z mazmuniga ko'ra muayyan munosabatga kirishayotgan voqealarni faqat bog'lash uchungina xizmat qilmaydi, balki bunga qo'shimcha ravishda yana turli modal ma'nolar, so'zlovchining sub'yektiv munosabatlarning ifodalanishi uchun ham ko'mak beradi

So'zlovchi tomonidan fikr ifodasi uchun ayni ergash gapli qo'shma gap (yoki umuman qo'shma gap) shaklining tanlanishi mutlaqo tasodifiy bo'lmaydi. Lisoniy texnika (lingvotexnika) nuqtai nazaridan, albatta, sodda gap o'ng'ayroq. Lekin so'zlovchi fikrni ixcham va ayni chog'da barcha ob'yektiv va sub'yektiv jihatlar bilan ifodalashga zaruriyat sezganda qo'shma gapga murojaat qiladi.

Bir necha voqea va ular o'rtasidagi xilma-xil mantiqiy munosabatlar (maqsad, sabab-oqibat, shart, payt kabi)ni ifodalash uchun axborot beruvchi tomonidan jumlaning qo'shma gap tarzida tuzilishi, «xulosa chiqarish operatsiyasiga o'xshaydi». Bunda axborot beruvchi axborotni maxsus mantiqiy ishlovdan o'tkazadi, ya'ni voqealar o'rtasidagi munosabatni baholaydi, aniqlaydi, unga o'z nuqtai nazarini bildiradi. Bu mantiqiy operatsiyalarning natijasi sifatida shakllangan qo'shma gapda ayni mazmunlar muayyan darajada aks etadi.

Qo'shma gaplarning izohlash munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladigan turlari keng tarqalgan. Izohlash munosabatin ifodalovchi ergash gapli qo'shma gaplarga ega ergash gap, kesim ergash gap, aniqlovchi ergash gap, to'ldiruvchi ergash gap, o'rin ergash gaplarni kiritish mumkin. Bunday ergash gapli qo'shma gaplarning ergash gap qismi bosh gapdagi mavhum harakat-holatni aniqlashtirishga yordam beradi.

Payt munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga payt ergash gapli qo'shma gaplar kiritiladi. Payt ergash gap bosh gapdagi harakatning bajarilish vaqtini – paytini ko'rsatadi. Qo'shma gapdagi harakatlarning bir vaqt yoki turli vaqtda bajarilishi ham turlicha bo'ladi. Bir vaqtning o'zida

bajariladigan harakat ham turli ottenkalariga ega bo'lishi, shuningdek, bajariladigan harakat ham har xil bo'lishi mumkin. Ergash gapdagi harakat bosh gapdagi harakatdan yo oldin bajariladi, yo keyin bajariladi.

Sabab-natija munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplar o'z ichiga sabab-natija mazmunini ifodalovchi qo'shma gaplarni qamrab oladi. Bunday munosabat anglata oladigan ergash gapli qoshma gaplarga sabab, natija, to'siqsizlik ergash gapli qo'shma gaplarni kiritish mumkin.

Qiyoslash munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga chog'ishtiruv, o'lchov-daraja ergash gapli qo'shma gaplar va qiyoslash semanikasini ifodalovchi boshqa gaplar kiritiladi. Bunday ergash gapli qo'shma gaplar orqali oxshatish, qiyoslash kabi mazmuniy munosabatlar ifodalanadi.

Shart munosabatini ifodalovchi qo'shma gaplarga shart semantikasini ifodalovchi qo'shma gaplar mujassamlanadi. Shart ergash gaplar bosh gapda anglashilgan ish-harakatning qanday shart bilan yuzaga kelganini, yuzaga kelishi mumkinligini bildiradi.

Maqsad munosabatni ifodalovchi qo'shma gaplar maqsad ergash gapli qo'shma gaplarni o'z ichiga oladi. Maqsad ergash gap bosh gapdan anglashilgan harakat-holatning, belgi-xususiyatning nima maqsadda ro'y berishini yoki ro'y bermasligini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurahmonov G'. Qo'shma gap. -T.: Fan, 1957.
2. Abdurahmonov G', Xoliyorov X. v.b.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Sintaksis. -T.: O'qituvchi, 1987.
3. Ashurova D., va boshq. Gapning uyushgan va ajratilgan bo'laklari.-T.: Fan, 1963.
4. Ahmedov A. O'zbek tilida gapning kommunikativ turlari. -T., 1979.
5. Rasulov I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar. -T., 1974.
6. Mahmudov N., Nurmonov A. v.b. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. Sintaksis. -T.: O'qituvchi, 1995.
7. Mahmudov N. O'zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik asimmertiya. -T.: O'qituvchi, 1984.
8. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili. -T.: O'qituvchi, 1972.
9. Nurmonov A. Gap haqidagi sintaktik nazariyalar. -T.: 1988.
10. Nurmonov A., Mahmudov N. va boshq. O'zbek tilining mazmuniy sintaksisi. -T.: Fan, 1992.
11. Ne'matov H., Sayfullaeva R., Qurbonova M. O'zbek tili struktural sintaksisi asoslari. -T.: Universitet, 1999.
12. Rasulov I. Hozirgi o'zbek adabiy tilida bir sostavli gaplar. -T.: Fan, 1974.
13. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilida tobe bog'lanishning turlari. -T.: Fan, 1993.
14. Rahmatullaev Sh. Til qurilishining asosiy birliklari. -T.: Universiteti, 2002.
15. Sayfullaeva R.R. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari.-T.: Fan, 2000.
16. Sayfullaeva R.R. Hozirgi o'zbek adabiy tilida gap bo'laklarining semantikasi va grammatikasi. -T.: Fan, 2000.
17. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. -T.: O'qituvchi, 1983.
18. Gulomov A., Asqarova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T.: O'qituvchi, 1989.
19. O'zbek tili grammatikasi. II tom. -T.: Fan, 1976.
20. Hozirgi o'zbek adabiy tili. II. Sintaksis. -T.: Fan, 1966.
21. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. -T.: O'qituvchi, 1985.
22. Hojiyev A. Fe'l. -T.: Fan, 1973.